

***O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI***

Samarqand davlat universiteti

***TARIX fakulteti
Tarixshunoslik va manbashunoslik kafedrası***

“Tarixi Rashidiy” asari tahlili

Magistrlik dissertatsiyasi

Bajardi: Rustamova Madina

Ilmiy rahbar: Dots. Ergashev B

Samarqand – 2016 y

REJA:

Kirish	3-11
---------------------	-------------

I Bob. “Tarixi Rashidiy” asari va uning muallifi to’g’risida

1.1. Muhammad Haydarning hayoti va ilmiy merosi	12-17
1.2. “Tarixi Rashidiy” asarining qo’lyozma nusxalari	18-24
1.3. “Tarixi Rashidiy” asarining mazmuni va o’rganilishi	25-32

II Bob. “Tarixi Rashidiy” asari birinchi daftaridagi ma’lumotlar

2.1. Chingizxon – Chingiziylar haqida	33-41
2.2. Amir Temur tarixiga oid yozma xabarlar	42-50
2.3. Amir Temurning Mo’g’ulistonga yurishlari	51-62

III Bob. “Tarixi Rashidiy” asari ikkinchi daftari tahlili

3.1. Shayboniylar to’g’risida yozma ma’lumotlar	63-74
3.2. Zahriddin Muhammad Bobur tarixining yoritilishi	75-85

Xulosa	86-91
---------------------	--------------

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati	92-93
---	--------------

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Vatanimiz o'tmishi turli-tuman ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy voqealarga boy bo'lib, xalqimizning ana shunday ulkan tarixi olim-fozil ajdodlarimiz tomonidan o'z davrida qalamga olingan va bunday yozma manbalarning aksariyat qismi bizgacha ham yetib kelgan. Hozirgacha ularning ayrimlari ilmiy jihatdan o'rganilib, o'zbek va boshqa tillarda nashr qilingan.

Mamlakatimiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritgach, tariximizga oid yozma manbalarni o'rganishga keng imkoniyatlar yaratildi. Zero hurmatli prezidentimiz ta'kidlaganlaridek “Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar mobaynida yaratib kelingan g'oyat ulkan, bebaho ma'naviy va madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan nihoyatda muhim vazifa bo'lib qoldi”¹.

Mustaqillik yillarida sobiq sho'rolar davrida deyarli yo'q bo'lish darajasiga borib qolgan yurtimiz tarixi tiklandi. Boy madaniy merosimizning tarixiy ildizlarini yanada kengroq yoritish imkoniyatlari ko'paydi. Chunki bu davrning muhim xususiyatlaridan biri “... tarixchi olimlarimiz, har biri turli tushuncha, muayyan qarashga ega bo'lishidan qat'i nazar, bir joyga to'planib, bahs yuritib, bir xulosaga kelishlari kerak” – degan harakat shiorga aylandi². Sababi yurtboshimizning iboralari bilan aytganda “tarixchilarimiz millatga uning haqqoniy tarixini ko'rsatib, isbotlab berishlari kerak”³. Chunki insoniyat taraqqiyoti tarixida shunday tarixiy shaxslar bo'lganki, ularning faoliyati mahalliy madaniy hudud chegarasidan tashqariga chiqibgina qolmay, balki davrlar chegarasini yorib o'tib, g'oyalar rivojlanishida umumjahon jarayonining bir qismiga ham aylandi. Ularning asarlari, barcha nodir hodisalar singari avval o'tganlar tajribalarining eng qimmatli tomonlarini o'zida gavdalantiradi, jamiyat ilmiy fikri hamda ma'naviy madaniyatining keyingi ko'p asrlarda sodir bo'ladigan olg'a harakatini belgilab beradi.

¹ Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва таракқиёт кафолатлари. – Т.: Ўзбекистон, 1997. – Б. 137.

² Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Т.: Шарқ, 1998. Б. – 21.

³ Ўша жойда.

Yurtimiz tarixshunosligi saxifalarida mug'ullar istilosi arafasidagi siyosiy dunyoqarash va ularni tarixiy jihatdan o'rganish ko'p hollarda uzoq davrlar davomida madaniyat tili, manbalar tili, tarixiy manbalar tili arab tilida yaratilgan tarixiy asarlarning umumiy xususiyatlaridan biridir. Ular arab tilida yozilgan bo'lsada, barchasida umumiy tarixni qamrab olishga, ya'ni tarixni jaxon tarixi sifatida idrok etishga, talqin qilishga intilish alohida ko'rinib turadi. Bunday holatda fanning ko'rinishi "kelajagimizning shakli shamoyilini yaratib berish,ertangi kunimizning yo'nalishlarini, tabiiy qonuniyatlarini, uning qanday bo'lishini ko'rsatib berishdan iborat"⁴.

O'rta Osiyo, Xuroson, Hindiston va Sharqiy Turkistonning XV asr oxirlari – XVI asr birinchi yarmidagi tarixini o'rganishda Mirzo Muhammad Haydarning 1541-1546 yillarda yozilgan «Tarixi Rashidiy» asari muhim manba hisoblanadi. Shu jihatdan ushbu magistrlik dissertatsiyasi uchun tanlangan "Mirzo Muhammad Haydarning "Tarixi Rashidiy" asari manba sifatida" mavzusi dolzarb ahamiyatga ega.

Mirzo Muhammad Haydar yashab ijod qilgan davri temuriylar davlatining inqirozi, ya'ni XV asrning 80-90 yillaridagi siyosiy voqealar natijasida viloyatlarda separatizmning kuchayishi oqibatida yuz berayotgan voqealar davriga to'g'ri keladi.

Nihoyatda og'ir siyosiy vaziyatga qaramasdan yurtimizda tarixnavislik fani davomiyligi ta'minlab turildi. Bu davrda "Tavorixi guzida, nusratnoma" asari yozilgan bo'lib, muallifi noma'lumligicha qolmoqda. Unda O'g'izxon va qadimgi turklar, Chingizxon davri, Shayboniylar va Dashti Qipchoq tarixi aks etgan.

O'sha davr mualliflari Abdulla Nasrullohiy, Muhammad Solih, Abulg'ozixon, Ogahiy, Bayoniy, Kamoliddin Binoiy, Xondamir kabi tarixchi olimlar asarlar yaratganlar. Shubhasiz bunday tarixnavislik traditiyalarini XVI asrning eng yirik tarixchi olimi Mirzo Muhammad Haydar hisoblanadi. Avlodlari temuriylar saltanatida davlat amaldorlari lavozimida ishlaganligi sababli juda ko'plab voqealar ishtirokchisi Mirzo Muhammad Haydar zamonasining o'qimishli

⁴ Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Т.: Шарқ, 1998. – 21.

va keng mushohadali kishilaridan biri bo'lgan. Uning bizgacha etib kelgan "Jahonnoma" va "Tarixi Rashidiy" asarlari qimmatli manbadir.

Mazkur dissertatsiya ishida Mirzo Muhammad Haydarning 1544-1546 yillarda Kashmirda yozilgan va ikki jild(daftar)dan iborat bo'lgan "Tarixi Rashidiy" asarining tarixiy-manbaviy ahamiyati birinchi bor tahlil qilinmoqda. Bu ham tadqiqotning yangiligi va dolzarbligini belgilaydi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Mamlakatimizning XVI asr tarixi yurtimiz tarixshunosligining muhim tomonlaridan biridir. Dastlabki sharq renessansi davrida tarixiy tadqiqotlardagi islom madaniyati ildizlarining saqlab qolinishi keng kuzatiladi. O'sha davr tarixnavisligidagi asarlarda muayyan an'anaviylikka Allohga hamdu sanolar, payg'ambarlarga ta'riflar berilib, undan keyin asar kimga yoki nimaga bag'ishlanganligi to'g'risida so'z yuritiladi.

Tarixiy manbashunoslikda XVI asr birinchi yarmiga oid ma'lumotlar ko'plab uchraydi. Biroq ulardagi voqealar, ma'lumotlarning o'rganilish darajasi turlicha. Xususan, Mirzo Muhammad Haydarning «Tarixi Rashidiy» asari haqidagi dastlabki ma'lumotlar Mirzo Muhammad Haydar haqida yozib qoldirgan olimlar asarlarida keltirilgan. Mirzo Muhammad Haydar haqida «Boburnoma»ning ikki o'rnida g'oyat muhim ma'lumot berilgan. Jumladan, «Haydar mirzo edi. Otasini o'zbek o'lturgandin so'ng kelib, mening mulozamatimda uch-to'rt yil bo'ldi, so'ngra ijozat tilab, Koshg'arga xon qoshiga bordi. Bu tarixda deydurlarkim, toyib bo'lub, yaxshi tariqa paydo qilibtur. Xat va tasvir, o'q va paykon va zihgir har nimaga iligi chaspondur. Ta'bi nazmi ham bordur. Manga arzadoshti kelib edi, inshosi ham yomon emas»⁵. Ushbu qisqa axborotlarda Bobur mirzo Muhammad Haydar haqida juda ko'p ma'lumotlarni bergan. Hatto uning Sulton Saidxon dargohida ichkilikka berilgani va tavba qilib ichmay qo'ygani qayd etilib, maktubiga ko'ra uning bayoni iqtidoriga ham yaxshi baho berilgan. Mirzo Muhammad Haydarga va uning ilmiy merosiga berilgan bu kabi munosib baholar o'rta asrlarda yaratilgan ko'plab manbalarda keltirilgan.

⁵ Бабу́р-наме (Записки Бабу́ра) /Перевод М. Салье. Отв. ред. С.А. Азимджанова. – Т., 1958. – С. 58.

Mirzo Muhammad Haydar o'zining «Tarixi Rashidiy» asarini yozishda Yoqut Hamaviyning «Mujam ul-buldon», Juvayniyning «Tarixi Jahonkushoy», Rashididdinning «Jome ut-tavorix», Jamol Qarshiyning «Mulhaqot us-suroh», Sharafuddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma»⁶, Mirzo Ulug'bekning «Tarixi arba' ulus»⁷ va nihoyat Abdurazzoq Samarqandiyning «Matla' us-sa'dayn»⁸ va boshqa olimlarning asarlaridan keng foydalangan. Shunga qaramasdan unda ham Markaziy Osiyoning XIV-XV asrlardagi ijtimoiy-siyosiy hayotiga oid yangi, yuqoridagi manbalarda bo'lmagan ma'lumotlar ko'p.

«Tarixi Rashidiy» asari yozilganidan keyin bir asr o'tar-o'tmas Sharq tarixchilari va geograflari o'z asarlarini yozishda undan foydalana boshlaganlar. Bu esa mazkur muhim manbaning keng tarqalishiga sabab bo'lgan. Buni asar nusxalarining ko'pgina qo'lyozmalar xazinalarida saqlanayotganligi ham tasdiqlaydi.

XVI-XIX asrlar Markaziy Osiyodagi Sharkiy Turkiston, Hindiston, Tibet, Afg'oniston kabi mamlakatlarning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy hayoti, tarixi, etnografiyasi va geografiyasini yoritishda ko'plab olimlar «Tarixi Rashidiy»dan foydalanishgan. Xususan, Ahmad Roziy o'zining 1594 yilda yozilgan «Haft iqlim», Haydar ibn Ali Roziy o'zining 1618 yilda yozilgan «Tarixi Haydariy», Haydar Malik o'zining «Tarixi Kashmir», Mahmud ibn Vali o'zining 1640 yilda yozilgan «Bahr ul-asror»⁹, Mahmud Churos o'zining «Ta'rix», Mullo Muso Sayramiy o'zining «Tarixi Amniya», Hofiz Tanish Buxoriy o'zining «Abdullanoma»¹⁰ asarida Mirzo Muhammad Haydarning ma'lumotlaridan keng foydalanishgan.

⁶ Шарафаддин Али Иязди. Зафар-наме /Подготовка к печати, предисловие, примечания и указатели А. Урунбаева. – Т., 1972.

⁷ Мирзо Улугбек. Тўрт улус тарихи. Б.Ахмедов кириш сўзи, изоҳдари ва таҳрири остида. Форс тилидан Б.Ахмедов, Н.Норкулов ва М.Хўжаевлар таржимаси. – Т., 1994.

⁸ Абдураззоқ, Самарқандий. Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн. II жилдлик. Форс тилидан таржима, сўзбоши ва изоҳдар муаллифи Асомиддин Ўринбаев. – Т., 2008.

⁹ Махмуд б. Вали. Бахр ал-асрар. Море тайн относительно доблестей благородных. (География)/Введение, перевод, примечания, указатели Б.А. Ахмедова. – Т., 1977.

¹⁰ Хафиз-и Таниш Бухари. Шараф-наме-йе шахи. Факсимиле рукописи, перевод с персидского, введение, примечания и указатели М.А. Салахетдиновой. Ч. 1. – М., 1983.

«Tarixi Rashidiy» XVIII asrdan boshlab hozirgacha dunyoning 10 dan ortiq tillariga tarjima qilingan. Jumladan, «Tarixi Rashidiy» ingliz (1895, 1972, 1998), nemis, fransuz, xitoy (1985), rus (1996, 1999), qozoq (2003), turk (2006), uyg'ur (2007), qirg'iz va boshqa tillarga o'girilib, nashr etilgan.

Rus olimlari ham o'z tadqiqotlarida «Tarixi Rashidiy» asaridan muhim manba sifatida foydalanganlar. Ularning birinchisi V.V. Velyaminov-Zernov hisoblanadi (1863-1864). Undan so'ng A.N. Kuropatkin Qoshg'ar haqidagi (1874), V.I. Masalskiy (1913) Turkiston o'lkasi haqidagi tadqiqotida Mirzo Muhammad Haydarning asaridan foydalanishgan¹¹. Keyinchalik V.V. Bartold¹², K.E. Bosvort¹³, P.P. Ivanov¹⁴, O.F. Akimushkin¹⁵, K.A. Pishulina¹⁶, N. Mingulov¹⁷, L.B. Yerzakovich¹⁸, A.N. Bernshtam¹⁹, A.M. Muginov²⁰, K.I. Petrov²¹, S.M. Abramzon²² kabilar bu asardan foydalanishgan, parchalar tarjima qilishgan²³.

Yurtdosh olimlarimizdan B.Ahmedov²⁴, I.Abdullayev²⁵, S.A. Azimjonova²⁶, O.H. Jalilov²⁷, va boshqalar o'z tadqiqotlarida Mirzo Muhammad

¹¹ Мирза Мухаммад Хайдар. Та'рих-и Рашиди. Введ., пер. с персидского А.Урунбаева, Р.П. Жалиловой, Л.М. Епифановой. Примечания и указатели Р.П. Жалиловой и Л.М. Епифановой. – Т.: Фан, 1996. – С. 11.

¹² Бартольд В.В. История культурной жизни Туркестана. Соч. Т. II. (ч. 1). – М., 1963.; Бартольд В.В.. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. Соч. Т. I. – М, 1963.; Бартольд В.В. Хайдар-мирза. Соч. Т. VIII. – М, 1973.

¹³ Босворт К.Э. Мусульманские династии. Справочник по хронологии и генеалогии. – М, 1971.

¹⁴ Иванов П.П. Очерки по истории Средней Азии. – М., 1958.

¹⁵ Акимускин О.Ф. Персоязычные источники по истории Восточного Туркестана // Филология и история тюркских народов. Тюркологическая конференция. – Л., 1967.; Акимускин О.Ф. К вопросу о внешнеполитических связях могольского государства с узбеками и казахами в 30-х годах XVI – 60-х годах XVII вв. // Палестинский сборник. Вып. 21 (84). Ближний Восток и Иран. – Ленинград, 1970.; Акимускин О.Ф. Хронология правителей восточной части Чагатайского улуса (линия Туглук Тимур хана) // Восточный Туркестан и Средняя Азия /Под ред. Б.А. Литвинского. – М., 1984.

¹⁶ Пишулина К.А. Юго-Восточный Казахстан в середине XIV – начале XVI в. – Алма-ата, 1977.

¹⁷ Мингулов Н. Мухаммад Хайдар Дуглат//Великие ученые Средней Азии и Казахстана. – Алма-ата, 1965.

¹⁸ Ерзакович Л.Б. О позднесредневековом городище Аспара // Новое в археологии Казахстана. – Алма-ата, 1968.

¹⁹ Бернштам А.Н. Архитектурные памятники Киргизии. – М-Л., 1950.

²⁰ Мугинов А.М. Описание уйгурских рукописей Института Народов Азии. – М.: Изд-во вост. лит., 1962. – С. 37-44.

²¹ Петров К.И. К истории движения киргизов на Тянь-шань и их взаимоотношений в XIII-XIV вв. – Фрунзе, 1961.

²² Абрамзон С.М. Киргизы и их этнические и историко-культурные связи. – Л., 1971.

²³ Мирзо Мухаммад Хайдар Аъзий. Тарихи Рашидий. Нашрга тайёрловчи, сўзбоши, табдил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифи т.ф.н. О.Жалилов. – Т.: O'zbekiston, 2011. – Б. 23.

²⁴ Ахмедов Б.А. К изучению политической истории Киргизии XV в. // Общественные науки в Узбекистане 1961. № 5.; Ахмедов Б.А. Государство кочевых узбеков. – М., 1965.; Ахмедов Б.А. Улугбек и политическая жизнь Мавераннахра первой пол. XV в. /Из истории эпохи Улугбека. – Т., 1965.; Ахмедов Б.А. Улугбек. – Т., 1989.; Ахмедов Б.А. Узбек улуси. – Т., 1992; Ахмедов Б.А. Тарихдан сабоқлар. – Т., 1994.

²⁵ Ҳожи Исматуллоҳ Абдуллоҳ. Марказий Осиёда ислом маданияти. – Т., Шарқ, 2005.

²⁶ Мирзо Мухаммад Хайдар Аъзий. Жаҳоннома. Нашрга тайёрловчилар: С.А. Азимжонова, А.Ўринбоев, О.Ҳ. Жалилов. – Тошкент, 1999.

Haydar va uning «Tarixi Rashidiy» asari haqida ma'lumot berib o'tganlar. Mustaqillik yillarida «Tarixi Rashidiy» asari yurtdosh olimlarimiz tomonidan bir necha bor rus va o'zbek tillariga tarjima qilinib, nashr etildi. Rus tiliga qilingan tarjima 1996 yida nashrdan chiqdi²⁸. Asar birinchi marta 2010 yilda²⁹, ikkinchi bor 2011 yilda³⁰ o'zbek tiliga tarjima qilinib, nashr etildi. Mazkur nashrlarda «Tarixi Rashidiy» asarining xorij olimlari tomonidan o'rganilishi ham keltirilgan bo'lib, biz bu masalani 1996 yildagi ruscha nashrdan keltirishni maqsadga muvofiq topdik. Xorij tadqiqotlarining iqtiboslari ham shu nashrdan olindi.

Xorij tadqiqotchilaridan birinchi bo'lib «Tarixi Rashidiy»ga etibor qaratgan olim V.Erskin hisoblanadi³¹. E.D. Ross tomonidan «Tarixi Rashidiy»ni ingliz tiliga tarjima qilinib, 1895 yili chop eilishi³² asarni Yevropa olimlari orasida yanada mashhur bo'lishiga xizmat qildi³³. Undan foydalanuvchi tadqiqotchilar soni yanada ko'paydi. Shundan so'ng bu asardan F.H. Skrayn³⁴, G.M. Elliot³⁵, V.M. Takston. N. Ilayes, Rene Grosse o'z tadqiqotlarida foydalangan³⁶.

Yuqoridagilardan ma'lum bo'lishicha Mirzo Muhammad Haydar tomonidan yozilgan «Tarixi Rashidiy» asarini o'rganilishida turli mamlakatlarda yashab, ijod

²⁷ Джалилов А. Список тюркских рукописей произведения Мирзо Мухаммада Дуглати «Тарихи Рашиди», хранящихся в институте Востоковедения АН РУз // Мухаммад Хайдар Дуглати – государственный деятель, выдающийся учёный-историк. – Тараз, 1997.; Жалилов О.Х. Мирзо Мухаммад Хайдарнинг “Тарихи Рашидий асарининг туркий кўлёзма нусхаси // Шарқшунослик 1997. № 5.

²⁸ Мирза Мухаммад Хайдар. Та’рих-и Рашиди. Введ., пер. с персидского А.Урунбаева, Р.П. Жалиловой, Л.М. Епифановой. Примечания и указатели Р.П. Жалиловой и Л.М. Епифановой. – Т.: Фан, 1996.

²⁹ Мухаммад Хайдар Мирзо. Тарихи Рашидий. Ваҳоб Раҳмонов ва Янглиш Эгамов таржимаси. – Т.: Шарқ, 2010.

³⁰ Мирзо Мухаммад Хайдар Аёзий. Тарихи Рашидий. Нашрга тайёрловчи, сўзбоши, табдил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифи т.ф.н. О.Жалилов. – Т.: O'zbekiston, 2011.

³¹ Erskine W. history of India under the two first sovereigns the hous of Taimur, Babur and Humaiyn. Vv. I-II. – London, 1854.

³² A history of the Moghuls of Central Asia being the Tarikh-i Rashidi of Mirza Muhammad Haidar Dughlat. An English version ed. With commentary, notes and map by N.Elias, the translations by Denisson Ross. – London, 1895.

³³ Mazkur tarjima 1898, 1972 yillarda ham qayta nashr etilgan. Qarang: Мирза Мухаммад Хайдар. Та’рих-и Рашиди. Введ., пер. с персидского А.Урунбаева, Р.П. Жалиловой, Л.М. Епифановой. Примечания и указатели Р.П. Жалиловой и Л.М. Епифановой. – Т.: Фан, 1996. – С. 10.

³⁴ Skrine F.H., Ross E.D. The Heart of Asia. A History of Russian Turkestan and the Ctntral asian Khanates from the Earlist time. – London, 1899.

³⁵ Elliot H. The history of India as told by its own historians. The Muhammadan period. – Calcutta, Second Edition, 1953.

Мирза Мухаммад Хайдар. Та’рих-и Рашиди. Введ., пер. с персидского А.Урунбаева, Р.П. Жалиловой, Л.М. Епифановой. Примечания и указатели Р.П. Жалиловой и Л.М. Епифановой. – Т.: Фан, 1996. – С. 10.

qilgan olimlar o'z hissalarini qo'shganlar. Ularga fors olimlar Muhammad Sodiq Koshg'ariy, Mullo Muhammad Niyoz Abdulg'afur o'g'li, ingliz olimlari Denison Ross, Uilyam Erskin, Tomas Arnold, Amerikalik olim Uiler Tekston, franquz olimi Rene Grosse, rus olimlari V.V. Bartold, V.V. Velyaminov-Zernov, T. Sultanov, Eronlik olimlar Husayn Razmju, Qozi Ahmad Tataviy, o'zbek olimlari Hamidulla Hasanov, Bo'riboy Ahmedov, Asomiddin O'rinboev, Azamat Ziyov, Sabohat Azimjonova, Ra'no Jalilova, Larisa Yepifanova, M. Qutluqov, Omonbek Jalilov, G'ulom Karim, qozoq olimlari Abdusattor Derbesali, Islom Jemeney, B. Komakov, Bayuzak Kojabekuli Albani, uyg'ur olimlari Ayupjon Eliyup, Rahmatulla Joriy, Muhammadturdi Mirzoahmat, Farhod Jolan, Mirsulton Usmonov, ozarbayjonlik olim Aziz Mirahmedov, hind olimi Muhammad Qosim Hindushoh va boshqalarni misol qilish mumkin.

Dissertatsiya ishining ilmiy tadqiqot rejalariga aloqalari. Dissertatsiya ishi Samarqand davlat universiteti tarix fakulteti "tarixshunoslik va manbashunoslik, tarixiy tadqiqot usullari" kafedrasining ilmiy tadqiqot rejalariga asosida olib borilgan.

Tadqiqotning maqsad vazifalari. «Tarixi Rashidiy» asarida yurtimizning mug'ullar bosqinidan keyingi ijtimoiy-siyosiy vaziyat, hududda mug'ul sulolalari; temuriylar davri; Amir Temur shaxsi; Mirzo Ulug'bek davriga oid bo'lgan tarixiy ma'lumotlarni umumlashtirish asosida mavzuga oid tarixchi olimlarning ma'lumotlarini o'rganish, solishtirish va zid bo'lgan tarixiy ma'lumotlardan tarixiy haqiqat kategoriyasi doirasida ilmiy xulosalar chiqarish.

Dissertatsiya ishi doirasida mavzuning muammoli darajasining sust darajada o'rganilganligini hisobga olib, magistrlik ilmiy tadqiqot ishining quyidagi vazifalar belgilab olingan:

- Mirzo Muhammad Haydarning tarixchi olim sifatidagi faoliyatiga oid tarixiy ma'lumotlarni to'plash, ularni turkumlash va xronologik joylashtirish;

- Maxsus bo'limda Mirzo Muhammad Haydarning hayoti va ilmiy faoliyati shakllanishi tarixiga oid tarixiy ma'lumotlarni tahlil qilish;
- O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti mutaxassislarining “Tarixi Rashidiy” asari qo'lyozma variantlarini o'rganish bo'yicha olib borgan ilmiy xulosalarini umulashtirish;
- “Tarixi Rashidiy” asarining tuzilishini o'rganish asosida asarning mazmuni to'g'risida ilmiy xulosalarga ega bo'lish;
- Chingizxon va uning avlodlari tarixiga oid tarixiy ma'lumotlarni to'plash;
- Amir Temurning buyuk tarixiy shaxs sifatidagi faoliyatiga oid ma'lumotlarni o'rganish;
- Amir Temurning harbiy yurishlari, ayniqsa Mo'g'ulustonga yurishiga oid noyob ma'lumotlarni o'rganish;
- “Tarixi Rashidiy” asarida Shayboniylar tarixining yoritilishiga oid ma'lumotlarni ilmiy tahlil qilish;
- “Tarixi Rashidiy” asarida keltirilgan Zahiriddin Muhammad Bobur tarixiga oid bo'lgan tarixiy xabarlarni umumlashtirish kabi umumiy vazifalar belgilangan.

Dissertatsiya mavzusining predmeti va ob'yekti. Mazkur tadqiqot ishining ob'ekti tarixchi olim Mirzo Muhammad Haydarning ilmiy madaniy merosini o'rganish. Predmeti – “Tarixi Rashidiy” asarida Turkiston o'lkasining mug'ullar bosqinidan keyingi davri; Amir Temur va uning vorislari davrida ijtimoiy-siyosiy tarixiga oid bo'lgan tarixiy ma'lumotlarni o'rganish, ulardagi noyob ma'lumotlarni tahlil qilish hisoblanadi.

Dissertatsiya ishining uslubi. Mirzo Muhammad Haydarning “Tarixi Rashidiy” asari orqali O'zbekiston tarixining XIII-XVI asrlar davrini qayta rekonstruksiya qilishni asarda bayon etilgan tarixiy ma'lumotlarni tarixiy manbalar darajasiga bog'liq aloqadorligini aniqlash.

Tadqiqotda tarixiy tadqiqot va tarixiy manbashunoslik usullarini uyg'unlashgan holatda birligini ta'minlash. Izlanish asosini tarixiy analiz va

ob'ektivlik, o'sha davr tarixiy manbalari interpretatsiyasi, lug'aviy analiz, rekonstruktiv tushuncha hosil qilish, davriy-muammoli yondashuv, induvidual xosligini hisobga olgan holda Turkiston tarixini yortishga erishish hisoblanadi.

Tadqiqot ishining tuzilishi. Magistrlik dissertatsiyasi kirish, uchta asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I Bob. “Tarixi Rashidiy” asari va uning muallifi to’g’risida

1.1. Muhammad Haydarning hayoti va ilmiy merosi

Mirzo Muhammad Haydar 1499 yili Toshkent shahrida tug’ilgan. Uning otasi Muhammad Husayn Ko’ragon Sharqiy Turkistonning Manglay sub'i, ya’ni oftobruy deb atalgan kun chiqish qismini Chingizxon davridanoq boshqarib kelgan turkiylashgan mug’ul-turk dug’lot qabilasidan chiqqan ulusbegi Amir Bobdog’on va Buloji (Po’lodchi) avlodlaridan edi. Mirzo Muhammad Husayn 1493-1494 yillarda Mo’g’uliston xoni Sulton Mahmudxonning (1487-1503) singlisiga o’ylangandan so’ng «Ko’ragon» nisbasiga erishgan. Xon uni 1494 yil O’ratepaning hokimi etib tayinladi, 1502 yilgacha hokimlik qildi.

Muhammad Husayn ko’ragonning ota-bobolari O’rtubu, Po’lodchi, Xudoydod, Said Ahmad, Sonsiz Mirzo, Muhammad Haydar, Muhammad Husayn turklashgan mo’g’ul urug’laridan dug’lot (mo’g’ulcha «dog’olot» – cho’loq) qabilasiga mansubdir. Ular Mo’g’uliston xonlari, Chig’atoylar davrida ulusbegi, Qoshg’ar hokimi lavozimida turganlar³⁷.

Mirzo Muhammad Haydarning onasi Xub Nigorxonim esa Chig’atoy xonligi yemirilgandan so’ng tashkil topgan Mo’g’ulistonda 1456-1487 yillarda hukmronlik qilgan Yunusxonning qizi edi. Shuningdek, u Zahiriddin Muhammad Boburning onasi Qutlug’ Nigorxonimning singlisi bo’lib, shu jihatdan Bobur va Mirzo Haydar qarindosh edilar. Xo’b Nigor xonim vafot etib, Haydar mirzo onadan juda yosh ayriladi: «Xo’b Nigor xonim, kaminaning onasi, tinchlik-omonlik kunlarida Toshkandda vafot etgan edi», – deb yozadi bu haqda muallif.

Bobur Shayboniixonidan engilib tog’asi Sulton Mahmudxondan O’ratepani so’rganida xon ko’nganu, Muhammad Husayn rozi bo’lmagan. Bobur o’z yaqinlari bilan vatandan ko’ngul uzib Kobulga ketadi. Muhammad Husayn ham 1503 yili Sulton Mahmudxon va Sulton Ahmadxon Axsi atrofida Shayboniixon qo’shinlari tomonidan tor-mor keltirilgani va asir olinganini eshitib, Qorateginga, undan Qunduz, so’ng Hirotga Sulton Husayn huzuriga qochib boradi va ko’p

³⁷ Мадраимов А., Фузаилова Г. Манбашунослик. Т., Фан, 2007, 152 б.

o'tmay Kobulga Bobur Mirzo huzuriga borgan edi. 1506 yili Bobur Hirotga Sulton Husayn mirzo ta'ziasiga borganida, Kobulda Sulton Mahmud mirzoning o'g'li Mirzoxon Kobul saltanatini egallashga urinadi va Muhammad Husaynni ham bu isyonga jalb etishadi. Bobur kelib taxtini qayta egallagach, Mirzoxon va Muhammad Husaynga istagan joyga ketishga «ruxsat» beradi.

Muhammad Husayn ko'ragon o'g'li Haydar mirzoni Hirotga olib ketadi. Uning ilk savod chiqarishi davri, xat mashq qilishlari 1506-1509 yillarga to'g'ri keladi. Natijada u uch-to'rt yil Hirotida bo'ladi va adabiy-madaniy hayotdan yaxshi xabardor bo'ladi. Bu haqda o'zining asarida muhim ma'lumotlar yozib qoldirgan.

Muhammad Haydar o'zining maktabga ilk qadami xususida yozadi: «Otam Xurosonga kelganidan keyin bir necha kun o'tgach, bola to'rt yoshu to'rt oyu to'rt kunlik bo'lganda maktabga berish odatiga ko'ra, meni maktabga bermoqchi bo'ldi va oq fотиha olish uchun avval shayxulislom (Sayfuddin Ahmad) oldiga olib bordi va u kishidan menga saboq berishni so'radi. Shayx: «Alloh engillik beradi» deb yozdi va g'oyatda muloyimlik hamda mehribonchilik bilan meni tizzasiga o'tqazib, shirin so'zlar bilan menga saboq berdiki, o'sha paytdan beri o'ttiz sakkiz yil kechgan bo'lsada, Shayxning muborak yuzi, uning saboqlari va mehribonchiligi naqshi xuddi toshga o'yilgandek xotiramda qolgan. Ishonchim komilki, o'sha saboqlarning shu kunlargacha etib kelgan sharofati bu dunyoda ham, oxiratda ham etib turadi, inshoolloh».

«Otam Hirotga birinchi marta kelganida men uchun ustoz-muallim topgan edi. U hofiz Mirim ismli taqvodor, olim kishi edi. Darhaqiqat, u mo'min, hofizi Qur'on, turli fazilatlariga ega bo'lgan kamsuqum inson edi. Qur'onni yoqimli ovozda qiroat qilar, nasxta'liq xatida yaxshi yozar edi. U meni Qur'onni qiroat qilishga va xattotlikka o'rgatar edi»³⁸. Muhammad Haydarning husnixatdagi ustozlari Mavlono Muhammad Abrishimiy bo'lganligi ham «Tarixi Rashidiy»da qayd etilgan.

³⁸ Мирза Мухаммад Хайдар. Та'рих-и Рашиди. Введ., пер. с персидского А.Урунбаева, Р.П. Жалиловой, Л.М. Епифановой. Примечания и указатели Р.П. Жалиловой и Л.М. Епифановой. – Т.: Фан, 1996.- с. 141

Muhammad Husayn 1509 yili Shayboniyxon (1450-1510) buyrug'i bilan Hirotda yashirinch qatl etiladi. Uning qabri Hirotdagi amir Said Husayn Sodot mozorida.

Shayboniyxonning tazyiqidan qo'rqan Mirzo Haydar otasining do'stlari va o'z tarbiyachisi Muhammad Sadr bilan qochib, avval Buxoroga, keyin u yerdan Qorategin orqali Badaxshonga Qal'ayi Zafarga boradi. Mirzoxon ibn Sulton Mahmud Mirzo ibn Sulton Abu Sa'id Mirzo Haydarga ham ota, ham ona tomonidan qarindosh bo'lgani uchun u yerda bir yil yashaydi. Biroq Badaxshonga Shayboniylar xavf solayotgani uchun Mirzo Haydar xolasining o'g'li, ya'ni Yunusxonning o'rtanchi qizi Qutluq Nigor xonimning farzandi Zahiriddin Muhammad Bobur uni Kobulga chaqirtirib oladi va saroyidan uy-joy ajratib beradi. U yerda uch yil yashaydi. Mirzo Haydardan 17 yosh katta bo'lgan Bobur unga otalarcha g'amxo'rlik ko'rsatadi, tarbiyalaydi, ustozlar tayinlab bilim-hunar o'rgatadi. Bobur ko'rsatgan g'amxo'rlikni tarixchi o'z asarida chuqur minnatdorlik bilan bir necha bor eslab o'tadi.

Taxminan 1512 yilda Mirzo Haydarning tog'asi Sulton Ahmadxon (1484-1504)ning o'gli Sulton Saidxon (1514-1533) Kobulga kelganida Boburdan ruxsat olib, Mirzo Haydarni Andijonga olib ketadi. 1512-1513 yillarda u xonning hokimiyat uchun kurashlarida qatnashadi. Sulton Saidxon ko'p o'tmay bu erda Abu bakr dug'lot ustidan g'alaba qozondi va Qoshg'ar hamda Yorkandni qo'lga kiritishga muvaffaq bo'ldi. Xon 1513 yili Mirzo Haydarga singlisini nikohlab, o'ziga kuyov qilib oladi, shu bilan Mirzo Haydar ham Ko'ragonlik unvoniga erishadi.

1514 yili Sharqiy Turkistonda 1465 yili tashkil topgan Yorkand xonligi taxti uchun Sulton Saidxon olib borgan janglarda ishtirok etadi. Sulton Saidxon 1514 yilda Yorkand xonligi taxtiga chiqqanidan boshlab Mirzo Haydarning obruyi yana ham oshadi. Xon uni o'z farzandlaridan ham yaxshiroq tarbiyalab, ilm-hunar va harbiy san'atdan saboq berib, davlat arbobi darajasiga erishtiradi. Mirzo Haydar «Tarixi Rashidiy» asarida bu haqda to'xtalib, 13 yoshida Sulton Saidxonning xizmatiga kelgani, xon otalik shafqati bilan yetimlik

mashaqqatidan ulug'lik masnadiga yetkazgani, 24 yil uning xizmatida bo'lib, xondagi barcha fazilatlarni o'zlashtirgani xususida yozadi. Mirzo Haydar Sulton Saidxon xukmronligi davrida (1514-1533) vazir va harbiy sarkardalik amallarida xizmat qiladi. Xon o'z farzandi Abdurashid Sultonni tarbiyalashni eng ishonchli shogirdi Mirzo Haydarga topshiradi. Mirzo Haydar xonning deyarli barcha harbiy safarlarida, jumladan, Tibet, Balur, Kofiriston, Ladoq, Badaxshon va Kashmirga yurishlarida sarkardalik qildi. Sulton Saidxon 1533 yil kishining 16 kuni bo'g'ma kasali oqibatida vafot etdi.

Muhammad Haydar to 1533 yilgacha, ya'ni Sulton Saidxon vafotiga qadar uning xizmatida bo'ldi. Dastlab xonzoda Abdurashidxonga tarbiyachilik, ya'ni otalik qildi, so'ng o'zining sarkardalik iste'dodini ham namoyon qildi. Xon buyrug'iga ko'ra Badaxshon, Kofiriston, Tibet o'lkalariga qilingan harbiy yurishlarga boshchilik qiladi. Muhammad Haydar mirzo Sulton Saidxonning saltanatidagi etakchi davlat arbobi sifatida xizmat qildi. Eng muhim harbiy yurishlar bosh qo'mondoni ham Haydar mirzo edi. Badaxshon, Kofiriston, Tibet, Ladak, Kashmir yurishlari shular jumlasidandir³⁹.

1533 yili Sulton Saidxon vafot etgach, otasi o'rniga taxtga Abdurashidxon (1533-1570) o'tirgan. Bu paytda Mirzo Haydar va Iskandar Sulton Tibet yurishida edi. Abdurashidxon otasining sodiq do'stlari dug'lot amirlarini taqib ostiga oldi, ularning ba'zilarini qatl etdi. Bularning orasida o'zining amakisi Muhammad Haydarning esa tog'asi tog'asi bo'lgan Sayyid Muhammad Mirzo va qarindoshlarining ko'pchiligi bor edi. Tibetda bo'lgan Muhammad Haydar bundan xabar topib, Iskandar Sultonni Abdurrashid huzuriga qaytarib yuborib, o'zi Mo'g'ulistonga Yorkent xonligiga qaytishga jur'at qilolmay, bir qancha vaqt Badaxshonda yurdi, so'ng u yerdan Lohurga, Boburning o'g'li Komron mirzo huzuriga, 946/1539-1540 yili esa Agraga, Humoyun mirzo (1530-1550) xizmatiga bordi, uning Sherxon bilan harbiy tuqnashuvlarida qatnashdi. 1541 yil Humoyun nomidan Kashmirni qaytadan zabt etib, 1551 yilgacha deyarli mustaqil hukmdor sifatida bu o'lkani idora qiladi. Biroq 1551 yili Kashmirda

³⁹ Ҳоҷи Исматуллоҳ Абдуллоҳ. Марказий Осиёда ислом маданияти. Т., Шарқ, 2005, 142 б.

ko'tarilgan mahalliy isyonlardan birini bostirish paytida yarador bo'lib, noma'lum kishilar tomonidan uyushtirilgan suiqasd natijasida halok bo'ladi. Qabri Kashmirda, Srinagar shahrining podshoh Zaynulobiddin mozori yoki Mazori Salotin (Sultonlar mozori) qabristonidadir⁴⁰.

Mirzo Muhammad Haydar haqida «Boburnoma»ning ikki o'rnida g'oyat muhim ma'lumot berilgan. Jumladan, «Haydar mirzo edi. Otasini o'zbek o'lturgandin so'ng kelib, mening mulozamatimda uch-to'rt yil bo'ldi, so'ngra ijozat tilab, Koshg'arga xon qoshiga bordi. Bu tarixda deydurlarkim, toyib bo'lub, yaxshi tariqa paydo qilibtur. Xat va tasvir, o'q va paykon va zihgir har nimaga iligi chaspondur. Ta'bi nazmi ham bordur. Manga arzadoshti kelib edi, inshosi ham yomon emas»⁴¹.

Ushbu qisqa axborotlarda Bobur mirzo Muhammad Haydar haqida juda ko'p ma'lumotlarni bergan. Hatto uning Sulton Saidxon dargohida ichkilikka berilgani va tavba qilib ichmay qo'ygani qayd etilib, maktubiga ko'ra uning bayoni iqtidoriga ham yaxshi baho berilgan.

Muhammad Haydar zamonasining o'qimishli va keng ma'lumotli kishilaridan edi. Boburning guvohlik berishiga qaraganda, u durustgina shoir, xattot, rassom, shuningdek, nayza va kamon yasovchi usta bo'lgan. Mirzo Haydar yuksak bilimga, keng tafakkurga, katta hayotiy tajribaga ega, ko'zga ko'ringan, kuchli davlat arbobi, yetuk sarkarda bo'libgina qolmay, balki iste'dodli tarixchi va moxir shoir ham bo'lgan.

Muhammad Haydarning bizning zamonimizgacha bir necha asari etib kelgan. U shoir sifatida Ayoziy, ba'zan Ayoziy taxallusi bilan «Jahonnoma», «Mahmudnoma» dostonlari va qator g'azal, ruboiy, masnaviy, qit'a, fardlarni yaratdi. Ayoziyning she'rlar to'plami – devoni ham bo'lgani, u Sharqiy Turkistonda topilgani haqida ma'lumotlar mavjud.

Ayoziy «Jahonnoma» dostonini mumtoz adabiyotimiz dostonchilik an'anasi bo'yicha, muqaddimasida Allohga, payg'ambar va chahoryorlarga madhiyadan

⁴⁰ Мавлоно Муҳаммад Қози. Хукмдорга ўғитлар. Т., Шарқ, 1999, 5 б.

⁴¹ Захириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. Т., 1989, 58 б.

boshlaydi. Allohning tabiat va koinotni yaratgani, oxiri ularning zavolga yuz to'tib tugashi haqida fikr yuritar ekan, bu xususiyat insonga ham xos ekanligi to'g'risidagi falsafiy xulosalarni bayon etadi.

«Jahonnoma» 2650 misradan tashkil topgan bo'lib, masnaviy janrida yozilgan. Dostonning Allohga, Payg'ambarimiz sallalohi alayhi vassalamga va chahoryorlarga bag'ishlangan hamdu sanoli qasida qismi 60 misra, dostonning yozilishi haqidagi muqaddimasi 160 misra, muallifning hissiyotlarga boy xotimasi 32 misra, dostonning asosiy mazmuni esa 2396 misradan tashkil topgan. Uning yagona qo'lyozmasi Germaniyaning Berlin shahri kutubxonalaridan birida saqlanmoqda. Asar 1999 yilda o'zbek tiliga tarjima qilingan⁴².

«Jahonnoma»da shoirning tabiat va jamiyatdagi voqea va hodisalarga qarashi, ya'ni dunyoqarashi aks etdirilgan. Doston shoirning she'riyatdagi yuksak badiiylik va mahoratiga baho berishimizga imkon yaratib beradi.

Ayoziyning «Jahonnoma» dostoni obrazlari go'zal va mukammal, tili nafis, ifodalash vositalari rang-barang bo'lgan badiiy yuksak asardir. Biz uni XVI asrda turkiy xalqlarning chig'atoyi tili deb atalgan adabiy tilida yozilgan adabiyoti, dostonchiligi rivojiga hissa qo'shgan asarlardan deb hisoblashga haqlimiz.

Muhammad Haydar Kashmirda ekanligida fors tilida o'zining ikkinchi yirik va mashhur «Tarixi Rashidiy» nomli ajoyib asarini yaratdi. Ushbu memuar asar Muhammad Haydarni yirik muarrix sifatida mashxur qildi. Bu asar haqida keyingi paragraflarda batafsil ma'lumot berib o'tamiz.

⁴² Мирзо Муҳаммад Ҳайдар Аъзий. Жаҳоннома. Нашрга тайёрловчилар: С.А. Азимжонова, А.Ўринбоев, О.Ҳ. Жалилов. – Тошкент, 1999.

1.2. “Tarixi Rashidiy” asarining qo’lyozma nusxalari

O'zbekistan Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining qo’lyozmalar xazinasida Mirzo Muhammad Haydar Ko'ragon ibn Mirzo Muhammad Husayn Ko'ragon (1499-1551)ning 1541-1546 yillar Kashmirda fors tilida yozgan mashhur «Tarixi Rashidiy» asarining bitta turkiy tarjima nusxasi 10191/II raqamda saqlanmoqda.

«Tarixi Rashidiy» turkiy tarjimasining to'liq va to'liqsiz 10 ta qo'lyozma nusxalari bizgacha yetib kelgan bo'lib, ularning yettita nusxasi Rossiya Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik institutining Sankt-Peterburg bo'limi qo'lyozmalar fondida D120, (590of), D 121 (590oe), D 122 (590od), D 138 (590o) D 192, S569 (590oe), va S570 (590od) tartib raqamida saqlanmoqda.

«Tarixi Rashidiy» turkiy tarjimasining D138 (590o) raqamli qo'lyozma nusxasi ishlov berilgan yashil charm muqavallidir. U 246 varaqli bo'lib, bichimi 42x28 sm., yupqa sarg'ish mahalliy qog'ozga nasta'liq xatida, matn qora siyohda, mavzulari, fasllarning nomlari esa qizil siyohda yozilgan. Asarning tarjimoni va tarjima qilingan yili noma'lum. «Tarixi Rashidiy» to'rt qism (rukn)ga bo'lingan holda qisqartirilib tarjima qilingan. Uning ustiga 11, 12, 13, 53-65 fasllar va 14-faslning boshi tushirib qoldirilgan. Qo'lyozma 1308/1890-1891 yillarda ko'chirilgan. K.Zaleman tarjimon Muhammad Sodiq Koshg'ariy bo'lsa kerak deb faraz qilsa, A.M.Muginov asarni boshqa tarjimalarga solishtirib, uning tarjimoni Muhammad Niyoz bin Abdug'afur, degan fikrga kelgan. Biz A.M. Muginov fikriga qo'shilamiz⁴³.

«Tarixi Rashidiy» S569 (590o) raqamli qo'lyozma nusxasining turkiy tarjimasi uyg'ur tarixchi olimi va shoiri Muhammad Sodiq Koshg'ariy (1725-1849) tomonidan Koshg'ar hokimi Yunus Tojibek bin Iskandarbek bin Emin xoja farmoni bilan amalga oshirilgan. Ammo, bu qo'lyozmaga «Tarixi Rashidiy» ning I, II, III ruknlarining tarjimasigina joylashtirilgan. Demak,

⁴³ Жалилов О. Ҳ. Мирзо Муҳаммад Ҳайдарнинг “Тарихи Рашидий асарининг туркий қўлёзма нусхаси // Шарқшунослик 1997. № 5.

S569 (590o) raqamli qo'lyozmani ham «Tarixi Rashidiy» turkiy tarjimasining to'la nusxasi deb bo'lmaydi.

Qo'lyozma matni qora, sarlavhalari qizil siyohda, nasta'liq xatida, bichimi 31x21 sm. qog'ozga yozilgan. Matnining bichimi 22x13 sm, har betiga 19 qatordan yozilgan, jami 315 bet, XIX asrda ko'chirilgan.

D 0192 raqamli qo'lyozma «Tarixi Rashidiy» IV qismining turkiy tarjimasidan iborat. Uni Xo'tan hokimi Muhammad Aziz Vongning farmoni bilan Muhammad Niyoz oxund Niyoziy hijriy 1253 (1837-1838) yilda tarjima qilgan va o'z qo'li bilan yozib chiqqan. Qo'lyozma chiroyli nasta'liq, xatida, sifatli mahalliy qog'ozga, matn qora, mavzulari qizil siyohda yozilgan. Qo'lyozma muqavasi qizil charmdan, naqshlangan varag'ining bichimi 38x34 sm, matnining bichimi 26x14 sm, har varag'ida 15 qatordan yozilgan.

D 120 (590oe) raqamli qo'lyozma «Tarixi Rashidiy» 1 daftarining Muhammad Niyoz bin Abdug'afur tarafidan 1837-1838 yillari qilingan turkiy tarjimasini ekanligi olimlarimiz tomonidan aniqlangan. Qo'lyozma muqaddimasida tarjima Xo'tan hokimi Muhammad Aziz Vong farmoni bilan nasr va nazmda bajarilgani to'g'risida ma'lumot berilgan. Qo'lyozma naqshlangan qizil charm qoplangan qattiq karton bilan muqovalangan, bichimi 37x23 sm, sharq qog'oziga, matni qora, sarlavhalari qizil siyohda chiroyli nasta'liq, xatida, har varag'iga 15 qatordan yozilgan, jami 111 varaq. Demak, bu nusxa ham «Tarixi Rashidiy»ni turkiy tarjimasining to'la nusxasi emas⁴⁴.

D 121 (590of) raqamli qo'lyozma ham «Tarixi Rashidiy» III va IV qism (rukn)larining Muhammad Niyoz tomonidan o'girilgan turkiy tarjimasini bo'lsa kerak. Qo'lyozma qog'ozining bichimi 38x26 sm., qalinroq sharq qog'ozi bo'lib, matnining bichimi 25x18 sm., har varag'iga 15-18 qatordan yozilgan. O'sha qo'lyozmalar fondida saqlanayotgan D122 (590°) raqamli qo'lyozma «Tarixi Rashidiy»ning to'rt qism (rukn)ga bo'lingan holda qisqartirib o'girilgan turkiy tarjimasidan iborat. Tarjimaning ayrim joylari asarning yuqorida

⁴⁴ Мутинов А.М. Описание уйгурских рукописей Института Народов Азии. – М.: Изд-во вост. лит., 1962. – С. 37-44.

eslatib o'tilgan S569, D138 raqamli qo'lyozmalari tarjimalariga o'xshab ketadi, degan xulosaga kelindi. Biroq tarjimoni noma'lum. Bu qo'lyozma ham naqshlangan qizil charm qoplangan qattiq muqovali, mahalliy va xitoy qog'oziga, nasta'liqda chiroyli, o'rtacha va xunuk xatlarda, bir varag'iga 19 dan 23 qatorgacha yozilgan, jami 212 varaqdan iborat.

S 570 (590od) raqamli qo'lyozma esa «Tarixi Rashidiy»ning I, II va IV qismlarining juda ham qisqartirib qilingan tarjima nusxasidir. U 1160 hijriy, ya'ni 1747 milodiy yili o'girilgan. Hoji Yusuf ibn Mullo Ashur xalifam ibn Qurbon So'fi ibn Davlat So'fi tomonidan 1322 (1904-1905) yili ko'chirilgan, jami 330 varaqdan tashkil topgan. Qo'lyozma varag'ining bichimi 26x17 sm., matnning bichimi 12x12 sm., har varag'iga 16 qatordan qora siyohda, sarlavhalari qizil siyohda g'oyat xunuk va ko'rimsiz nasta'liq, xatida yozilgan².

Xulosa qilib aytganda, Rossiya Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik institutining Sankt-Peterburg bo'limi qo'lyozmalar fondida «Tarixi Rashidiy» turkiy turjimasining to'liq va to'liqsiz jami 7 ta qo'lyozma nusxasi mavjud. Ulardan D 138 (590o) raqamli nusxa asarning to'rt qismga bo'lib, qisqartirilib turkiy tilga o'girilgan to'liqroq nusxasi bo'lib, Muhammad Sodiq Koshg'ariy yoki Muhammad Niyoz ibn Abdug'afur Niyoziy tarjima qilgan, deb faraz qilinadi. S569 (590o) raqamli deb topilgan nusxa ham to'liqroq nusxa bo'lib, uning tarjimoni Muhammad Sodiq Koshg'ariydir⁴⁵.

D 192 raqamli nusxa «Tarixi Rashidiy» IV qismining, D 120 (590of) raqamli nusxa I qismining, D 121 (590of) raqamli nusxa III, IV qismlarninggina tarjimasidir. D 122 (590od) va S 570 (590od) raqamli nusxalar esa «Tarixi Rashidiy»ning juda ham qisqartirilib, shoshilinch o'girilgan va ko'chirilganligi olimlar tomonidan aniqlangan. Biz ham mazkur nusxalarni varaqlab ko'rib, solishtirib, qo'lyozmalarni bizgacha o'rgangan va tavsiflagan sharqshunos olimlarning xulosalariga qo'shildik.

⁴⁵ Мирзо Муҳаммад Ҳайдар Аъзий. Тарихи Рашидий. Нашрга тайёрловчи, сўзбоши, табдил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифи т.ф.н. О.Жалилов. – Т.: О'zbekiston, 2011. – Б. 8.

Sankt-Peterburgda saqlanayotgan «Tarixi Rashidiy» turkiy tarjimalarining to'liq nusxalari deb topilgan Muhammad Sodiq Koshg'ariy va Muhammad Niyoz ibn Abdurafur Niyoziy tarjimalarida arab-fors tillari elementlari anchagina saqlanib qolgan, buning ustiga ayrim fasllar tushib qolgan.

Mirzo Haydarning «Tarixi Rashidiy» asarining forschadan turkiy tilga o'girilgan to'la va eng chiroyli tarjima nusxasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar xazinasida 10191/II raqamda saqlanmoqda.

10191/II raqamli qo'lyozma sariq charm qoplangan qattiq karton muqovali, qog'ozi Quqonda tayyorlangan, sarg'ich rangli, bichimi 20, 5x30 sm., jami 422 varaq, har varag'ida nasta'liq xatida 19 qatordan yozilgan, matni qora, sarlavhalari, fasl raqamlari qizil siyohda, biroq qo'lyozma varaqlarining o'ng yoki chap hoshiyasiga yozilgan. Qo'lyozmaning 62^a-65^a- varag'lariga «Tarixi Rashidiy» va uning ilovasiga tuzilgan mundarija – fihisti, 66-69- betlariga tarjimonning muqaddimasi, 69-344- betlariga «Tarixi Rashidiy»ning turkiy tarjimasi va 344-416 varag'lariga Xoja Muhammad Sharif tomonidan yozilgan ilova joylashtirilgan⁴⁶.

Qo'lyozmaning 69^a varag'ida mazkur asarning turkiy tarjimasi va uning tarjimoni haqida nasriy va she'riy ma'lumot berilgan. Jumladan, «Tarixi hijrati Nabaviy sollallohu vassallam to'qquz yuz ellik biri erdikim, Muhammad Haydar ibn Husayn Ko'ragon bu tarix intizomini porsiy alfoz birlan murattab aylab ekanlar, nogoh surug' havoqin sipehr iqtidor va mehtari salotini oliy miqdor, sohibi zilli shavkat va iqboli humoyi makon, teran saodat, ajlol tarvot baxsh dorulfayz Koshg'ar sanaho Ollohu taolo in al-ofot va al-zarar, shoh sohibi yaqin, sohibi taxt-u baxt toju nigin, nasli Tohir Amir Zuhuriddin zoda Ollohu taolo iqbolahu yavma fayyivan va rafa'a rutubatahu saotan fa saotan avlod ahfod shijoat panoh nara sher haqoyiq erod va ravshan zamir Xoja Muhammad Sharif pirdurlar. Vobirai Emin xoja Vong xonlikkim, bu hayol shahanshoh adolat panoh xotir fotir, daryo muqotirlari ko'zgusida bu xayol xuturi

⁴⁶ Джалилов А. Список тюркских рукописей произведения Мирзо Мухаммада Дуглати «Тарихи Рашиди», хранящихся в институте Востоковедения АН РУз // Мухаммад Хайдар Дуглати – государственный деятель, выдающийся учёный-историк. – Тараз, 1997.

va bu taxayyul muttasxil avholi muttasavvir bo'lub erkankin, bu «Tarixi Rashidiy» ba tariqi porsiy marqum bo'lubdur. Atroq mug'uliya aholi muning zaminidin bexabardurlar. Lozim va lobuddi kim, turkiy alfozi birla og'oz qiling'oy toki avom arozili va xavosu afozilning tillariga joriy va ko'ngullariga osori tushmakdin istifoda aylagaylar.

Tarixga ming ikki yuz ellik uch (1837-1838) erdikim, bu faqiri bebizoat va haqiri kam istitoat bu hukm xitobiga mahkum va bu xitob amrig'a ma'mur bo'lub erdi; agarcha bu kori uzmo sori dast o'zotmoqg'a haddu yoro yo'qtur, imtisol al-amri vojib iqtizosi «Ati'u-lloxa va ati'u-r-rasuli va uli-l amri minkum» («Ollohg'a itoat qilingiz va payg'ambarga hamda o'zlaringizdan bo'lgan musulmon hokimlarga bo'ysiningiz!» 4;59) taqozosidin nochor bu xizmat vuqu'ig'a shuru' qilindi», deyiladi «Tarixi Rashidiy» turkiy tarjimasiga tarjimon tomonidan yozilgan muqaddimada. Keltirilgan parchadan ma'lum bo'ldiki, «Tarixi Rashidiy»ning turkiy tilga tarjimasini Emin Vongning evarasi Mir Tohirning o'g'li, Qashg'ar hokimbegi Zuhuriddin hokimbekning farmoniga binoan Xoja Muhammad Sharif tomonidan hijriy 1253 (1837-1838) yili amalga oshirilgan va qo'shimcha yozilgan. Bunga Qashqar hokimining «Tarixi Rashidiy» fors tilida yozilganligi uchun turkiy xalqlar bundan xabarsiz, uni turkiy tilga o'girmoq lozim va zarur, toki oddiy avomdan to olim va amaldor davlat arboblariigacha undan xabardor topsin, ko'ngillarida shundan xabarsiz keldim, degan shubha va afsus paydo bo'lmasin, deb bergan farmoni va uni bajarish vojib bo'lganligi uchun bu ishga qul urganligini tarjimon yozib qoldirgan⁴⁷.

Xoja Muhammad Sharifning hayoti va faoliyati to'g'risida ma'lumotga ega emasmiz. Yuqorida keltirilgan parchadagi «Xoja Muhammad Sharif pirdur», degan jumladan uning umri ustoz va keksalik davriga yetib kelganligini anglaymiz, mazkur asarni turkiyga o'girayotgan hamda uning

⁴⁷ Жалилов О. Ҳ. Мирзо Муҳаммад Ҳайдарнинг “Тарихи Рашидий асарининг туркий қўлёзма нусхаси // Шарқшунослик 1997. № 5.

qo'shimchasini yozayotganida (1837-1838 yillar) 50-60 yoshlarda ekan, degan fikrga olib keladi.

Qo'lyozmalardan olingan ma'lumotlarga qaraganda, Qashqar hokimi Zuhuriddin hokimbek xalqning madaniy, ma'rifiy, ma'naviy saviyasini oshirish ishlariga katta e'tibor bergan ilg'or fikrli shaxs bo'lgani uchun, o'z devonxonasidagi Abduraxim Nizoriy (1770-1848), Turdi Nozim G'aribiy (1802-1862), Husayn Saburiy (XIX asr), Ne'matullo Koshg'ariy va Navro'z oxund Ziyoyilarga, buyruq va topshiriqlar berib, badiiy va falsafiy ijtimoiy-axloqiy, tarixiy asarlar yozdirgan. Bu holatga asoslanib Xoja Muhammad Sharif ham Zuhuriddin hokimbekning saroyida birorta vazifada ishlagan ulamolardan bo'lsa kerak, shuning uchun unga ham vazifa sifatida «Tarixi Rashidiy»ni turkiy tilga tarjima qilishni buyurgan, degan xulosaga keldik. Xoja Muhammad Sharif berilgan vazifani jonfidolik bilan yuqori saviyada bajargan. Tarjimaning yutuqlaridan biri unda arab, fors tili elementlari imkoniyat boricha kam ishlatilganligida edi. Ikkinchisi - matndagi forsha nazmlarni turkiylashtirib, ularning go'zalligi, ravonligi va badiiyligini saqlab qilishga harakat qilgan, uchinchidan, bu tarjima «Tarixi Rashidiy» asarining to'la matnini qamrab olgan. Tarjimonning yana bir yutug'i uning «Tarixi Rashidiy» tarjimasiga ilova sifatida qo'shimcha yozganligidadir. Tarjimon Mirzo Haydarning Markaziy Osiyo, ayniqsa, O'rta Osiyo, Sharqiy Turkiston tarixini bayon qilib to'xtagan 1546 yillar voqaealarini tarixchi sifatida davom ettirib, XIX asrning 40- yillarigacha olib kelib tamomlaydi.

«Tarixi Rashidiy» turkiy tarjimasining 10191/II raqamli nusxasi haqidagi ma'lumot birinchi bo'lib «O'zbekiston SSR Fanlar akademiyasi Sharq qo'lyozmalar tavsifining to'plami» («SVR AN O'zSSR») VII jildida e'lon qilingan⁴⁸. Biroq, bu tavsifda asarning tarjimoni noma'lum, deb yozilgan va «Tarixi Rashidiy» tarjimasida ayrim fasllar tushib qolganligi ta'kidlangan¹. Chunonchi, «Lashkar kashidani Yunusxon jixati kumaki Muhammad Haydar Mirzo Yorkand bori duvvum va shikast yoftan az Mirzo Abu Bakr» 1430

⁴⁸ Собрание Восточных рукописей АН УзССР. Том VII. – Т.: Фан, 1964. – С. 25-29.

raqamli qo'lyozma bo'yicha 54-fasl davomi 58^a-varaq, «Zikri jang va vaxshati, kidar miyoni Yunusxon va Muhammad Haydar mirzo dar Oqsu voqe' shud» (1430 qo'lyozma bo'yicha 57-fasl, 60^{ab}-varaq) hamda «Zikri raftani Xaydar Mirzo ba Koshg'ar peshi Abu Bakr va dar band kardani Mirzo Abu Bakr Muhammad Haydar Mirzoro» (1430 bo'yicha 58-fasl, - 62^a-varaq), deb atalgan fasllar tushirib qoldirilgan, deb yozilgan. Biz ulardan oxirgi ikki faslning 10191/II qo'lyozmaning 139^b va 243-varaqlarida berilganini aniqladik, eng muhimi, 10191/II raqamli qo'lyozmadagi «Tarixi Rashidiy» turkiy tarjimasining tarjimoni, yuqorida aytganimizday, Xoja Muhammad Sharif ekanliginki aniqladik⁴⁹.

10191/II raqamli qo'lyozmaning 62a-65a varaqlarida berilgan mundarijadan ma'lum bo'lishicha, «Tarixi Rashidiy»ning turkiy tarjimasini 191 fasldan iborat bo'lib, ular ketma-ket raqamlangan. Uning o'ziga xos xususiyatlaridan biri tarjimonning asarga ijodiy yondashganligidir. U tarixni Odam Alayhissalomdan boshlab, Chingizxon, uning farzandlari O'qtoy, Jo'chi, To'ldi, Chig'atoy xoqonlar tarixi to'g'risida yetti fasl qo'shgan. Bundan tashqari «Tarixi Rashidiy»ga XVI asrdan XIX asrning 40-yillargacha bo'lgan davri tarixiga bag'ishlangan qo'shimcha ilova yozgan. Ilovaning o'zi bir tarixiy asardir. Tarjimon Xoja Muhammad Sharif asarga o'z muqaddimasini qo'shib, unda asarning tarjima qilinishining sabablari kabi masalalar haqida fikr yuritgan.

«Tarixi Rashidiy»ning bu tarjimasini qaysi bir forscha nusxadan tarjima qilingani, ya'ni asliyatini bizga ma'lum emas. Lekin qo'lyozmada asarning 1-2-daftarlaridagi fasllar birinchi fasldan oxirgi faslgacha ketma-ket raqamlangan.

Xulosa qilib aytganda «Tarixi Rashidiy»ning 10 ga yaqin forscha va 10 dan ko'p turkiy tarjima nusxalari bo'lishiga qaramay, ularning tanqidiy matnlari hozirgacha tuzilmagan.

⁴⁹ Жалилов О. Ҳ. Мирзо Муҳаммад Ҳайдарнинг “Тарихи Рашидий асарининг туркий қўлёзма нусхаси // Шарқшунослик 1997. № 5.

1.3. «Tarixi Rashidiy» asarining mazmuni va o'rganilishi

Asarning birinchi faslida hazrati Odam alayhissalomdan to hazrati Muhammad Rasulullohgacha o'tgan ajam podshohlari haqida qisqacha ma'lumot beriladi. Asarning 2-7 fasllarida Temuchin Chingizxonning nasabi, uning avlodi Ugaday (O'la) qoon, Jo'chixon, Chig'atoyxon, To'ldixon, G'ozonxonlar to'g'risida ma'lumot berilsa, 8-faslida (80^b-81^b varaq) mazkur asarning yozilishi va uning «Tarixi Rashidiy» deb atalishi sabablari quyidagicha bayon etiladi: «Zafarnoma»ning muqaddimasida ul qudvatul muhaqqin va zubdat us-soliqin hazrati mavlono Sharafuddin Ali Yazdiy navvarallohu marqadahu Mo'g'uliya xoqonlari zikrini Chingizxondin Tug'luq Temurxongacha fitubdurlar. Tug'luq Temurxondin keyingi xoqonlar ahvolini shuru' qilmobdurlar. Balki, har yerdaki so'zning siyoqi xoqonlar ahvollarig'a tavaqquf topg'on bo'lsa, ul miqdori so'zning siyoqi nizomg'a kelguchalik futub, ziyodasini nazarg'a olmobdurlar. Bas, faqir bu tarixning ibtidosini Tug'luq Temurxondin ibtido kildim. Uch sababg'a bino qo'yub, avval ulki Tug'luq Temurxondin ilgarigi xonlar tarixlarda fitulibdur va bulardin keyingi xonlar sharhi mazkur topmobdurlar, bas ul so'zlariki tarixlarda sharh topmobdur, aning futumaklik loyiq kurindi. Ikkinchisi ulki, Tug'luq Temurxondin o'zga xonlarga ul miqdor ulug' mamlakatlar musaxhar bo'lmobdur. Uchinchisi ulki, Mo'g'uliyalarning xoqonlaridin avvali Tug'luq Temurxon islomga musharraf bo'libdur. Va aningdin keyinki mo'g'uliyalarning gardani kufurning bandachiligidin xalos bo'lib, islomning ozodlig'i birla o'zga xalqlarga o'xshash axli islomga doxil bo'libdurlar.

Ushbu lozimalar sababi birla bu tarixning ibtidosi aning oti birla sabt tobdi va uch munosib birlanki bu tarixni «Tarixi Rashidiy» atalindi. Avvali ulki Tug'luq Temurxonning islom keltirmakligi Mavlono Arshadiddinning qo'li birladurki, fot fursat sharh tobg'usidur. Yana biri ulki Tug'luq Temurxondin ilgari Baroqxon va Baroqxondin keyin Kepekxon musulmon bo'lg'on ekanlar. Ammo xoqonlar va ham mo'g'uliya xalqlarig'a islomda rushdu hidoyat bo'lmog'on ekan. Raja' al-qahqaro ilo manshur altabi'a keyincha mang'ib jaxannamra ilgari ketibdurlar. Ammo bu xoqoni davlatmand, fuqaroi saodatmandlarg'a rushdu hidoyati tamom hosil bo'libdur.

Vaqteki bu tarixning ibtidosini Tug'luq Temurxonning zikriga bog'lanib edi. Filojaram Rashidiy ot qo'ymoq munosibroq ko'rindi. Uchinchisi ulki, Mo'g'uliya xoqonlarining oxiri bu kunlarda Abdurashidxondur. Va bu tarix aning otig'a va aning uchun fitulinibdur. Ul uch munosabat birla bu tarixni «Tarixi Rashidiy» birla atalinibdur.

Asarning 7, 9-30 fasllarida (70^b-80^b v, 83⁶-112^a v.) Chig'atoy davlatining parchalanishi Tug'luq Temurxon (1348-1363) boshchiligida Mo'g'uliston va Amir Temur boshchiligida Movarounnahr davlatining shakllanishi, ular o'rtasidagi munosabat masalalari o'z aksini topgan. Jumladan, Tug'luq Temurxonning Chig'atoyxonning vorisi sifatida u boshqargan hududlarni birlashtirish maqsadida Movarounnahrga yurishi, Amir Temur, Amir Husaynlar bilan hokimiyat uchun kurashlari, Chingizxon davridan davlat to'ntarishida katta huquqlarga ega bo'lib kelgan dug'lot Amir Bobdog'on va Amir Buloji avlodlarining Chig'atoy avlodidan hokimiyatni tortib olish yo'lidagi urinishlari hikoya qilingan. Chunonchi, dug'lot Qamariddin Tug'luq Temurning Xizr Xojadan boshqa merosxurlaridan 18 shaxsni o'ldirib, o'zini Mo'g'uliston xoni deb e'lon qilgani, Sohibqironning unga qarshi besh marta yurish qilib g'alabaga erishib, Xizr Xojaning Mo'g'uliston taxtiga chiqishiga ko'maklashgani bayon etilgan⁵⁰.

Asarning 31-41 fasllari (112^a-134^a v.) Mo'g'uliston xonlari Shermuhammad (1420-1427), Uvaysxon (1418-1420, 1427-1429), Muhammadxon (1408-1416), Esan Bug'oxon (1429-1462), Yunusxon (468-1487), Do'stmuhammadxonning (1462-1468) hukmronlik davri, o'sha davrdagi xalqaro munosabatlar haqida yozadi muallif 35, 36 (123^a-124^{av}), 39-41 (127^a-134^{av}), 44 (131^b-133^{av}), 60, 61 (160^a-162^{bv}), 110,111- (243^b-245^{bv}) fasllarda Yunusxon, uning dug'lot amirlari hamda Temuriylar bilan do'stona va qarindosh-urug'chilik munosabatlari, jumladan, Yunusxon Vaysxonning ikkinchi o'gli ekanligi, otasidan so'ng akasi Esan Bug'oxon taxtga chiqqanidan keyin u ko'zga ko'ringan amaldorlaridan Erozon

⁵⁰ Мирзо Муҳаммад Ҳайдар Аъзий. Тарихи Рашидий. Нашрга тайёрловчи, сўзбоши, табдил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифи т.ф.н. О.Жалилов. – Т.: O'zbekiston, 2011. – Б. 19.

Boyrin va Mirak Turkmanlar hamda 30 ming kishi bilan un uch yoshida Samarqandga kelishi, Ulug'bek uni Shoxruxga olib borgani, Shoxrux Yunusxonni Sharafiddin Ali Yazdiy tarbiyasiga topshirgani, mavlonodan 12 yil ta'lim, ilm-hunar o'rgangani, mavlono vafotidan keyin Iroq, Fors mamlakatlarida bo'lib, fozil, olim ham ustodlik darajasiga erishganini yozadi. Sulton Abu Said Mirzo Sherozdan chaqirtirib olib kelib, Yunusxonni iltifot bilan Mo'g'ulistonga xon qilib quygan. Yunusxon qizlarini Abu Sa'id Mirzo o'g'illariga - Mexr Nigor xonimni Mirzo Sulton Ahmadga, Qutluq Nigor xonimni Umar Shayxga berib, Temuriylar bilan qudalashgani, oltinchi farzandi Sulton Nigor xonimni Sulton Mahmud mirzoga bergani, Umar Shayx mirzodan Zahiriddin Muhammad Bobur va Xonzoda begimlar to'g'ilgani haqida yozadi.

Nosiriddin Xoja Axror Valining Yunusxonga bo'lgan munosabati, Yunusxonning 1487 yili 74 yoshida Toshkentda vafot etgani, piriqoshiga dafn etilgani haqida yozadi. Nosiriddin Xoja Axror Valining Yunusxonga bo'lgan munosabati, Yunusxonning 1487 yili 74 yoshida Toshkentda vafot etgani, piriqoshiga dafn etilgani haqida yozadi⁵¹.

Shu fasllarda Yunusxonning dug'lot amirlari Mirzo Muhammad Haydar, Sonsiz mirzo, Abobakr mirzo kabilar bilan aloqalari ham bayon etilgan.

«Tarixi Rashidiy»ning 48-61 fasllarida (136^b-162^b) Sharqiy Turkistonda 1465 yili tashkil topgan Yorkand xonligi, uning birinchi xoni Abobakr mirzo (1465-1514), uning dug'lot ulus beklari Muhammad Haydar mirzo, Sonsiz mirzo va Chig'atoy avlodlaridan Yunusxon, Sulton Saidxon va Temuriylar bilan munosabatlari to'g'risida ma'lumot berilgan. Asarning 62-100 fasllarida (162^b-233^a v) Temur avlodlari, jumladan, Mirzo Sulton Abu Sa'id avlodlari Zahiriddin Boburshoh Mirzo Husayn Kuragon va Shayboniylar Shohibekxon (Shayboniyxon), uning avlodlarining hokimiyat uchun kurashlari, Shayboniylarning Movarounnahr va Xurosonni egallashi, Mirzo

⁵¹ Султонов Ў. Хожа Ахрор ва унинг авлодлари билан Мўғулистон хонлари ўртасидаги муносабатлар // Имом ал-Бухорий сабоқлари. 2004 й. № 2.

Husayn Boyqaro davrida Xurosonda yashab ijod etgan olim, mashoyih shoir, sozanda va xonanda, suratgir, musavvir, naqqosh, xattot, zargar kabi (188^b-203^a v), jumladan, Mavlono Saduddin Koshg'ariy, Abdurahmon Jomiy, Xoja Alouddin Attor, Xoja Alouddin maktabdor, Mavlono Shamsiddin, Muhammad Rumi, Mavlono Jaloliddin Puro-niy, Mavlono Muiniddin, Mavlono Xoja Kuxiy, Mavlono Muhammad Qoziy, Hofiz Mahmud, shoirlardan yana Abdurahmon Jomiy, Mir Alisher Navoiy, Husayn Jaloyir, Vosifiy, Ohiy, Suhayliy, Xiloliy, Sayfiy, Binoiy, Mavlono Sohib Muammoyi, ustod xattotlardan Mir Ali Tabriziy, Mavlono Ja'far, Mavlono Abdullo Hofiz Navat, Mavlono Muhammad kotib Samarqandiy, Abdulhay, suratgir, naqqosh, zarrinkorlardan ustod Bobo Hoji, ustod Shayx Ahmad, Mavlonolar Junaid, Hiloluddin, Vali, Mullo Yusuf, Mavlono Darvish Naqqosh, Kamoliddin Behzod, Mullo Yoriy, Mavlono Mahmud Muzahhib, mug'anniylardan Hofiz Basir, Hofiz Hasan Ali, Xoja Abdulloh, Marvorid, Usta Sayyid Muhammad Changiy, Mazhari Udiy, Usta Haydar, Usta Shayx Noyi kabilar haqida ma'lumot berib, bularning yetishib chiqishida Alisher Navoiy va Husayn Boyqarolarning katta hizmatlarini ta'kidlaydi. «Tarixi Rashidiy»ning 100-faslidan (231a varaqdan) muallif Sharqiy Turkiston tarixi bayonini davom ettiradi. Sulton Saidxonning Farg'onadagi faoliyati, 1514 yili Yorkand xonligi taxti merosxuri sifatida Mirzo Abobakr ustidan g'alaba qozonib, taxtga o'tirgani, xonlikda amalga oshirgan islohatlari, akasi Mansurxon Emin Xoja Sulton, Shoh Muhammad sulton, Zahiriddin Muhammad Bobur boshliq Boburiylar, Shayboniylar, Qozoq xonlari, Qirg'iz biylari va Shimoliy Hindiston, Afg'oniston, Tibet bilan munosabatlari, jumladan, Sulton Saidxonning Mirzo Haydar, o'g'illari, Rashid Sulton, Iskandar Sultonlar bilan Sarig' uyg'ur, Tibet, Lodax-Bolti, Kashmir, Badaxshonlarga yurishlari, u yerlardan ko'rib, so'rab yig'qan jug'rofiy, etnografik ma'lumotlarni, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy hayoti haqida ajoyib yangi ma'lumotlarni beradi⁵².

«Tarixi Rashidiy»ning muqaddimasi 8- fasli (80^b-83^b v), 58 (149^a-157^a v) 65 (165^b-167^a v), 91 (210^b-213^{av}), 109 (243^{ab}), 117 (252^{ab}), 150 (294^b-295^a), 160

⁵² Ҳожи Исматуллоҳ Абдуллоҳ. Марказий Осиёда ислом маданияти. Т., Шарк, 2005, 142 б.

(306^a-306^b), 169 (316^a-316^b), 171-179 (319^a-327^b), 186 (341^a-341^b) fasllarida muallifning tarjimai holi, unga aloqador voqea, shaxslar haqida ma'lumotlar berilganligini alohida ta'kidlash lozim.

1541-1546 yillarda yozilgan «Tarixi Rashidiy» asari ikki jild (daftar)dan iborat. Birinchi jildda Chig'atoy ulusi emirilgach, uning sharqiy viloyatlarida tashkil topgan davlat – Mo'g'ulistonning qariyb ikki yuz yillik (1347-1546) tarixi yoritilgan. Tug'luq Temurxon (1348-1363)dan to Abdurashidxon (1533-1560) gacha bo'lgan davr tarixi yoritilgan. Chig'atoy avlodlariga mansub xonlarning xayot faoliyati bir boshdan bayon etilgan. Ikkinchi daftar muallifning deyarli memuar-kundalik daftari hisoblanadi. Unda muallif Markaziy Osiyo mamlakatlarida bo'lgan paytlarida ko'rgan, bilgan va bevosita o'zi ishtirok etgan voqealarni bayon etadi. O'rta Osiyo, Sharqiy Turkiston, Afg'oniston, Shimoliy Hindiston va Tibetning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy ahvoli, jug'rofiyasi, xalqaro munosabatlari to'g'risida yangi ma'lumotlarni keltiradi. «Tarixi Rashidiy»da o'zidan oldin va o'zi bilan bir davrda Markaziy Osiyoda o'tgan atoqli tarixchilar asarlaridan foydalanib, o'zi ko'rgan-bilgan va ishtirok etgan voqealar haqida yozgani uchun bu asar ko'p o'tmay Sharq va G'arb tarixchi, sharqshunoslari diqqatini jalb etdi.

Asarning birinchi daftari turli naql-rivoyatlar, shuningdek, Yoqut Hamaviyning «Mujam ul-buldon», Juvayniyning «Tarixi Jahonkushoy», Rashididdinning «Jome ut-tavorix», Jamol Qarshiyning «Mulhaqot us-suroh», Sharafuddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma», Mirzo Ulug'bekning «Tarixi arba' ulus» va nihoyat Abdurazzoq Samarqandiyning «Matla' us-sa'dayn» kitoblaridagi ma'lumotlar asosida yozilgan. Lekin, unda ham Markaziy Osiyoning XIV-XV asrlardagi ijtimoiy-siyosiy hayotiga oid yangi, yuqoridagi manbalarda bo'lmagan ma'lumotlar ko'p. Qolaversa, birinchi daftar Qoshg'ar, Qozog'iston, shuningdek, Movarounnahr va Turkistonning XIV-XVI asr boshlaridagi siyosiy tarixini mukammal qamrab olishi bilan qimmatlidir.

Ikkinchi daftar esa birinchisidan keskin farqli o'laroq muallifning esdaliklaridan, ya'ni voqealarga boy jo'shqin hayoti davomidagi ko'rgan-

kechirgan xotiralarining jonli va ta'sirli bayonidan iborat. Bu ma'lumotlar Qoshg'ar, Movarounnahr, Afg'oniston hamda Shimoliy Hindistonning XVI asrning birinchi yarmidagi tarixini o'rganishda asosiy va qimmatli manbalardan hisoblanadi⁵³.

«Tarixi Rashidiy»ning o'rganilishi haqida turli tillardagi tarjimasini nashrga tayyorlagan olimlar kirish so'zlarida ancha to'xtalib o'tilgan. Mirzo Haydarning «Tarixi Rashidiy» asari yozilganidan keyin bir asr o'tar-o'tmas Sharq tarixchilari va geograflari o'z asarlarini yozishda undan foydalana boshlaganlar. Natijada bu muhim manbaning keng tarqalishiga zamin hozirlangan edi. Fikrimizni asar nusxalari ko'pgina qo'lyozmalar xazinalarida saqlanayotganligi ham tasdiqlaydi.

Jumladan, XVI-XIX asrlar Markaziy Osiyodagi Sharkiy Turkiston, Hindiston, Tibet, Afg'oniston kabi mamlakatlarning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy hayoti, tarixi, etnografiyasi va geografiyasini yoritishda o'rta asrlar olimlaridan Amin Ahmad Roziy, Haydar bin Ali Roziy, Haydar Maliq Mahmud ibn Vali, Shoh Mahmud Churos, Mulla Mirsolih Hofiz Tanish Buxoriy, Mullo Muso ibn Mullo Isa Sayromiy, Muhammad A'lam, Ch.Ch. Valixonovlar «Tarixi Rashidiy»dan foydalanishgan.

Yevropa olimlaridan V. Erskine, X. Elliot, Ye.D. Ross, V.M. Takston. N. Ilayes, Rene Grosse, V.V. Bartold, V.V. Velyaminov-Zernov, A.N. Kropatkin, V.I. Masalskiy, P.P. Ivanov, V.L. Vyatkin, O.F. Akimushkin, K.A. Pishulina, A.B. Yerzakovich, A.N. Bernshtam, A.M. Muginov, S.N. Dmitriyev, K.I. Petrov, SM. Abramzon kabilar bu asardan foydalanishgan, parchalar tarjima qilishgan⁵⁴.

E.D. Ross «Tarixi Rashidiy»ni inglizchaga tarjima qilib, 1895 yili chop etdirgan. Hozirgi zamon uyg'ur, o'zbek qozoq, qirg'iz, xitoy olimlaridan B.A. Axmedov, S.A. Azimjonova, A.U. O'rinboyev, R.P. Jalilova, L.M. Yepifanova, M. Qutluqov, O.H.Jalilov, M.K. Qo'ziboyev, S.Mukrnov,

⁵³ Мадраимов А., Фузайлова Г. Манбашунослик. Т., Фан, 2007, 154 б.

⁵⁴ Мирзо Муҳаммад Ҳайдар Аъзий. Тарихи Рашидий. Нашрга тайёрловчи, сўзбоши, табдил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифи т.ф.н. О.Жалилов. – Т.: О'zbekiston, 2011. – Б. 23.

T.I.Sultonov, V.P.Yudin, S.M. Abramzon, Anvar Boytur, Xayriniso Siddiq Xojinur Hoji, Lyuzishiyov, Vey Lyongtov, Ibroxim Niyoz, Uyg'ur Soyroniy kabi olimlar Markaziy Osiyo, Sharqiy Turkiston tarixini yozishda «Tarixi Rashidiy»dan foydalanishgan.

«Tarixi Rashidiy» XVIII asrdan boshlab hozirgacha dunyoning 10 dan ortiq tillariga tarjima qilingandir. Jumladan, ingliz (bir necha marotaba), nemis, fransuz, xitoy, qozoq, turk, uyg'ur, rus, qirg'iz va boshqa tillarga o'girilgan. «Tarixi Rashidiy»ning inglizcha (1895, 1972, 1998 y.), xitoycha (1985 y), ruscha (1996, 1999 y.) va qozoqcha (2003 i.), turkcha (2006 y.) va uyg'urcha (2007 y.) tarjimalari nashr etilgan.

«Tarixi Rashidiy» asari o'zbek tiliga birinchi marta 2010 yilda tarjima qilingan. Unda yozilishicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov «Ma'naviyatimiz fidoyisi» deb alqagan Bobur jamoat fondining raisi Zokirjon Mashrabov tarjimonlar diqqatini «Bu ikkinchi «Boburnoma»dir», deya moddiy va ma'naviy madad bergan. Tarjimonlarning aytishicha, «qo'shimcha manbalar izlayotgan paytimizda (garchi qo'limizda «Tarixi Rashidiy»ning Tekston tayyorlagan ilmiy nashri (Garvard, 1996) va ushbu asarning Asomiddin O'rinboev, R.P. Jalilova va L.M. Epifanovalar 1996 yilda rus tiliga o'giran tarjimalari bo'lsa-da) Zokirjon Mashrabov Bobur va uning topilmagan asarlarini izlab Xitoyga safar qildilar va bizga ham asqotgan – «Tarixi Rashidiy»ning Muhammad Niyoz Abdulg'afur o'g'li bajargan turkiy tarjimasini – Shinjong xalq nashriyotida bosilgan (2007 yil) ikki jildli kitobni olib» kelgan va tarjima shu nusxa asosida amalgam oshirilgan⁵⁵. «Tarixi Rashidiy» asari ikkinchi bor o'zbek tiliga 2011 yilda tarjima qilingan⁵⁶.

Xulosa qilib aytganda Muhammad Haydar mirzoning «Tarixi Rashidiy» asarini forsiy tilda nashrga tayyorlagan, ilmiy-tanqidiy matn yaratgan, o'z tillariga tarjima qilgan va ilmiy muomalaga kiritgan: turkiylarning fozil farzandlari –

⁵⁵ Мухаммад Хайдар Мирзо. Тарихи Рашидий. Ваҳоб Раҳмонов ва Янглиш Эгамов таржимаси. – Т.: Шарк, 2010.

⁵⁶ Мирзо Мухаммад Хайдар Аъзий. Тарихи Рашидий. Нашрга тайёрловчи, сўзбоши, табдил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифи т.ф.н. О.Жалилов. – Т.: О'zbekiston, 2011.- 704 б.

Muhammad Sodiq Koshg'ariy, Mullo Muhammad Niyoz Abdulg'afur o'g'li, ingliz olimlari Denison Ross, Uilyam Erskin, Tomas Arnold, Amerika olimi Uiler Tekston, franquz olimi Rene Grosse, Eron olimlari Husayn Razmjo', Qozi Ahmad Tataviy, o'zbek olimlari Hamidulla Hasanov, Bo'riboy Ahmedov, Asomiddin O'rinboev, Azamat Ziyoy, Sabohat Azimjonova, Omonbek Jalilov, G'ulom Karim, Ra'no Jalilova, Larisa Yepifanova, qozoq olimlari Abdusattor Derbesali, Islom Jemeney, B. Komakov, Bayuzak Kojabekuli Albani, uyg'ur olimlari Ayupjon Eliyup, Rahmatulla Joriy, Muhammadturdi Mirzoahmat, Farhod Jolan, Mirsulton Usmonov, rus olimlari V.V. Bartold, V.V. Velyaminov-Zernov, T. Sultanov, ozarbayjon olimi Aziz Mirahmedov, hind olimi Muhammad Qosim Hindushohlarning xizmatlarini qayd etish lozim.

II-Bob. “Tarixi Rashidiy” asari birinchi daftaridagi ma’lumotlar

2.1. Chingizxon – Chingiziylar haqida

Chingizxon o’n yoshida otasi Yasukay bahodirdan keyin qoldi, hamma urug’-qayoshlari muxolifat bo’ldilar va adovat bog’ladilar. Ammo Chingizxonning validasi tula oqila kishi erdi. Farzandining tarbiyag’a mag’shul bo’lib, xonliq qildi. Ammo Yasukay bahodirning urug’ tuqqanlari base jafolar qildi. Chingizxonning oti Temuchin erdi. Vaqteki Yasukay bahodir totor qavmi bilan jang qilib, g’olib kelib, ul qavmlarning to’rasini o’ldirdi, oti Temuchinarka erdi. Yasukay bahodir bu cherikdin yonib kelsa, xotini o’gil to’g’ibdur. Bu o’g’ilg’a Temuchin ot qo’ydi. Shul Temuchinni Chingizxon atabdurlar. Vaqteki otasidin keyin qoldi, yigirma sakkiz yoshga kirguncha, Temuchinning boshira na balolar keldi. Kishining qo’liga tushdi, bandga soldi. O’lturguncha Xudoyi taolo xalos qildi. Shul vaqtda Karotning to’rasi O’ngxon degan ulug’ podshoh erdi. Yasukay bahodir birla do’st erdi. Temuchin O’ngxonning qoshiga bordi. Temuchinni o’z farzandidek tarbiya qildi. To’la maxlakalardin xalos qildi. O’ngxonning o’g’li Sankun Temuchindin rashkdor bo’lib, O’ngxonga yamon bildirdi. Andin Sankun Temuchinga qasd qildi. Temuchin bu voqeani anglab, Oq uy borgoxini tashlab tog’qa yo’landi. O’ngxon o’g’li Sankun lashkari farovon birla kelib o’l xayma borgoxni tirboron qildi. Ma’lum bo’ldiki, xayma borgohda kishi yo’q. Sankun xijolat bo’lib keynidan yurub, // Temuching’a yetdi, o’l yerda qattiq jang qilib har ikkala lashkar oromgohlarig’a yonib tushdi. Temuchin Boljuna degan chashma yoqasiga ravon bo’ldi. O’ngxon birlan Sankun tufasiga borib tushdi. Temuchin jangda bor xalqlarning hammasiga in’om-ehson qildi. To’rt ming uch yuz kishi erdi. Ul jumladin ikki yosh o’g’il O’ngxon birla Sankunning qasdig’a tushdi. Ularni darxon qilib, Humaro qatorig’a oldi. Temuchinning inisi Jo’chi Hisorni O’ngxonning lashkari g’orat qilib erdi. Temuchin O’ngxonga noma etub, bu noma Jo’chi Hisordin deb elchi yubordi. Churos aymoqidin Qolbudor otliq xon otamg’a arz o’lki xonimonimni lashkar g’orat qildi. Og’am Temuchinni topolmadim. Yiroq yerlarga bosh olib ketubdur. Agar xonimonimni yondirib bersalar, jon badanda bor, yorliq eshitib

hizmat bajo keltursam, deb. O'ngxonga bu noma ajab pisandida kelib g'ofil turub erdi. Elchining orqasidin Temuchin yetib kelib, andog' qattiq jang qildiki, oxirul amr Temuchin g'olib keldi. O'ngxon o'g'li Sankun birla bosruq bo'ldi. O'ngxon qochib borguncha Toyangxonning ikki umarosi qorovulda erdi, birining oti Xuribosuju, yana birining oti Totiksol, O'ngxonni ular to'tib o'ltirdi. Boshini Toyangxonga olib bordi. O'g'li Sankun qochdi, Toyangxon bu ikki umaroni ko'p ayblar qildi. O'ngxon base ulur xon erdi, nima uchun tirik olib kelmadinglar, bu yomon ish bo'libdur, - deb pisand qilmadi⁵⁷.

O'ngxonning boshini kumush birla qoflab necha muddat // taxtning yonida qo'ydi. Sankun qochib borg'uncha Qilich Qora otliq bir umaro to'tib o'lturdi. Chin bilan Tibetning orasidagi shonshavkat va azamat birla Kirayitning davlati oxir bo'ldi. Ondin akobir va ashroflar jam bo'lib, Temuchinga Chingiz ot qo'yub, to'qqiz poyaliq oq tur rost qilib xon ko'tardilar. Andin keyin Chingiz ot birla mashxur bo'ldi. Andin Toyangxonning umarolari O'ngxonning umarolari birla birlashib, Chingizxon tarafiga muxolifat qildi. Chingizxon ham o'tlanib jangi saxt qildilar. Oxir to Toyangxon shikast topdi. Andin Toyangxonning yurtiga mutasarrif bo'ldi. Toyangxonning Buyruqxon deb bir inisi bor erdi. Chingizxonga el bo'lmagan xaloyiq anga qochib kirdi. Andin Chingizxon Makritning to'rasi o'za otlandilar. Makritning to'rasi Tuqobek Buyruqxong'a qochib kirdi. Makrit aymog'ining naslining urug'i va Ayrovsunning qizi Qulon xotinni Chingizxon atab o'n sakkiz ming aymoqni boshlab, ko'runushga keldi. Chingizxon bu qavmlarning o'zasiga cherik bormoqqa mashvaratda erdi. Tangg'ut aymoqi yog'iy bo'ldi, deb xabar bo'ldi. Tangutni qoshin ham debdurlar. To'rasining oti Shaydarquning o'n besh lak cheriki bor erdi. Chingizxon Burg'ul No'yon birla Jumatoyini sipoxsolar qilib buyurdi. Bu umarolar ikki ulur shaharni oldi. Biri Sakiy, yana birining oti Kalanglushi. Shaydarquni Chingazxonga el qilib yondilar. Buyruqxonning qasdida Chingizxon otlandi. Chingizxonga Xudoyi taolo yor

⁵⁷ Мирзо Муҳаммад Ҳайдар Аъзий. Тарихи Рашидий. Нашрга тайёрловчи, сўзбоши, табдил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифи т.ф.н. О.Жалилов. – Т.: О'zbekiston, 2011. – Б. 38.

bo'ldi. Buyruqxon shikorda edi. Chingizxonning bir umarosiga uchradi. Shul yerda to'tib o'lturdi.

Chingizxon Buyruqxonning mamlakatini o'z tasarrufiga oldi. Tuqobek Tayonxonning o'g'li Kushluk qoshog'a qochib bordi. Chingizxon Tuqobeq Kushluk tarafiga otlandi. Kushluk Irtish mavzeida erdi. Vaqtiki Irtishga yetdilar. Uyrot qavmi peshkash birla Chingizxonga bosh bo'lib Kushluk qoshiga yetkazib bordi. Anda qattiq jang bo'ldi. Tuqobek jangda o'ldi. Kushluk qochib engdi. Chingizxon Tuqobek birla Kushluk xonning mamlakatiga ega bo'ldi. Ul zamonda Turkiston Qoraxitoyning qo'lida erdi. Qoraxitoyning xonini Gurxon der erdilar. Buning poytaxti Bolosaqunda erdi. Keyin mug'ul Olmaliq atadi. Uyg'urning to'rasi Yidilab Gurxonga xiroj berur erdi. Chingizxonning dabdabasini anglab Gurxonning qurg'on shahnasini o'lturib, Chingizxonga tobe bo'ldi. Gurxong'a Xorazm podshoh o'ttiz ming misol oltin xiroj berur erdi. Samarqand podshohi nasli Afrosiyob Usmon ham xiroj berar erdi. Gurxon basi ulur podshoh, erdi. To'qqiz yoshida xon bo'lib, to'qson besh yil podshoh, bo'ldi. Qushlukxon Gurxon qoshig'a qochib bordi. Ondin Chingizxon Xitoy o'zasiga otlandi. Xitoy xoni Oltoyxon bisyor peshkash birla qizini yubordi. Chingizxon shahri Namking va Jangdu degan ikki ulug' Xitoyning shaxrini olib, shundin yondi. Alqissa Chingizxon, tamomi mashriq viloyatlarini mamlakati Xitoy va Olmaliq va mamlakati Uyg'ur va Totor Qaroqurum va Qoshg'argacha Chingizxonga sof bo'ldi. Alqissa Qaroqurum va Kelurong'a yetkurdilar.

Chingizxonning besh hotuni bor erdi. G'umosi birla besh yuzga yovuq xotini bor erdi. Xaddin fo'zun mamlakatlar aning mutasarrifida bo'ldi. Oxirul amr bu falaki vojgun va charxi buqalamun bevafoliq va purjafoliq rasmini og'oz qildi. Chingizxon qattiq og'ridi, O'g'lonlari Cheg'atoyxon, O'ktayxon, Tuluyxon Olg'on mamlakatlarga o'z umarolaridin kishi qo'yib yondilar. Xabar bo'ldiki, Tangg'ut Shaydarqu yosh bo'ldi deb, Shaydarquning o'n besh lak lashkarlari bor edi. Tang'gutni Koshin ham atabdurlar. Shaydarqu o'n besh lak kishi birla kelib, Chingizxon birla jang qildi. Xon basruq qildi. Shaydarqu shaharga berkididi. Chingizxon elchi kirguzdi. Shaydarqu ham elchiga kishi qo'shub chiqardi. Bir oy

muhlat tiladi. Bir oydin keyin ko'runushga chiqmoq bo'lib, elchisi yondi. Vaqtiki, Chingizxon to'la betob bo'ldi, o'g'lonlarig'a va umarolarig'a vasiyat qildikim, Tangg'ut mamlakatig'a dast topmoq basi mushqo'l ish, mening o'lganimni maxfiy tutinglar, yig'i-zori qilmanglar. Shaydarqu chiqsin, andin xalqi birlan Shaydarquni o'ldurunglar. Mamlakatiga ega bo'lunglar. Sanduqumni O'rdaga yetkuzub borib, ondin aza tutinglar deb olamdin bordi. Chingizxon olamdan ketib, o'n besh kundan keyin Shaydarqu peshkashi benihoya olib chiqdi. Shaydarquni to'tib o'ltirdilar. Buzruklar aytibdurlarki, agar yuz ming kishi o'lsa, bir kishidek turadi, agar o'n ming kishi o'lsa, bir ulus qo'l ko'tarur deb. Shaydarquning xalqini o'ltirdilar. Besh ulus tek turibdur, sakkiz ulus qo'l ko'taribdur. Mundin qiyos qildilarki, besh lak yana besh yuz ming, yana sakson ming kishi qatl topibdur. Ushoq ahli ayolini ulashib olib, Chingizxonning sanduqini shahzodalar va umarolar olib ravon bo'ldi. Alqissa Qaroqurum va Kelurong'a yetdilar. O'rdayi xon shul mamlakatda erdi. Har bir xotuni bir o'rdasida aza tutdilar. Avval Bo'rta qujin g'ungrat aymoqining to'rasi No'yonning qizi erdi. Aningdin to'rt o'g'li bor erdi. Avvali Jo'chixon, ikkinchi Chig'atoyxon, uchinchi O'ktayxon, to'rtinchi Tuluyxon erdi, ikkinchi Qo'lon xotun Makrit to'rasi Toyrasunning qizi erdi. Uchinchi Yasukot totarning ulug'ining qizi erdi, to'rtinchi Kunju xotun Xitoy xonining qizi to'la xushsurat erdi. Beshinchi Ko'rbosun xotun, o'l xotuni Tayongxon nayman erdi. Vaqtiki aza tamom bo'ldi. Sarupoi toza kiyib, majlis orosta qildilar. Jo'chixon Chingizxondin olti oy ilgari favt bo'ldi. Chingizxon o'rnida ikkinchi o'g'li Botuni nasb qildi⁵⁸.

Chingizxon o'g'lonlari Chig'atoyxon, Tuluyxon, Ko'lgan, Jodar, Jo'rji, Bo'yta, o'g'li tamom birodarzodalarik birla umarolarining ba'zisi O'toyxonni xon ko'tardilar. Chingizxon aytib erdi: Ey o'g'lonlarim! Agar podsholiqdin barxurdor bo'lay desanglar, O'ktayni mening o'rnimda bilinglar, har ish buyursa tajovuz qilmanglar. Bir ilonning bir boshi necha quyrug'i bo'lsa, agar boshi bir teshikka kirsa, quyruqlari keyindin kirar. Boshi o'n, quyrug'i bir bo'lsa, har

⁵⁸ Мирзо Муҳаммад Ҳайдар Аъзий. Тарихи Рашидий. Нашрга тайёрловчи, сўзбоши, табдил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифи т.ф.н. О.Жалилов. – Т.: О'zbekiston, 2011. – Б. 40.

boshi bir teshukka kirsam, quyruq'i tashqarida qolib // sovuqqa xalok bo'lur. Yana Chingizxon yetti o'qni bir bog'lab o'g'lonlariga berdi: Sindiringlar, - debdi. Hech qaysisi singdira olmadilar. - Bundan qiyos qilinglar. Muxolif bo'lmanglar, deb vasiyat qilib erdi. O'ktayxonni xon ko'tardilar. Chingizxon yetmish uch yil umr ko'rdi. Yigirma besh yil xon bo'ldi. Jasadini Burhon Qoldun degan yerda dafn qildi. Chingizxonning besh qizi bor erdi. Ulug' qizi Qujpin beki, ani Nekun Tukurxonning o'g'liga berdi. Ikkinchi qizi Jajkon, ani Turolji ko'ragonga berdi. Ul uyrot qavmining podshohi erdi. Uchinchisi Aloqon beki, ani Ankut podshohi Chingizxo'ga berdi. To'rtinchi Tumolun Qo'ng'rotning to'rasiga berdi. Muning oti Ko'ragon erdi. Podshohlarning domodini ham ko'ragon derlar. Beshinchi qizi Oytolun, ani Alqonut qavmining podshohi Jojdor jiyjong'a berdi. Alqissa Chingizxon tamom Mo'g'uliston, Qoraqurum va Keluronki poytaxti Mo'g'uliston erdi, tamomi Xitoy va Turkistonki poytaxti Balosoqun erdi va Olmaliq, Beshbaliq va Qiyoliq, Emil va Irtish to Koshqaru Xo'tan, tamom Movarounnahrki Buxoro va Samarqand, Shosh, Xo'jand, Fanokat va tamomi Turon, Balx va Toliqon, Qunduz va G'aznin va Kobul, tamomi Eronki, Xuroson, Iroq va Fors Chingizxonga yaqqalam bo'lib erdi. Bu mamlakatlarga dorug'a va shahnalar qo'yib erdiki, Xurosong'a Amir Arg'un Oqoni qo'ydi. Iroq va Forsga Chin Temur xitoyini, Xorazm, Buxoroga va Samarqandga va Xo'jand va Fanokat va Shoshga va O'tror, Balosoqun va Olmaliq, Qiyoliq, Emil va Irtish va Koshqar va Xutanga Mas'udbekni va tamomi mamlakati Xitoyga Mahmud Yalovachning o'gli Muhammad Yalovachni hokim qo'yib erdi. Muhammad Yalovach base qobil kishi erdi. Chingizxon tamomi mamlakatlarini o'g'lonlariga qismat qilib berib erdi. Tamomi Qipchoq va Saroy, Bo'lg'or va Urus va g'ayruhumni Jo'chixonga berib erdi. O'zining poytaxtiga Qoraqurum va Keluron va g'ayruhumni O'ktay qo'ng'a berdi. Tamomi viloyati Xitoyini Tuluyxonga berdi. Beshbaliq va Olmaliqki Tug'luq Temurxonning marqadi shundadur, Koshqar va Xo'tan va tamomi Turkistonni, Movarounahrni iborati Buxoro va Samarqand va

tobioti, Shosh va Fanokat va Xo'jand va O'zgand va O'sh, Uchbaliqni Chig'atoyxonga tayin qildi.

O'ktay qoon andoq podshoh, erdiki, juvonmard va saxiy erdi, lak-lak oltinni bir bahona birla xaloyiqqa exron qilur erdi. Ammo bisyor sharobg'a moyil erdi. Naqlidurki, Bag'doddin bir kimarsa keldi. O'qtoyxon shikorga chikib erdi, yonib keladur deb anglab bu kishi duo qilib ulturug'di, surdiki buning arzi nima deb? Bu kishi aytdiki, Bag'dod degan shahardin keladurman, o'n qizim bor, aning jabduqig'a ojiz keldim, sening saxiyligingni anglab keldim, deb erdi. O'ktay qoon xalifai Bag'dod hech nima bermamdur dedi. Bu kishi aytdiki, ey podshoh, har boraki xali fag'a arz yetkurdim, o'n diram berdi. Ul hech nimaga yetmadi dedi. O'ktayqoon anga rahmi keldi. Ming bosh kumush buyurdi, har bosh yuz misqol debdurlar. Ul kishi arz qildiki, muncha molni // men qandoq uyimga olib keturman dedi. O'ktay qoon mutabar ikki kishi qushdi, bu boboni uyiga yetkuringlar, deb. Bobo yo'lda o'ldi. Bu boboning o'lgan xabarini O'ktay qoong'a yetkurdi, O'ktay qoon buyurdiki bobo o'lgan bo'lsa, ul molni uyiga yetkurub bolalarog'a bergil deb. Bular Bag'dodg'a olib borib ul kishining bolalarig'a berdi.

O'ktay qoon podshohi odil va rahmdil va saxiy va juvonmard va xushxuy kishi erdi. Chingizxon o'lub ikki yildin keyin baqar yilida podsholiq taxtida o'tirdi, o'n uch yil xonlik qildi. Bisyor sharobdo'st erdi. Chingizxon o'lib, o'n besh yildan keyin qoon olamdin bordi. Chingizxonning qoshida // Burhon Qoldun degan yerda dafn qildi⁵⁹.

Vaqtiki Chingizxon tamomi Dashti Qipchoqni berdi. O'zbek-qozoqning to'ralari Jo'chixonning avlodidur. Chingizxondin olti oy ilgari favt bo'ldi. O'rnida o'g'li Botuni nasb qildi. Botuxondan keyin Berkaxon Dashti Qipchoqg'a xon bo'ldi. Hazrati Shayx Sayfuddin Boxarziy oldida musulmon bo'ldi. Ul kishiki Jo'chixonning avlodidin musulmon bo'ldi, Berka xon erdi. Ul kishiki Tuluyxonning avlodidin musulmon bo'ldi, G'ozon erdi. Sulton Mahmud G'ozon

⁵⁹ Мирзо Муҳаммад Ҳайдар Аъзий. Тарихи Рашидий. Нашрга тайёрловчи, сўзбоши, табдил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифи т.ф.н. О.Жалилов. – Т.: O'zbekiston, 2011. – Б. 43.

shuhrat topdi. Chig'atoyxonning avlodidin musulmon bo'lg'on Tug'luq Temurxon erdi. Mavlono Arshaduddin qo'lida dinu islomga musharraf bo'ldilar.

Jo'chixonning avlodidin o'ttiz sakkiz kishi xon bo'ldi. To Sulton Ahmadxon zamonig'acha. Orada ba'zi musulmon, ba'zi kofir erdilar. Avvali Botu, ikkinchi Berkaxon, uchinchi Munko Temur, to'rtinchi Munko, beshinchi Tuxtag'on, oltinchi O'zbekxon, o'zbek shundin qoldi, yettinchi Jonibekxon podshohi musulmon va juvonmard, neku af'ol kishi erdilar. Alqissa, Jo'chixon bisyor shikordo'st kishi erdi. Jo'chixonning avlodida yettinchi xon Jonibekxon erdi. Bisyor hamida hisol neku af'ol erdilar. Bular ham o'z mahallida zikr topg'usidur.

To'ldixon Burtaqo'jindin tug'ulg'on. Chingizxonning to'rtinchi o'g'lidur. No'yonda ulug' no'yon der erdilar. O'zidin kam judo qilur erdi. To'ldixon O'ktay qoondin // ilgari olamdin o'tdi. Naqlidurkim, O'ktay qoon ranjur erdi, o'z rasmida bir nima deb suvg'a dam qilib qon deb qo'yub erdi. Tuluyxon cherik borg'on yer din yonib, og'asig'a – qoshig'a keldi. Ko'rdiki, og'asi kasal bo'libdur, aytdiki ey tangri jovido! Agar gunoh uchun itob qilsang, og'amdin man to'laroq kishi o'lturdum, bola-barqasini yig'latdim, agar surat uchun o'ltursang, aningdin man xushsuratdurman, meni olib borg'il, deb hamon suvni ichdi. Og'asidin ruxsat olib o'rdasig'a yondi. Yo'lda ranjur bo'lib borib o'ldi. Ani ham xonning oyog'ida dafn qildi.

To'ldixonning to'rt o'g'li bor erdi. Avvali Munkaxon, ikkinchisi Qubo'layxon, uchinchisi Haloguxon, to'rtinchisi Ariqbuqa. Vaqtiki O'ktayxon favt bo'ldi, Kuyukxon taxtda o'lturdi. Otasining o'rnida o'lturub bir yil tamom mamlakatga xonlik qildi. Kuyukxon ham olamdin o'tdi. Bularning orasida Munkaxondin podshohlikg'a loyiqrog'i yo'q erdi. Qurultoy qildilar, ya'ni turklar yig'in qilg'onni qurultoy debdurlar. Chig'atoyxonning avlodi jam' bo'lib, Munkaxonni xon ko'tardilar, ul holda Chingizxonning olg'an mamlakatlarini ba'zisi yog'in bo'ldi, ba'zisi Chingizxonning qo'lida ham fath bo'lmab erdi. Bu shaharlarga lashkar yubormakka muqayyad bo'ldi, inisi Qubo'lay qoon, ikkinchi inisi Huloguxonlarni cherik yiborur bo'ldi.

Chingizxonning cheriklaridin o'n kishidin ikki kishi chiqardi. Birini Qubo'layxong'a, birini Huloguxong'a qo'shti. Qubo'layxonni mashriq sarhadig'a buyurdi. // Boshi Xitoy va Mochin va Qorajonak va Tangg'ut va Tubat va Jur va Jeta va Sulunqo va Qo'li va ba'zi) Hindistong'a va Xitoyig'a payvast erur, bularning fathig'a nomzad qildi. Tamomi Eron zaminni Shom va Misr va Rum va Arman va Yamanga Huloguxonni to'qson yetti ming kishi birla yubordi. Tarixg'a olti yuz qirq to'qqiz (1251-1252) bars yili erdi. Huloguxon Qoraqurumdin Erong'a yuz qo'ydi. Bu mazkur lashkar birla Mavorounnahrğa keldi. Mas'udbek bu xabarni anglab Samarqandning shahridin bori istiqboliga kelib peshkash qildi. Xurosondin amir Arg'un boshliq umarolar va shahnalar Erong'a taklif qildilar. Peshkashi loyiqlar birla ko'rinish qildilar, andin Xuroson tarafig'a ravon bo'ldi. Vaqtaki Xurosonga yetdi, necha kun anda ayshu ishratga mashg'ul bo'ldi. Malohadaning podshohi Xo'rshoh erdi. Base fasod va fitna bu mal'unlardin o'tdi, akobir va ashraflarni shahid qildi. Huloguxon Malohadaning shaharlarini fath qilib, Xo'rshohni Munkaxon qoshig'a yubordi. Ul Malohadani nobud qildi⁶⁰.

Huloguxon base shujo', bahodir va xushxo'y kishi erdi. Xuroson va Fors va Kermion mulhidlarining mamlakati Qazvin va Azarbayjo va Iroq va Ajam musaxhar bo'ldi. Andin Bag'dodg'a elchi yubordi. Bag'dodning halifasi Musta'sim xalifa erdi. Vaziri Mu'inuddin Ahmad bin Ali Alqamiy shiy'a erdi. Xalifa pok din va ahli sunniy erdi. Vazir yomon so'zlar birla elchini yondirdi. Huloguxon to'qson yetti ming kishi birla Bag'dod ustig'a ravon bo'ldi. Uch oy muhosara bo'ldi. Bag'dod base tang bo'ldi. Xalifa akobir va sodot va umarolar birla chiqdilar. Xalifani boshqa chodirg'a tushirdilar. Alhol xo'b aziz tutdi. So'laymonshoh amir Sa'dni, Davondorni tutdilar. Bular birlan yetti og'ainisini borlab olib keldi. Hulogu so'rdi: Ey So'laymonshoh seningdek axtarshunos, munajjim xalifani rost yo'lg'a boshlamading, deb So'laymonshohni xalqi birla o'lturdi. Amir Sa'd birla Davondorni ham o'lturdi. Ikki kundan

⁶⁰ Мирзо Муҳаммад Ҳайдар Аъзий. Тарихи Рашидий. Нашрга тайёрловчи, сўзбоши, табдил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифи т.ф.н. О.Жалилов. – Т.: Ўзбекистон, 2011. – Б. 45.

keyin xalifani ikki o'g'li birla o'lturdi. Davlati bani Abbos oxir bo'ldi. Bularning avvali Abdullo Saffoh oxiri Musta'sim xalifa erdi. Jami o'ttiz yetti kishining muddati xalofat va hukumatlari besh yuz yigirma uch yil erdi. Davlati oli Abbos oxir zavol bo'ldi. Har maxluqki bordur, oxiri zavoli bor. Ulki podshohi bezavol, podshohi beintiqol Xudoyi taolodur.

Alqissa Bag'dodda sakson ming kishi qatl bo'ldi. Huloguxon taxti Eron va Iroqqa muqarrar bo'ldi. Huloguxon Elxon shuhrat topdi. Hurxonki Huloguxonning o'rnida o'ltirdi, ani Elxon atadilar. Alqissa ellik olti qal'ai nomi Huloguxong'a muti' va musaxhar bo'ldi. Xutba va sikka Elxonning otita zebu ziynat topdi. Huloguxon sakkiz yil Eron, Turong'a xonliq qildi. Qirq sakkiz yil umr ko'rdi. Vaqteki Huloguxon vafot bo'ldi, akobir, ashroflar jam bo'lib Aboqoxonni xon ko'tardilar. Xoja Alouddin Atomalikni Bag'dodga hokim qildi. Rung'a Mu'inuddin Parvonani hokim qo'ydi. Alqissa Aboqoxon o'n yetti yil xon bo'ldi. Andin Barokxon Movarounnahr din lashkar jam' qilib kelib bosruq bo'lib yondi. Bir kun Aboqoxon Hamadonda sharob // ichib o'lturur erdi, aytiki, manga o'q-yoy beringlar, bir ulug' kuch qasd qiladur, — dedi. O'q-yoyni olib kelib berdi, qo'rqunchidin yoni qo'lig'a ololmay yiqilib jon berdi. O'gli Arg'unxon Xurosonda erdi. Inisi Nakdorki Sulton Ahmad deb mashhur, ilgari O'rdag'a keldi. Umaroi No'yon yig'ilib Sulton Ahmadni xon ko'tardilar. Ahmadxonning musulmon bo'lg'ali kungli moyil erdi. Maxfiy musulmon bo'ldi. Islomga tamom rivoj va ravnaq berdi. Arg'un buzulub Ahmadxonni o'lturdi. Umarolar Arg'unni xon ko'tardilar. Arg'un nelomka base dushman erdi. Vazir Xoja Shamsuddin Muhammad devonni shahid qildi. Hech musulmon o'rdag'a kelmasun deb amr qildi. Ahli islomga tanglik to'la bo'ldi. Fot fursatda Arg'ung'a bir kasal oriz bo'ldi. Shul kasalda o'ldi. Ikki o'g'li bor erdi: yana biri O'ljaytu G'ozon Xurosonda erdi. Inisi Kunjaytu Rumdin keldi. Umarolar Kunjaytuni xon ko'tardilar. Kunjaytu zabti mamlakatra mashg'ul bo'ldi. Vaqeki Boyduxon ibn Taraqay ibn Huloguhon xon xuruj qildi, oxirul amr Kunjaytuxon qatl bo'ldi. Kunjaytu uch yil xon bo'ldi. Andin ulug' kichiklar jam bo'lib, Boyduxonni xon ko'tardilar.

2.2. Amir Temur tarixiga oid yozma xabarlar

Sohibqiron Amir Temur Ko'ragonning hasabu nasablari Chingizxonga ushbu tartib birla murattab qilinurki, Amir Temur sohibqiron Amir Tarag'oyning o'g'li, bular Amir Burkulning o'g'li, bular Amir Ilingirning o'g'li, ular Ijlning o'g'li, ular Qarojar No'yonning o'g'lidur. Qarojar No'yon Chingizxonning amakiyidur va Qarojar No'yonning nasabi bu tartib birladurki, Qarojar No'yon Suujaminning o'g'li, ular Erumchi Barlosning o'g'li, ular Qorajuyi Bahodirning o'g'li, ular To'minaxonning o'g'li, ular Poysung'o'ring o'g'li, ular Qayduxonning o'g'li, ular Do'maninxonning o'g'li, ular Buzanjirxonning o'g'lidur. Chingizxonning nasabi Tuminaxonga yetadur. Tuminaxon Chingizxonning to'rtinchi bobosidur. Sohibqiron Amir Temur Ko'ragonning onasi Takinabonu ular ham podshoh zodadindurlar.

Sohibqiron ta'rixqa yetti yuz o'ttuz to'rt, mohi sha'bonning yigirma beshinchi (1336 yil 9 aprel) kechasi, Shahrisabzda vujudlariga keldilar. Asli Movarounnahrning viloyati Keshidindur.

Vaqteki hazrati Sohibqiron Jeta tarafiga otlandilar, amir Hoji Barlos Jetaning sipohlariga muloqot bo'lmokdin gamnok bo'lib o'z yurtini tashlab Xuroson tarafiga yurdi. Sohibqiron jazman bildilarki, agar bu safarda uzoq tursa, vatani asliy zer-zabar bo'lib, mulk qo'ldin ketgay. Oning uchunki Sohibqironning otalari Amir Tarag'ay olamdin borib erdi bovujudi Sohibqironning soli yigirma beshdin o'tmab erdi, kengashni amir Hoji qo'ydilar. Amir Hoji aytti, ey podshoh» sizlar Kesh tarafiga borsalar, men Xuroson tarafiga borsam, toki yurt harob bo'lmasa, ra'iyalar Xudo taaloning omonatidur, zahmat va tashvishlikka qolmasa, dedi. Amir Hojining bu so'zini yaxshi ko'rib, hazrati Sohibqiron otning jilovini viloyat tarafiga tortib ravon bo'ldilar. Vaqteki Zarozkentiga yetdilar hoji Mahmudshoh Basuriyni ko'rdilarki, Jetaning lashkarlarini jam' qilib, anbu guruh birla turibdur. Hazrati Sohibqiron haloyiqqa taskini xotir berdilarki, sizlar bu yerda tavakkuf qilinglarki, man borib Tug'luq Temurxonning umaro va sipohlariga muloqot bo'lib, ularga savob va rost yo'lni aytib ado qilay dedilar. Hazrati Sohibqironning so'zlari kamoli davlatning talqini erdi, ammo

qazoning hukmini hech bob birla yondirolmadi, bu xalqning yurmakka // taqozosi bor edi, nochor shul yerda turib qoldi. Hazrati Sohibqiron yurib ketdilar, Vaqteki Keshga yetib edilar, Jetaning umarolari ham ul yerga yetgan edi. Va ul uch umarolarga muloqot bo'lgaylar. Umarolar darhol yetib kelib, Sohibqironning muborak peshonalarida farmonbardorlikni mushohada qilib, e'zoz va ikrom birla tushtilar. Va ularga xonning mutobiatini izhor qilmoq uchun yaxshi so'zlarni qildilar va tumon amir Qarojar Kesh viloyatining umaro va tobe'lari birla ularga muqarrar bo'ldi. Qahri va baloning seli ul diyorg'a yuz kelturub edi. Sohibqironning yumni barakotlaridin to'xtadi⁶¹.

Hazrati Sohibqiron Jetaning umarolarining oldidin yonib kelib Shahrizabzdin to Jayhun labig'acha lashkar jam' bo'lmoqlikka farmon qildi. Fot fursatda to'la lashkar jam bo'ldi. Ul yerdin yurib Amir Xizr Basuriyning qoshig'a keldi. Bu asnoda Jetaning umarolarining orasida muholafatlik tushib, o'zining hamma lashkarlari birla ul kentlardin ko'chib yonib Tug'luq Temurxonning o'rdasig'a ulanib edi va amir Boyazid Jaloyir o'z tobelari birla hazrati Sohibqirong'a va amir Xizr Basuriyg'a lohiq bo'ldilar.

Vaqteki Tug'luq Temurxon Movarounnahrning viloyatig'a ikkinchi marotaba bormoqni ixtiyor qildi. Haddin // fuzun lashkar jam' qilib, jumodiul avvalda, tarixg'a yetti yuz oltmish ikki, uy yili edi. Tavajjuhning yuzini ul daryog'a qo'ydilar. Vaqteki Xo'jandga yetdilar, amir Boyazid Jaloyir va Amir Bayon Sulduzlar itoat qilib, peshvoz oldilarig'a keldilar. Va amir Hoji Barlos avvalki navbatda muholifatchilik qilib edi. Tavakkal qilib xonning oldiga bordi. Bu asnoda on amir Boyazidg'a buyurdilarki, muni to'tib o'ltiringlar. Amir Barlos qochmoqlikni ixtiyor qildi va yuzin Kesh viloyatig'a qo'ydi. O'z tobelaridin ba'zilarini Jayhun suyidin o'tkazdi. Jetaning sipohlari jam'i kasir bila amir Hojining orqasidin quvlab keldilar va jang qilishib Jug'om Barlos o'ldi. Va Amir Hoji qochib Xuroson tarafiga yuz keltirdi. Vaqteki

⁶¹ Мирзо Муҳаммад Ҳайдар Аъзий. Тарихи Рашидий. Нашрга тайёрловчи, сўзбоши, табдил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифи т.ф.н. О.Жалилов. – Т.: О'zbekiston, 2011. – Б. 67.

Xaroshaga yetdiki, ul bir kentdir, Juvayin shahrida viloyati Sabzdin jam'e yomonxalqlar u yerda yig'ilishib, oldini tusib tutub o'lturdi. Xurosonni fath qilg'ondin keyin Sohibqiron Ketistonning intiqomlarini talab qilgay. Jamoalareki ularning tig'i birla o'lib edilar, So'rg'ol degan kentga, Amir Hojining vorislarining porai kentidin edi, ul yerlar ularning borkash va korgo'zarlaridindur. Jetaning umarolaridin amir Hamidki aning aymog'i kurlakut edi. O'z asrilarida kamoli aql va farosatning ziyodaligida ilg'ong'an edi. Xonning oldida ham har nimaki desalar ma'qul tushar erdi. Ushbu holatda hazrati Sohibqironning ulug'liklari va pokizaliklarini xonga arz qildi. Va viloyatning bobida meros hasabi birla hazrati Sohibqironga // taalluqlari bor edi. Amon talab qildi. Xon aning so'zini rizo qilog'i birla angladi. Elchi buyurdilarki, hazrati Sohibqironni chorlab kelgay. Vaqteki Sohibqiron ishorat hasabi birla xonning oldig'a keldi, xon bularning qadam kelturganlariga turluk - turluk navozishlar bilan ikrom qildi. Iyolati viloyati Kesh va tumanki merosi erdi, tobelari birla ehson qilib berdilar. Va xon shul zimistonda Amir Husaynning azmi razmini jazm qilib, aning tarafig'a yuz kelturdi. Amir Husayn ham lashkar tortib, Vaxsh suyi labig'a keldi. Va ul yerda lashkarlarni turg'uzdi. Vaqteki xon Darbandi Oxanin degan yer din o'tib ul yerga yetdi, ikki tarafning sipohlarini birlari kurishib, saf to'zdilar. Kayxusrav Xuttaloni o'z tobelari birla Amir Husayndin yuz o'qurib safni vayron qilib xonning lashkariga ulandi. Amir Husayn bu holni ko'rub qochmoqlikg'a yuz qo'ydi. Xon aning orqasidin ravon bo'ldi. Jayhundin o'tib to Qunduzga keldi. Amir Husaynning lashkarlari el bo'ldi. Ul mavzuning xalqini to Hindukushning dobonigacha g'orat qildilar. Va qish yozni shul atroflarda o'tkazdilar.

Vaqteki xon Ponir degan yerga kelib, Samarqand tarafiga yuz kelturdilar. Yo'lda buyurdilarki, to Amir Bayon Suldo'zniki yasokg'a yetkurgay. Vaqteki Samarqandom yetdilar, Movarounnahrning hamma mamlakati aning taxti tasarrufog'a kirgan edi. Hamma umaro va hokimlari komu nokom boshlarini farmonning xatiga // ko'yg'on edilar. Bir guruh xalq ularning yomon ishlaridin andisha qulur erdilar. Amir Bayon Suldo'zni yasoqa olib keldi. Ba'zi

o'bdon xalqlarg'a iltifotlar qilib o'z o'g'lonlari Ilyos Xojani ul diyorning hokimligig'a qo'ydilar. Jetaning lashkarlaridin va ulur umarolaridin hammasidin muqaddamroqi Bekchik edi. Aning mulozimatiqa muzdlar berib hazrati Sohibqironni sinf-sinf tarbiyatlar, turluk-turluk mehribonliklar qilib o'g'lonlari Ilyos Xojaning oldida qo'ydi. Vaqteki Sohibqironning ahvol va avzo'laridin ulug'lug' va pokizaliq asarini mushohada qilib, ul mamlakatning zabt ishlarini anga tofshurdilar va o'zlari homkorliq birla podshohdiq karorgohga yondi⁶².

Xon Movarounnahr diyoridin yonib Jetaning xalqining peshqadamligini Amir Bekchikga taslim qilib ul mamlakatlarning xalqining maslahatlarini Sohibqironning yaxshi tadbirig'a topshurub yondilar. Amir Bekchik xonning amirlaricha yurmay zulm ishlarini Tula qilib, gumrohlik va dushmanlikka qadam qo'ydi. Hazrati Sohibqiron buni ko'rib bildilarki, xonning yorlig'ini buzib, mamlakatning xoli bo'zuqluqg'a anjom topdi. Ul diyorda turmoqlig'ni hub ko'rmay, Amir Husaynni istamaklikka jazm qildi. Va qochmorlikg'a yuz qo'ydi. Vaqteki Amir Husayndin hech xabar zohir emas edi, aning holini justujo' kilmoq uchun yuzini biyobon tarafiga qo'ydi. Filjumla, bu axvol mazkur mo'g'uliyalar tillarida bor ediki, to Samarqandg'acha Tug'luq Temurxonning tahti tasarrufida der edilar. Bo'ndin ziyoda hech ahvol ma'lum emas edi. Va Amir Bulojiki ilgari Tug'luq Temurxonni xon qilishda mazkur bo'lib edi. Amir Buloji uchun xondin bir nishon va yorliq voqea bo'lib ekan ushbu jihatdinki, ilgari Chingizxon Amir Bulojining ota-bobosig'a va bergan ekan. Bular o'tib ul nishon meros tariqasi birla faqirning xonadonlariga qolg'on edi. Qunduzda mo'g'uliy iborati birla futulgan, maqsad ulki mo'g'uliy ul nishonning hujjati birla to Qunduzgacha xonning tasarrufida der erdilar. Va «Zafarnomaning taxriridin shundoq ma'lum buladurki, tarixqa yetti yuz oltmish to'rtida xon vafot bo'libdur. Mo'g'uliyalar tillarida munlok zikr bo'libdurki, xon o'n olti yoshqa kirganda qolmoqdin Amir Buloji kelturubdur. Andoqki mazkur bo'lub edi va o'n sakkiz yoshg'a kirganda xon bo'libdur. Yigirma to'rt yoshga kirganda

⁶² Мирзо Муҳаммад Ҳайдар Аъзий. Тарихи Рашидий. Нашрга тайёрловчи, сўзбоши, табдил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифи т.ф.н. О.Жалилов. – Т.: О'zbekiston, 2011. – Б. 70.

musulmon bo'lib, o'ttiz to'rt yoshga kirganda vafot bo'libdur. Xon vujudg'a kelganda tarixqa yetti yuz o'ttiz ekanduk.

Vaqteki bular Qunduz tarafiga azm qildilar, ul diyorning haloyiklarini yig'ib andin Badaxshonga yuz qo'ydilar. Vaqteki Tolixong'a yetdilar, Badaxshon podshohlari maslahat birla bularning istiqbollariga chiqdilar. Vahshat va muholifatning hammasi ko'tarilib ketdi. Ul yer din Arhang tarafiga yondilar. Andin o'tub Moli saroy degan yerga yurub Xattalon tarafiga yuz kelturub, cho'lga kirib, cho'ldin o'tub, Dashti Kulak degan yerga chodir tikdilar. Bu yerda tabiatlari orom olmoqliqg'a mayl qildi. Ondin keyin hazrati Sohibqiron istirohat qilmoklikga iginlarini solib va utuklarini tortib edilar, Amir Husayn Sohibqironni charlab kelgali kishi buyrudi. Vaqteki Amir Husayn tarafiga ravon bo'lib kelib majlisga kirdilar. Hozirlardin Fo'lod bo'g'a va Sherbahrom bor ekan. Amir Husayn Hazrati Sohibqironga Sherbahromning shikoyatini ibtido qildi. Shundoq vaqtdaki dushmandin xalos bo'lib o'z diyorimizga azm kiloli desam, judolikni istab vafovu muruvvat yo'liga mangroli unamaydur. Sohibqiron anga nechand nasihatlarini qildilar. Sarzanish va malomatlar qildi. Ammo aning javobi, misra': «Man eshitmayman kishining so'zin» ushbu misra' mazmunig'a borliq edi. Amir Husayn harchand ul Sherbahromga qattiq g'azablar qildi, vaqtning taqozosig'a boqib bu ishga sabr qildilar.

Oxirul amr Sherbahrom Tolixon tarafiga ravon bo'ldi. Ushbu holda // bu xabarni anglag'on erdiki, Tug'luq Sulduz va Kayxusrav Jetaning lashkarlariga bosh bo'lib, Jetaning umarolarining to'lasini birla ilgari kelibdurmish.

Hazrati Sohibqiron amir Muso va amir Muayyad arlot va Uchqora bahodirlarni ming besh yuz otliq kishi bilaki, biri ming kishiga tegadurg'on bo'lgay, Toshko'pruk boshida dushman lashkari birla barobar tuxtattilar. Bu besh yuz kishini guyoki ko'zlariga surmai bilur edilar, suv yuqorisidin maydon tarafiga yuz kelturub nisf kechada ravvoslik bila suvdin o'tib tog' tarafiga yurdilar. Tonglasi otlarining izidan qoravulchilarg'a ma'lum bo'ldiki, lashkar suvdan o'tubdur deb. Bu sababdin ularga ham dag'dag'a paydo bo'ldi. Vaqteki

yana kecha bo'ldi, «Jahon boshga kelturdi kuhli yazid». Hazrati Sohibqironi kishvar kushoy, aduvbandi mushkin kaminag'a buyurdiki, ikingiz tog'lar ustiga tula o't yoqinglar deb. Muholifat lashkari buni ko'rib, qo'rqunch va vaxshat g'olib bo'ldi. Bu yerda turolmay o'z joyidin qo'zg'alib iztirob birla qochishga turdi. Va yonmish tarafig'a yuz qo'ydi. Parvardigori olamning inoyati birla shundoqki bir otliqning barobarida o'n jangjuy tixzan, nayzago'zorlari bor erdi. Jangu mashaqqat tortmay qo'g'ladi. Ajabo ul kimarsag'aki, Parvardigori olamning inoyati joriy va yovarlik kilsa kishi anga barobarlik qilolg'ay va kimarsani Xudo azizu arjumand qilsa, anga badhohlik kilsa, ul kishining baxti yonib, jahonda xorluq bo'lgay⁶³.

Vaqteki dushmanlar bir bo'lushub qochdilar, hazrati Sohibqiron lashkarlari birla guyoki pili damon xurushlar chiqarib, nog'aralar urub, shodu hurramlik bila tog' ustidin o't choftilar to Maydong'acha jur'atlar ko'rguzub dushmanlar umrini nobud etadurg'on tirlar va jon kiradurg'on nayzalar birla ularning ro'zg'oridin dimor chiqardilar.

Vaqteki Sohibqironning ulug'luq va balandlik martabasi tahaququqi topdi, yana ikki ming kishi birla ilgari yurub Keshning qal'asiga yetdilar. Keshning xalqi va atrofidagi odamlari favj-favj, guruh-guruh kelib Sohibqironning istiqbolig'a keldilar. Sohibqiron ikki ming kishiki o'zlari birla hamroh kelturub erdilar, buningdin uch yuz kishini ilg'or olib yo'lg'a ravon bo'ldilar.

Va o'zgalarni shul yer da turmoqlikg'a xukm qildilar. Ul uch yuz otlikdin ikki yuz kishini amir So'laymon barlos va amir Joku barlos va Bahrom Jaloyir va amir Jaloliddin barlos va amir Sayfiddin va Yo'ltemur birla Kesh tarafig'a yurguzub buyurdilarki, to'rt kushin bo'lgay, har otliq ikki bog' shoxni mahkam qilib, otni ikkala yonidin ossin, to g'uborlar o'rlag'ay va ziyoda tug'lar qo'pg'ay. Agar ul yerlarda qarovulchilar bo'lsa, qochqaylar. Bular buyrug'onlaridek ishni bajo kelturdilar. Va tadbir- taqdirg'a muvofiq tushdi. Vaqtiki Keshning qarovuliga // yaqin keldilar, Jetaning sipohlari ul g'ubordin

⁶³ Мирзо Муҳаммад Ҳайдар Аъзий. Тарихи Рашидий. Нашрга тайёрловчи, сўзбоши, табдил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифи т.ф.н. О.Жалилов. – Т.: О'zbekiston, 2011. – Б. 72.

qo'rqub, ular Kesh shahrig'a kirib, ul shahrning zabtig'a mashg'ul bo'ldilar. Ajabo, Xudoning lutfu inoyati podshohliq arkonining ulug'liki borasida goxe o't yondurmoqlikdin lashkarlarini sindirur, gohe bir g'ubor qo'zg'amoqliqdin diyorini musaxxar qildirur.

«Chashmi bad bo'lgay yiroq, mundoq balandlik bo'lmagay.» Shul vaqtda Ilyos Xojaxonning iqomat qiladurg'on yeri Tosharig'i ediki, Keshg'a to'rt farsang yerdur. Umaro va a'yonlari va akobiru sipohlarining to'laligi xaddin beshumor erdi. Ul vaqtda Tug'luq Temurxon xonlik taxti qarorgohidin o'tgan erdi. Ulug' Tug'temur va amir Hamidlar Ilyos Xojaxonni o'z yurtig'a olib borg'ali kelgan erdi, toki otasining o'rnida o'lturub zabti mamlakat qilg'ay. Va hazrati Sohibqiron yuz otliq birla kechalab yurib, Xarrozg'a keldi. Vaqteki qunduz bo'lib edi, xaloyiqlar harakatg'a keldilar. Hazrati Sohibqironning yetib kelganlaridin xabar topib, ostonasining zaminbo'sliqig'a iztirob ayladilar. Sohibqiron Xarroz va Keshning hamma sipohlariga hukm qildilarki, Xoja Soliriyni jandovul qilib lashkarlari birla Chigroluk tarafiga ravon bo'ldilar. Ul yerga yetib tushdilar. Shayx Muhammadki, Sulduzning o'g'li, yetti kushin lashkar bilan Sohibqironga ulandi. Shul yer da yetti kun to'xtadilar. Amir Husayn va sipohlar va anchaki Sohibqiron qal'ada qo'yg'on edi, barchalari yetib keldi. Va SherBahromki Dashti Ko'lakda judo bo'lib, andin o'z eliga borg'on edi. Xatlon lashkarlari birla qirq uch kundan keyin shul yerda bo'larga qo'shildilar. Amir Husayn va Sohibqiron jam'i lashkarlari birla ul yerdin ko'chib, // Xarrozra keldilar. Ul yerda Xoja Shamsiddin navvarallohu marqadahuning mozori mutabarrukalariga kirib, ul bo'zrukning ruhi poklaridin madad va istionat talab qilib, ittifoqning girihini ahdu paymon rishtasi birla maxkam ayladilar. Ilgargidek do'stluqni qaviy qildilar. Amir Husayn va hazrati Sohibqiron haq subhanahu taolog'a shukru sitoish ado qilg'ondin keyin Jetaning lashkarlarining uzasiga otlandilar. Hamma umaro va sipohlariga azmi sharoitlarini orasta qilib tartib berdilar. Amir Husayn ung qo'lg'a oroyish berib, barqpaykar alamlarini tikdi. Hazrati Sohibqiron jang vaqtlarida hamma taran edi. Chap tarafga nusrat alamlarini tikdi. Ushbu tariqa birla

saflarini rost qilib ravon bo'ldilar. Va dushman lashkari Tosharig'ida edi. Ushbu asnoda ikki cherik yaqin kelib bu tarafdin Ilyos Xoja va amir Hamid va ung tarafdin amir Tuqtemur va Amir Bekchik ulur haybatlar bila oyin bog'ladi. Va ikkala tarafdin lashkar yasol qilib maydon ichiga kirdilar⁶⁴.

Kaba Matin degan yerda ikkala tarafning sipohlari bir-birlariga tegib faryod va na'ralari gardung'a yetti. Hazrati Sohibqirondin lashkari muholifning qarovulchilarining to'larog'i kiyna tutar erdi. Bahodirluq markabini jangning maydonig'a sekrittilar. Vaqteki jangning daryosining mavji talotumga keldi, bashorati g'aybiydin hazrati Sohibqiron va sipohu pahlavonlar fathu zafar topib, ozgina lashkar birla muholiflar lashkarini yaproqdek titratib, yomg'urdek taraf-taraflarga parokanda qildilar. Ilyos Xoja va Amir Bekchik va Iskandar o'g'lan va amir Hamid va amir Yusuf Xoja bularni tutub edi. Ammo Bekchik vafodorlikiki turklar orasida xong'a qilib edi, tanudilar va bu jihatdin sipohlarning ulug'lari xabar topg'uncha ani otlanturub xalos qildilar. O'zgasi tupunlar qaydig'a giriftor bo'ldi. Shul kecha Sohibqiron shabgirliq qilib, to Bom suyig'acha surdilar. Shul yerda necha dushmanlarning yo'lini tusub tularoqini o'lturdilar. Va amir Joku amir Sayfuddin farmon taqozosi birla Samarqandg'a ravon bo'ldi. Va bu fathi arjumand tarixqa yetti yuz oltmish besh boliq yili erdi, Hazrati Sohibqironning himmatlari har ishda baland erdi. To har ishni murod orzusig'a yetkurmaguncha orom olmas erdi. Amir Husaynni Sherbahrom bila ilg'or qilib dushmanning orqasidin ravon qildi. Xo'jand suyidin o'tib, Toshkandga tushub daf'i malol uchun necha kun anda yotdilar.

Hozrati Sohibqiron va Amir Husayn har birlari bir joyda edilarki, andaq kasal oriz bo'lib, fot fursatda yana sihatga mubaddal bo'ldi. Va Hazrati Sohibqiron yonishning kasdida Xo'jandning suyidin o'ttilar. Va shikor kasdida lashkarlarga tartib berdilar.

Va Amir Husayn ham Dizaq bulbul shikor degan yerga kelib, bular ham shikor qildilar. «Vaqtni g'animat bil, ul qadar bulol-g'aysen». Va nechand kunni

⁶⁴ Мирзо Муҳаммад Ҳайдар Аъзий. Тарихи Рашидий. Нашрга тайёрловчи, сўзбоши, табдил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифи т.ф.н. О.Жалилов. – Т.: О'zbekiston, 2011. – Б. 73.

ishrat va komronliq birla o'tkardilar. Ul yer din yurub Samarqand tarafiga keldilar. Va ul firdavs sifat manzilga qadamlari shavkatidin shodliq va afzoliq yetti. Ul diyorning haloyiqlari umid ko'zini shikastalik birla yo'l berib edi, ularga mehribonliq va navozishlar qildi.

Vaqteki Movarounnahrning mamlakati Turkiston tobelari birla Jetaning qavmining g'olibligidin xalos bulushub, umarolarning ulug'lari va akobirlari bir-birining hukumatig'a farmonbardorliq qilmadilar. Har bir qabilalar beparvoliq qilib, bir kishiga boshini tuban kilmadi. Ushbu odatlari joriy bo'lib, mamlakatlar fasodaa anjom topdi. Har mamlakatdagi voliy bo'lsa, ul mamlakatning hamma xalqi ul voliyning amru nahiyy farmon-bardorlikini o'ziga vojib sanag'ay va aning hukmidin hech vajhda tajovo'zni ravo to'tmag'ay.

Binoni shung'a qo'yub Amir Xusayn va hazrati Sohibqiron bir-birlari bila kengashib, maslahatni shunga qaror berdilarki, Chig'atoyxonning naslidin birini xon ko'targaymiz va ul ishni ado qilmoq uchun ta'rixqa yetti yuz oltmish beshda (1363-1364) jami' umaro va akobirlar jam' bo'lib kengashib, podsholiq maslahatida va mamlakatning mushqo'l ishlarining kifoyatlarida so'zlar qilishib, hammalarining ra'yi shunga qaror topdiki, Kobilshoh o'g'lan Durjining o'g'li ul Elchikdining o'g'li ul Duvoxonning o'g'lidurki, bular dunyoning bevafoqliq va kajraftorliq vahmidin o'zlarini faqir tutub darvishlikni ihtiyor qilib edi. Ammo bu umaro va akobirlarning maslahati Kobilshoxni xonliq taxtida o'turguzgaylar va bu mamlakatlarning muhimlari saranjom topg'ay.

Shul zimistonda Amir Husayn va Sohibqiron har birlari o'z davlat va komronliklari qarorgohida orom topdilar. Ishlari va ahvollari joriy bo'lib, umid va amonliq muvofiqligi birla iqbolu davlatlari molomol bo'ldi.

2.3. Amir Temurning Mo'g'ulistonga yurishlari

Mo'g'uliylar tillarida Ilyos Xojaxonin hech hikoyat va rivoyatlar mazkur emasdur. «Zafarnoma»ning taxriridin aning ahvoli shundoq, ma'lum bo'ladurki, Tug'luq, Temurxon vafot qilg'ondin keyin xonlik, ishi anga muqarrar bo'lubdur. Aning xonlikining muddati otasidan keyin va Loy jangidin keyin zafar topmoqligi Samarqandni qabomog'liqi va uloqlarining halokati jihatidin yonmoqliklari voqe bo'libdur. Va ancha mo'g'ullar Tug'luq, Temurxon vafot qilg'ondin keyin rivoyat qiladurlarki, fot fursat sharh, qilinur. Ammo // voqealareki Tug'luq Temurxonning vafotidin keyin bo'lub edi mo'g'ullar tillarida mazkurdur. Andoqki Amir Bulojining zikri Tug'luq Temurxonning ahvoli taqriri asnosida zikr topib edi. Besh uylon bir tukqon edilar. Ularning avvali amir Tulak edi. Aning zikri ham Ilyosxonning hikoyasida mazkur bo'ldi. Ikkinchisi amir Buloji zikr qiling'on. Uchunchisi amir Shamsuddindur, aning zikri «Zafarnoma»da jangi Loyda zikr qiling'on edi, bu yerda naqd qilindi. To'rtinchisi amir Qamaruddindur, aning ham holi sharh, topg'usidur. Beshinchisi Sherdavlat edi. Aning asari qolmabdur. Amir To'lakdin keyin ulusning beklik mansabi amir Bulojiga qolib edi. Amir Buloji cho'ng birodarlarining orqasidin dorul-qarorg'a rihlat qildi. Va ulusning beklik mansabini amir Bulojining o'g'li Amir Xudoydod quddisa sirruhig'a topshirdilar. Va amir Kamaruddin xoHFa ta'zim bajo keltirib aytтики, bi-rodarimning mansabi manga loyik, bo'lgay. Va aning o'g'li yetti yoshdadur. Bu ishga loyik, emasdur, dedi. Tutluq, Temurxon albatta ul yorlig'idin yonmadi. Amir Xudoydod yetti yoshda edi, beklikka qaror topdi. Amir Qamaruddin mashhur kishi edi. Aning mashhurligi andok, erdiki, kiygan o'tukiga yetti yoshdagi bola sig'ar edi, bu ishga ziyoda malul bo'ldi. Ammo hech iloji bo'lmadi. Vaqteki xon vafot topdi, ul huruj qildi, ammo «Zafarnoma»ning takriridin shundoq, ma'lum bo'ladurki, Ilyos Xojaxon vafot bo'lg'ondin keyin hurujn qiling'on bo'lg'ay. Rivoyatlarning hilofi bila vaqteki o'zicha hukm qiladurg'on xon va sohibi qudratlar qolmadi. Amir Qamaruddinining ginasi tahi siynasida bor edi, // ani ihor kildi. Mo'g'uliylar tillarida shundoqdurki, o'n sakkiz

xonzodalarni bir kunda o'lturdi. Va xonlik, otini o'ziga itloq qildi. Mo'g'uliyalarga muhim ishlar to'la bo'ldi. Tug'luq Temurxondin bir o'g'ul sut emib yurgan mahalda qolib edi. Amir Xudoydod Mir Og'o otliq onasi birla ittifoqlashib pinhon qildi. Amir Qamaruddin aning talabida necha kishi yubordi. Har martabada bir nav'i birla pinxon qildilarki, amir Qamaruddinning josuslari topolmadilar. Amir Qamaruddin mo'g'ulda xonlik, ishig'a mashg'ul bo'ldi. Muxolifat jihatidin umarolar Kesh va Farxishg'a tushgan edi. Ul ahvolda Amir Temurning lashkarlari Mo'g'ulistonda bor erdi. Amir Qamaruddin ishlari xonlikka maqbul bo'lmay amir Xudoydod hazrati Xoja Xizrxonni Koshqar va Badaxshonning orasidagi tog'lar tarafiga yubordi. Shul yerlarda yurib, amir Qamaruddinning ofatidin xalos bo'lib, salomat qolg'ay deb. Bu ahvolning sharxi fot fursatda sharx, topur. Va amir Qamaruddinning ishi tugamakligi va aning axvolining zikrini avval zikr qilmoqlik, so'zning siyoqiga munosibroq ko'rindi⁶⁵.

Vakteki amir Qamaruddin podshohliq ishig'a sa'iygir ko'rguzdi va umarolardin har kishiki bor edi, ba qadri hol muxolifat sa'yini izhor qildi. Ushbu jihatdin Kufra va O'zbek Temur kiroit Amir Temurg'a ulandilar. Va yana Amir Temurg'a muxolifat zohir qildilar. Amir Temur lashkar tortib, o'z viloyati atrofidin tashqari chiqib, Amir Bahrom jaloyir va Xitoy bahodir va Shayx Ali bahodirni yubordi. To Olmotu rafta hududig'acha Oyshaxotun suyining labida kiroit xalqi birla jang ittifoqi // tushdi. Jangdin keyin sulh qilishib, yonishdilar. Vaqteki Amir Temurning oldig'a keldilar, bu sulhni qabul qilmay, o'zi ul tarafig'a azm qildi. Va ul voqeani «Zafarnoma»da shundoq kelturubdurki, vaqteki «Inna lloha yuhibbu maolil himami va yabgazu safihuho» deganning taqozosi bilaki, ya'ni tahqiq Xudoyi taolo do'st tutadur himmatlarning balandraqini va dushman tutodur ul himmatlarning pastini, degan bo'lur. Sohibqironning baland himmatlari har isheg'aki shuru' qilsalar, ul ishning nihoyatiga yetkurmaguncha rizo bo'lmas edilar. Umarolar ishini sahlilik

⁶⁵ Мирзо Муҳаммад Ҳайдар Аъзий. Тарихи Рашидий. Нашрга тайёрловчи, сўзбоши, табдил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифи т.ф.н. О.Жалилов. – Т.: О'zbekiston, 2011. – Б. 94.

birla tutub, jangi muoriza maydonig'a kelib edi, Sohibqiron bularni sulhg'a kelturdilar.

Vaqteki fathu zafarning alami Sayrom va Tanagirdin o'tib edi, Sohibqironning tavallo va iltijolarining yumni barakatidin muholiflar bir-birlaridin judo bo'lib qochdilar. Sohibqiron lashkari jarror bila to Sankiz yoroch mavzuiga yetib edilar, lashkarlar nusrat topib, to'la asirlar va adadsiz g'animatlar qo'lga tushdi. Hadsiz va adadsiz o'ljalari olib Parvadigori olamning // muhofazat pardasida shod va xurram yondilar. Va Uvunkuri degan yerda amir Muso va Zinda Chashmlar uchradi. Bovujudi Hazrati Sohibqiron ularning borasida necha marotaba lutf sobiqasi va mehribonlik lozimasini ato qilib edilar. Yana makru o'zr andishasini og'oz qildi. Xizr Basuriyning o'g'li Abu Ishoq ham ushbu bobda mashvarat kilishib, ahd bog'ladilar. Bir-birlari birla ond ichishdilarki, Qaroymon degan yerga yetib, Hazrati Sohibqironni shikorga chiqqan yerlarida hiyla birla tutg'oylar. Bovujudi aql ularga va ularning parishon andesha va xayollarig'a qo'ladur.

Va xonzoda Abul Maoniy Termiziy va Shayx Abu Lays Samarqandiyki muningdin ilgari Sohibqironig'a muholifat qilmoq bobida bir-biri birla ahd qilishib edilar, ularga ittifoq ko'rsatdilar. Kimarsaiki ul ma'nidin ogohliqi bor edi, surati holni arz qalami birla Sohibqironning dillariga bitudi. Hukmlarini joriy qilib, ularni harzir kilmoqliqa buyurdilar. Va hammani oldurub kelub, ta'zimu tavoze' birla turg'uzub so'z surdilar. Va ularning gumrohdig va badandishaliklari va makrlari sobit bo'ldi. Vaqteki mahdi ulyo Saroy Mulk xonim va amir Musoning akasining qizlari edi, pokliq va porsoliq pardasining masto'rasi Akabegini Amir Musog'a ahd qiling'on edi. Hazrati Sohibqiron anga aytdilar: «Har necha gunoh sendin izhor bo'libdur, lekin sening va bizning aromizda rishtaye bordur, ul jihatdin afvning qalamini tortdim va aning intiqomidin kechdim», - dedilar.

Va Xonzodag'a aytilarki Vaqteki nasabning silsilasi muttasildur, ahli bayti Rasul salovotullohi vasalomu alayhim ajmayig'a hech holda ravo ko'rmaymanki, bir osibning g'ubori sening etagishta qo'ng'ay va sen soddalikni tashlamading.

Maslahat uldurki, bu viloyatdin tashqari chikg'aysen deb, Shayx Abu Laysni siz haj qilib keling deb buyurdilar. Va Xizr Basuriyning o'g'li amir Sayfuddin xotining birodari edi, marhamat qilib tiladi. Ul bu balodin xalos bo'ldi. Andin yorlig' qildiki, Zinda Chashmni bog'lab Samarqandg'a olib borib zindonda saqlanglarki, tashqari chiqolmag'ay, dedi⁶⁶.

Barot oyining avvali, panjshanba kuni edi, tarixqa // yetti yuz yetmish oltida (1375 yil 5 yanvar) hazrati Sohibqiron lashkar jam qilib Jeta tarafig'a yuz kelturub Raboti Qatag'ong'a tushdilar. Havo nihoyati sovuq bo'lib qor, yomg'ir yog'a boshladi. Kishning qattiqliqi ul martabaga yettiki, puruz bahodirlar qiladurg'on ishlaridin qolub, qo'l olish-berish ishini qilaolmadi va na fut kelish-borishga qadam qo'yaolmadi va lashkarlar ulog'lari muhofazatidin ojiz bo'ldilarki, joni shirinlari xatar ustida qoldi va bu boisdin necha xalqlar o'ldi. Ba'zi chahorpoylardin ham o'ldi. Sohibqironning rahm-shafqatlari kelib ul yerdin yondilar. Va ikki oy muddatda Samarqandda to'xtadilar toki havoning sovuqligi past bo'lg'ay va yana dushanba kuni shavvolning ibtidosida, arab xalqlari hisobida tovushqon yili erdi, umarolar bilan lashkarlarni boshlab Jeta iborati Mo'g'ulistondindur (tarafiga yuzlandilar) va amirzoda Jahongirni mang'lay rasmi birla ilgari yurgizdilar. Va shayx Muhammad Suldo'z va Odilshoh va Bahrom Jaloyirning o'g'liki otasi vafot qilg'ondin keyin hazrati Sohibqiron Jaloyir xalqining beklikini anga topshirib edilar, bularni shahzodai zafarqarinning xizmatlariga ta'yin qildilar. Vaqteki Sayramdin o'tib Chorun mavze'iga yetib edilar, Jeta xalqidin birini hazrati Sohibqironning oldiga yubordilar. Vaqteki Qomarudding'a aning aymog'i dug'lat edi, aning hol-ahvolini so'radilar, xabar berdiki amir Qamaruddin o'z lashkarini yotib Ko'ktuba degan yerga borib Hojibekka muntazir turadur va sizlarning lashkar bila yuz kelturganlaridin xabari yo'q edi. Shul soat yorliq qildilarki, mang'lay // tavaq-qufsiz yurgaylar va o'zlari ham orqadin iztirob bila yurdilar. Vaqteki amir Qamaruddin Sohibqironning yetganlaridan xabar topib to'xtab

⁶⁶ Мирзо Муҳаммад Ҳайдар Аъзий. Тарихи Рашидий. Нашрга тайёрловчи, сўзбоши, табдил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифи т.ф.н. О.Жалилов. – Т.: Ўзбекистон, 2011. – Б. 95.

turolmadi. Hasang'aki ani Arshal atar edilar. Aning maydonining uch unguri bor
erdiki, bag'oyat chuqur. Amir Qamaruddin o'z sipohlari birla ikki o'ngurdan
o'tib, uchinchi o'ngurning o'zasiga tushib, yo'llarini mahkam qildi. Shahzoda
Jahongir lashkari aduvbandi kishvarkushoyg'a justuju qilib, aning o'zasiga
yurdilar. Naqora, karnay va dabdaba tantanasi gardung'a o'rladi. Bahodirlar
ilgari yurib, dushman muqobilasida tushdilar. Qamaruddinning sipohlari kecha
bo'lishi hamon hammasi qochmoqqa yuz qo'ydi. Chunonchi, subh vaqtida Jeta
lashkaridin hech kishi ul yerda qolmabdur. Fathoyin bahodirlar dilovarlik ko'rsatib
orqasidin tegib ul lashkarlardin to'lasini qatl qildilar. Vaqteki Sohibqiron boqiy
qolg'an lashkarlar birla ul lashkarlarga yetib, amir Sayid Dovud va Xusayn va
Uchqora bahodirlarni yog'iyning orqasidin yubordilar. Va ular farmonlarini tutub,
suv oqishig'a yurub va Xusayn shu suvda g'arb bo'lib, hayotliq shu'lasi o'chib
ketdi. Vaqteki ular yog'iyning xalqlariga yetib mol-ahvollarini va chahorpoylarini
bo'lib oldilar. Ba'zi xalqlariki el bo'lib edi, bularni ko'churub Samarqandg'a
yubordilar. Va Hazrati Sohibqiron muxoliflarga yetmaklikning qasdida Poytoq
degan yerga tushib, amirzoda Jahongirni bir muncha lashkar birla yubordilar, toki
Qamaruddinning talabida ani yo'q qilmodiqqa sa'y qilg'aylar va qo'llarig'a
tushirgaylar, shahzoda farmonlarini tutub lashkar bilan ravon bo'ldilar. Va
Jeta sipohlarini // g'orat qildilar. Va Qamaruddinni Ko'histonda topib
orqasidin yurdilar. O'z aymoqlaridin so'rub, tashqari chiqarib tamom manzilu
mavzularini chopib oldilar. Ul jumladin Amir Shamsuddinning xotuni Tuman
Og'a bila qizi Dilshod Og'oni tutub olib, shahzoda kishi yuborub bu so'zni
Hazrati Sohibqirong'a arz etdilar. Ul Hazrati Sohibqiron ul yerda ellik uch
kun tavakkuf qilib dilar. Vaqteki bu xushxabarni anglab, ul yerdin ko'chub
Qoraqasmoqning ustiga chiqdilar. Va amirzoda Jahongir yonib, ul yerda
Sohibqironning poybo'sliklarig'a musharraf bo'lib, to'la e'zozlab, banda va ot,
qo'y peshkashlik qildilar. Dilshod Og'oni Sohibqironning xizmati shariflariga
berdilar.

Bovujudi shahzodaning yoshlari kichik edi. Ammo Sohibqironning
iqbollari shavkatidin mundoq ulug' ish aning qo'lidin keldi. Hazrati Sohibqiron ul

yer dan ko'chib Otboshig'a tushdilar. Va ul yerdin Arfayozi sahrosig'a chiqib, necha kun ul yerda to'xtab, ishrat va komronliq qildilar, va Muborakshoh bakrit hazoralarning umarolaridin edi, tuy va peshkashlik rasmlarini ado qilib, nav'-nav' ishlar bilan xizmati shoista qildi.

Andin keyin ul yerdin ko'chub O'zgandg'a borib // ul yerga tushub edilar. Mahli ulyoyi Qutluq Turkan Og'o umaro va akobir va tobelar birla Samarqanddin istiqbollariga kelib, ostonbusluq qilib, tuhfa va nisorlar rasmini ado aylab, to'yu ishratga mashg'ulluq qildilar. Vaqteki O'zganddin yurub Xo'jandg'a yetdilar, Odilshoh Bahrom Jaloyirning o'g'li xizmatlariga kelib, Hazrati Sohibqironga to'y berdilar. Ammo ko'nglini o'zgacha qilib, xohdadiki to'y asnosida makrini paydo qilg'ay. Ammo Sohibqironni Haq taalo o'z muhofazat pardasi ichida saqlag'on erdi. Davlati ilhomiy birla ul majlisning avzo'u alomatlari asaridin ul pinhon makrni farosat birla bilib, ularni xubsi botinini topdilar. Darhol majlisdan qo'fib o'tlanib, Arduyg'a yonib tushdilar. Ul vaqtda Sohibqiron Qomaruddin tarafiga yuz kelturub edi, Shayx Muhammad Miyon Sulduz va Odilshoh Jaloyir va Turkin Arlotlar ahd qilishg'on edilarki, agar quvvat va mahal topsalar Sohibqironni tutg'oylar⁶⁷.

Nochor Sohibqiron saodati azaliy birla taxti saltanatlarining qarorgohig'a yonib tushdilar va lashkarlarga yonmog'liqg'a ruxsat berdilar. Zanjir Saroyki Qarshiga ikki manzillik yerdadur, ul yerda zimistonni o'tkardilar. Ushbu zimistonda Odilshoh dargohi oliylarig'a oston bo'sliqqa // keldi. «Fa'tarafu bi zanbihim» («Mana ular o'z gunohlarini e'tirof etdilar!» 67; 11) ning muvofaqati birla fosid xayol va andishai botinlar qilg'onini Sohibqirong'a o'z tili birla bayon qildi. Ammo Sohibqiron o'z ra'yi tadbirlari birla bu asrordin xabar topronlarini oshkora qilmadilar va Odilshohni podshohona iltifotlar birla sarafroz qildilar. Vaqteki zimiston oxiriga yetdi va baxoristong'a mubaddal bo'ldi. Yerlar qildilarki, atrofi jahondagi sipohlar jam' bo'lib Xorazmg'a azm qilg'aylar.

⁶⁷ Мирзо Муҳаммад Ҳайдар Аъзий. Тарихи Рашидий. Нашрга тайёрловчи, сўзбоши, табдил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифи т.ф.н. О.Жалилов. – Т.: О'zbekiston, 2011. – Б. 96.

Vaqteki umaro va akobirlar o'z lashkari birla atrof va javonibdin yig'ilib keldilar.

Hazrati Sohibqiron shayx Muhammad Sulduzni tutmokliqqa va aning makri badandeshalikini surmokliqqa farmon keldilar. Vaqteki tutdurub so'rg'ondin keyin aning gunohi oshkora bo'ldi. Va baxtining ro'zgori qorong'u bo'lib, umrining rishtasi uzilgali turdi. Shayx Muhammad Sulduz Hari Malik Suldo'zning birodarining tug'ishqoni erdi, ani shayx Muhammad Sulduz tig' birla o'ldirgan edi. Shul Hari Malik Sulduzning birodarig'a topshirdilar, to ani birodarining qasosi uchun o'lturdi.

Sarbug'o va Odilshoh va Bahrom Jaloyirning yoriy bo'lg'on vositasi birla Vaqteki bahor faslining avvalidaki jahon sabzavor o'lub, // borlarda sechaklarochilg'on edi. Hazrati Sohibqiron o'zlarining iqboloyin va tadbiri durbinlari birla Amir Oqbug'oni Samarqandning zabtiga yondirdilar. Va amir Sorbug'o va Odilshoh Jaloyir va Xitoy bahodir va Elchi Bug'oni va yana hazoralarning umarolarini o'ttiz ming otliq kishi birla Jeta tarafiga yubordilar va yorliq qildilarki, amir Qamaruddinni istamaklikda ziyoda sa'yu kushish qilg'aysizlar va ani har yerda topsanglar yo'q etgaysizlar.

Vaqteki Jayhun suyi labiga yetib, Sepoya degan mavzuga tushib erdilar, Turkon arlat o'z lashkari birla suv tarafidin Sohibqironning lashkari tarafiga yuz kelturub edi, umri muqaddari oxiriga yetgan ekan. Yana xato va andeshaliq qilib o'z yurtig'a qochdi. Sohibqiron Po'lodni bir guruh lashkar birla aning orqasidin yubordilar. Bular kechayu Qunduz Andxud degan yerdin o'tib, Qorbobsuyi degan yerda yettilar. Turkon va birodari Narmish o'z tobelari birla suvning labini olib jangga mashg'ul bo'ldilar. Vaqteki ular shikast topib parokanda bo'lib qochdilar. Va bular fath zafar topib ularning orqasidin yurdilar. Po'lod yolg'o'z Turkonga yetdi va Turkonning oti horib qolg'on edi. Otdin tushdi va Po'lodning otiga bir o'q otib edi Po'lod ham ilgari to'rub bir o'q anga xavola qilib edi, y qo'lohidin o'tib boshig'a hech asar qilmadi. Po'lod darhol bahodirluq yuzini anga kuyub bir-birlari birlan tutishdilar va Po'lod hazrati Sohibqironning iqbol davlatlari birla Turkonni yerga o'rub boshini kesdi.

Va Amon sarbadol aning birodari Narmishning qasdida yurub istab oxir ani ham topib ishini saranjom qildi.

Alqissa bir jamoa lashkarlarni umarolardin Jeta tarafig'a yuborib edilar, Sarbug'o va Odilshohlar viloyatni holi topib xato andishalarni qilib Xitoy bahodir va Elchi bug'oni tutdi. Va Hamidniki hazrati Sohibqiron Andijonda dorug'aliqqa quag'on edi, ularga muvofiq bo'ldi. Va ular o'z elida Jaloyir va Qipchoq edi yig'ib Samarqand tarafiga azimat qildilar. Shaharning hisorini qabob tushdilar. Va shahr xalqi o'q otib bularni shaharga yaqin kelgali ko'ymadi va amir Oqbug'o shaharga hokim edi, bu voqealarni Sohibqironning ostonalariga aytib yubordilar.

Lashkarlar Kot degan yerdin // o'tib Xos degan yerga yetib ediki, bu xabarni eshitib shul yerdin yonib amirzoda Jahongirni maotlay qilib ilgari yuritdilar. O'zlari lashkarlar birla orqadin yurdilar. Vaqteki Buxorog'a yetganlarida lashkarlarga tartib berib orasta aylab, Buxorodin ko'chub Raboti Malikga tushdilar. Shahzoda Karmana mavzuda dushmanlarga yetdilar va ikkala tarafdin saf bog'lab jangga turdilar. Amirzoda Jahongir fathu nusratga ulanib, muholiflarga g'olib bo'ldi. Ular qochib Qipchoq dashtiga yuzlandilar. Va Urusxonga pano eltib aning dargohiga mulozim bo'ldi. Hazrati Sohibqiron sariri saltanatda qaror olib tushib, Jaloyirning kent kesaklari umarolarga ulashtirib berib tafriqa va parokandalar qildilar. Va amirzoda Umar Shayxni Andijonning hokimligiga yubordilar va Odilshoh va Sarbug'o Urusxonning mulozimatida ro'zg'or kechirdilar. Va oxirul amr ularning fasod sharbatining irqi harakatga keldi va Vaqteki Urusxon yayloqqa borgan edi, qochishni qasd etib makkorliq birla xonning gumashtasi Ujibiy bila jang qildi. Ujibiyni o'lturib, ul yerdin qochib Jeta tarafiga yurub Qamaruddinning oldiga bordi. Ani fitnafasodg'a rag'bat qilib sa'ylar kurguzdi⁶⁸.

Vaqteki Sorbug'o va Odilshoh Qamarudding'a qo'shildi, har vaqt va har mahalda qadimqi gina // utiki aning vujudida bor erdi, fasod va gumrohlik yeli

⁶⁸ Мирзо Муҳаммад Ҳайдар Аъзий. Тарихи Рашидий. Нашрга тайёрловчи, сўзбоши, табдил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифи т.ф.н. О.Жалилов. – Т.: О'zbekiston, 2011. – Б. 98.

birla ulg'aytur erdi. Vaqteki Qamaruddin lashkar tortib Andijonda keldi va qozoqning hazoralari amirzoda Umar Shayxdin yuz uyirib Qamarudding'a ulandi. Va shahzoda tog'da qabolib Saman otliq bir kishini Sohibqironning oldiga yubordi. Va surati holni arza etdiki, yog'iy ziyoda g'olibliq bila yetdi va Andijonni zer-zabar qildi. Sohibqiron bu xabarni eshitmoqdin g'azablarining uti shu'la urub, darhol ul tarafga iztirob birla azm qildilar. Vaqteki Qamaruddin Sohibqironning yuz keltirganidin xabar topdi, bu yerda turolmay betavaqquf Otboshi mavzuidin ahli xonumonlarini o'tkazib, o'zi to'rt ming otliq kishi birla qamingohida orosta bo'lib bo'qib turdi. Vaqteki Sohibqiron ul mavzuga yetdilar, Qamaruddinning kamindorliqidin xabarlarini yo'q erdi, umarlarni tamomi lashkar birla orqadin yuritdilar. Va nomdor sipohlardin yetmish ming otliq hamma sardorlar bila, chunonchi amir Muayyid va Xitoy bahodir va Shayx Ali bahodir va Oqtemur qoldilar. Xitoy bahodir va Shayx Ali bahodir muholiflarga yetmakliqning bobida so'zini eshitdilar. Bahodirliq va paxdavonliq hikoyasi o'rtaqa tushdi, g'azabning o'ti o'glab ular ham dushmanlarning orqasidin chofdilar. Va o'zgalar ham muvofaqatlik ko'rsatdilar. Chunonchi Sohibqiron bila ikki yuzdin ziyoda qolmadi. Ushbu holatda Qamaruddin fursatni g'animat sanab, to'rt ming tig'guzor otliq kishi birla kamingohdin chopub chiqub, beparvo tig' tortib intiqomning yuzini Sohibqironga qo'ydi. Sohibqiron o'z xalqlariga taskini xotir berib muloyimat bila ko'ngil berdilarki, fathi zafar topmoq Maliqo'l Vahhobning atosidur, lashkaru asbobning tulalikidin emas, mardona bo'lmoq lozimki, agar andak sustluq qilsak ish qo'ldin ketadur.

Vaqteki hazrati Sohibqiron o'zlari dilovarlik ko'rsatib andoq sa'y qildiki, munga o'xshash ishlar Parvardigori olamning yormandligi bo'lmay, vuqu'g'a kelmas. Sipoh va nusratpanohlar ham mardonalik ishlatib, ozg'ina lashkar bilan to'rt ming tigguzor otliqlarni barham berib, shikayat berdi va parokanda qildilar.

Ammo Sohibqironning axvolu avzolaridin ajoyib ishlar va yaroyib asarlar zohir bo'lib, hammalari hayrat va tahsinlar qilur erdilar. Ul bo'zrukvorning vujudi shariflari Haq subhonahu va taaloning quvvat bermaklikining nurlari

birla mutarrah va musha'an bo'lg'ondur. Nechuk qudrat va zurki Sohibqironning a'zoyi savriyalaridin mundoq ishlar zuhurga keldi. Zamiri munirlari oyinasi safosidin Shayx Burhonuddin Qilich raxmatullohi alayhu va rizvonuhuning suratlarini ro'iyoyi solih tarikasi birlaki payg'ambarlik jo'zvining qirq olti jo'zvidin biridur, uyquda mushohada qildilarki, farzandi arjumandlari amirzoda Jahongirni Samarqandda kasal qo'yub kelib edilar, himmatning madadini iltimos qilib aytilarki: ey shayh o'g'limni Xudoyi taolodin tilagil. Shayx aydi, Xudo bila bul! Vasilai farzandlari zikrini etmadi, Vaqteki uyqudin bedor bo'ldilar, bildiki ul muddao ko'ngullari xohlagandek muvofiq bo'lmadi. Nihoyati xotiralarining nogironligidin Navqutlug' Hazrati Sohibqironning xos bitukchilari edi. Anga bir xat fututub iztirob birla Shangqo'ldin yubordilar. To xabarini tahqiqlab kelgay. Vaqteki ul Navqutluq yurub edi, yana farzandlari borasida tush ko'rub xotirlari ziyoda malul bo'lib, umaro va mulozimlarga aytilar gumon qilamenki, farzandimdin judo bo'lg'on bo'lg'aymen. Aning holini sizlar mandin yashurasizlar. Umaro va mulozimlar adabi tavoze birla kupub ont ichib aydilarki, bizning ul ishdin xabarimiz yo'q. Shahodaning holi nechuk ekan bilmaymiz — deyishdilar. Darhol u yerdan ko'chub, ravon bo'lib, yana Sakizyog'ochda Qamaruddinga yetdilar va jang qildilar. Yana shikast yeb qochdi.mir Uchqaro ularni surub g'azab birla ravon bo'ldiki, bir muncha yo'l yurub erdilar. Qamaruddin sakkiz navkari birla yonib arog'a olib otini o'qning zaxmi birla yiqitti, o'zi ham to'la zaxmlar yeb, oqibat piyoda jarohatnok amon topti. Va Po'lod bahodirning qo'li ul jangda o'qning zaxmi din jarohatnok bo'lib, kazodin ul ranj birla olamdin bordi⁶⁹.

Vaqteki Sohibqironning qadamlari shavkatidin mamlakatga shodu masrug'liq edi, ammo ul voqelai jongudozning jihatidin hammalarining holi yig'i zori birla parishonliq bo'ldi. Hazrati Sohibqironning ko'ngillari nihoyate g'amgin bo'ldi. Ammo raylari shung'a bordiki, har maxluqotning fano bo'lmoqligi vojibot qabilasidindur, deb yana sabru tahammul qildilar. Va

⁶⁹ Мирзо Муҳаммад Ҳайдар Аъзий. Тарихи Рашидий. Нашрга тайёрловчи, сўзбоши, табдил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифи т.ф.н. О.Жалилов. – Т.: О'zbekiston, 2011. – Б. 105.

shahzodaning ruhi futuhlari haqida to'g'lik-to'g'lik xayru ehronlar qolib, sinf-sinf sadaqalar mustahiqlarg'a yetkurub faqir va miskinlarga bisyor obu osh berdilar. Va jasadlarini Keshg'a yetkarib ul yerda dafn qildilar va qabrlari ustiga bag'oyat baland va dilkash imoratlar qildilar. Umlari muddati yigirma yoshga kirib edi, ulardin ikki o'g'il qoldi. Biri amirzoda Muhammad Sultonki, Xonzodadin, biri amirzoda Pirmuhammad Baxt Malik og'adin, (Baxt Malik Og'a Ilyos Basuriyning qizi edi), Shahzoda vafot bo'lgach, qirq kunda vujudga keldi. Amir Jahongirning vafotlari voqeasida tarixda yetti yuz yetmish yetti uy yilida (1375-1376) voqea bo'ldi. Amirzoda Sayfuddin bu hodisa voqea bo'lg'onidin ko'ngillari parishon bo'lib, Sohibqiron din ijozat olib, xonai Ka'ba tarafig'a yuzlandilar.

Umaro va akobirlar Sohibqironning taxti saltanatlarining oyoqlarida hozir bo'lib, e'zozu iqoom birla ta'zimlar bajo kelturub davlatxohliq tili birla arz ettilarki, Haq subhonahu va taolo bu jahonni ofarida qilib aning nizomini podshohlarning vujudig'a vobasta qilibdur. Va bani odamning amnu amonlikini adli va siyosatiga pobasta qilibdur. Agarchi, Parvardigorning rizovu xushnudlikini istasang, hech vasila dodgustar va raiyyaparvarlikdin ubdonroq emasdur. Aning uchunki, behatarini har dusaro hazrati Muhammad Mustafo solla llohu alayhi vasallam bir soat ahl birla so'rmoqni oltmish yilliq beriyo ibodatga tarjih va ziyoda qilibdurlar. Vaqteki bularning so'zlari nihoyati ihlos va davlatxohliq edi, maqbulluq birla angladilar, ximmat yuzi birlan lashkar yig'moqliqqa yorliq qildilar. Ushbu vaqtda xabar yetdiki, Odilshoh Jaloyir // nechand odamlar birla Qarojiq tog'larida sargashta bo'lib yurubdur deb. Sohibqiron Odilshoh Xo'jako'ngildosh va Elchi Bug'oni un besh otliq birla istamaklikka yubordilar. Bular Samarqanddin kecha bilan yurub O'trorg'a yetib, Odilshohni izlamakka mashg'ul bo'lib, tofib Oqsamun mavzuida yasoqqa yetko'zdilar. Va u yer din Dashti Qipchoq tarafig'a ehtiyot ko'rguzdi. Alqissa, Sarburo futini rohi rostdin yo'tkab egro bosib yog'iy bo'lib qochg'on edi. Ikki yildan keyin aqlning hidoyati birla Sohibqironning dargohlariga kelib edi. Podshohga marhamatlar qilib, gunohlarini afv qilib o'z qavmining bekligini

berdilar. Andin amirzoda Umar Shayxga Oqbug'o va Xitoy bahodir va yana umarolar bila amr qildilarki, Qamaruddinining qasdida ravon bo'lgaylar. Va ani yo'lub, ko'zgap Jeta tomon sa'yi ehtimomlar qilib qudratining yetishicha ul bobda say' ko'rsatgaylar. Bular farmonlarini tutub iztirob birla ravon bo'lub, Qarotu degan yerning ayog'ida Qamaruddinga yetdilar. Ul yerda jang qilib, hammalari tafriqa bo'lib, Qamaruddin qochdi. Lashkari mansur aning xalq va ellarini g'orat qilib bisyor mol, g'animatlar olib yondilar.

Vaqteki sipohlar to'la g'animatlarni olib, Jeta tarafiga yonib tushdilar, Sohibqiron ham shul yilda digar bora ul tarafga azm ettilar. Amir Musoning o'g'li Muhammadbek Sohibqironning kuyov o'g'lonlari edi, ani amir Abbos va Oktemur bahodirni ilgari yuritdilar. Ular farmonbardorlik qilib kechayu Qunduz yurub Issiqqo'lda Qamaruddinga yetdilar. Va Muhammadbek mardona jang qilib kelgan xalqlarni toroju asir qilib oldilar. Sohibqiron o'zlari to Qo'chqor mavzeyigacha surub yetmadilar va shul mavzu eshittiki To'xtamish o'g'lon O'rusxondin andisha qilib, o'zlarining dargohi olampanohlariga kelgudeq deb. Hazrati Sohibqiron amir Tuman O'zbekni istiqbollariga bormoqqa buyurdilarki, to ani e'zozu iqoom birla olib kelgaysizlar, deb va o'zlari Yumg'ol yo'lidin yonib, O'zgandga tushdilar va ul yerdin yurub davlati iqbol bila Samarqandga tushdilar. Va amir Tuman Temur To'xtamish o'g'lonni kelturdi. Va aning umaro va arqoni davlatlarini hazrati Sohibqironga yetkurdilar. Sohibqiron qadam kelturganini azizu mukarram tutub podshohga iltifotlar qilib, aning izzatu va xurmatida hech daqiqani rioya qilmay ko'ymadilar. Va tuy rasmini barpo qilg'ondin keyin onchunon mol-oltun va javohiru libos va kamaru saloh va mato, ot, teva chodir, naqora va alam, mundin o'zga sipohgarchilikning ulug' asboblariyin anga va aning tobelariga in'om qildilar.

III Bob. “Tarixi Rashidiy” asari ikkinchi daftari tahlili

3.1. Shayboniylar to’g’risida yozma ma’lumotlar

Shohibekxon itoat do’stlug’ini sarkashlikning dabdabasi birla taqobul qilib, muxolifatning tablini oshkoro so’qdi. Bu holning orasida xonning bejur’atligidin Sulton Ahmad Tanbal degan Mirzo Umar Shayxning hizmatkorlaridin edi, agarchi aning asli mo’g’ul umarolaridin bo’lsamu. Andijon mulkiga fitnaboshi shul bo’ldi. Hamma tarafdagi podshohlarning saltanatiga muholifatning o’qini otti, ani daf’ qilmoq uchun ikkala xon bordilar. Toshkandga Sulton Mahmudxonning o’g’li Sulton Muhammad sultonni lashkari jarror birla xiylagar dushmanlarning barobarida qo’yib edi, mening dodamni ham Shohibekxonning barobarida O’ratepada quyib edi, tasavvur qildiki bu ikki lashkarning orasidin o’tmagay, vaholanki, ul bul vaqtni vanimat sanadi. Men hargiz bu ikki xonni mundoq oz lashkar birla topolmasman deb Samarqanddin o’z lashkari birla Farg’onaga yurub kelib, O’ratepaning boshiga yetti. Bu xalq gumon qildiki bizni qabamoq uchun keldi bo’lgay, deb o’z ishiga mashqul bo’ldilar. Ular namozi digar vaqtida shaharga yaqin kelib tushti. // Andin keyin kun o’ltirub kech bo’ldi. Tonglasi shahar xalqi gumon qildilarki bular kayon kettilar ekin, keyin bildilarki Farg’onaga ketibdur. Bir-bir arqa kishi yubordilarki, ularning kelmakidin xonga xabar bergay. Andin keyin xabarga borgan kishilarning har ikkalasi yetib keldi, Toshkand va O’ratepaning lashkariga harakat qilguncha fursat qolmadi. Bu xonlarga o’n besh ming kishi hamroh bor erdi. Sabab ul erdiki avvalki yilida Tanbalning tufasiga borib, ularga barham beriblarda quvvat va shavkat qolmab edi. Tahqiq bildilarki, qarorni o’z ixtiyori birla qo’yub Bobur podshohga hamroh qilib berib erdiki, qarordin keyin podshohni otasining taxtiga ulturg’uzub yong’ay. Va xonlar xano’z Andijonga yetmab edi, ul mahkam qal’alarning bir pastroq qal’asini Tanbalning birodari Shayx Boyazid mazdsam qilib oxir itoatning so’zini aytib edi. Ushbu jihatdin ul qal’aga yaqin borib to’xtab to’rdilar. Shohibekxon o’ttiz ming kishi birla yetib keldi. Kuchum sulton va Suyinchik sulton va Jonibek sulton qotorlik

necha kishi ikkala tarafdin saf orasta qilib jangga kirdilar. Vaqteki muholiflarning lashkari to'la uchun xonlarga shikastlik yetib edi⁷⁰.

Xonlarning otlari qordin qolib har ikkalasi tuxtab turdilar. Va Boburshoh Farg'onaning janub tarafidagi to'g'qa ketti. Shohibekxon o'ziga tamanno qilib Toshkandni tasarruf qilib xonlarga minnat qildi. Sizlarning madad va yori bermakinglar birla kelib g'olib bo'lib sizlarni va yurtunglarni oldim. Sizlarni o'lturmay qo'ydim, deb xonlarni dorug'alarga to'tturdi. Amaldorlardin // hokim bo'lg'onlarga qattiq azoblar qilmoq lozim edi, bu asnoda Xoja Karim al Nafsning rahmi kelub dorug'alarning qo'llaridin xalos qilib, o'z uyiga olib bordi. Bularga nav'i-nav'i iltifot ko'rsatib anchaki karimlikni ularning jonlariga qo'yub, xalos qilib oldilar. Alqissa bu xabarni Sulton Mahmud anglab ancha ahli ayollardin va mo'g'ullardin bor edi, Mo'g'ulistonra olib yurdi. Xonlarning giriftor vaqtida Shohbekxon aytiki bu nisbat birla bo'lmas, munga yana uch nisbat lozim, deb kichik hamshirasi Sulton Davlat xonimni, Yunusxonning farzandlarining qatoriga zikr qilinib edi, ani o'g'li Temur sultonga aqli nikoh qilib berdilar. Qolg'on ikki qizining birini Jonibek sultonga berdilar yana birini, o'ziga nisbat qilg'on Oyisha sulton xonim edi, ular Mo'g'ul xonim laqab birla mashhuradur, yana biri Jonibek sulton Qutluq xonimni oldilar. Bu zamonigacha ularning farzandlari bordurki, Movarounnahrda podshohlikga mashg'ul bo'ldilar. Vaqteki xonlar Mo'g'uliston shahiga yettilar, xon o'zlari kichik edilar, kasal oriz bo'lib olami foniyydin olami boqiyga rihlat qildilar. Bu voqeada tarixqa to'qqiz yuz to'qqiz unchi yilining (1503-1504) oxirida edi.

Ularning bobolari Shayxul islomdir, ularga yoru madadkordir. Ular o'z vaqtlarida to'la ulug' kishi erdi. Nav'i fazilatlar birla orasta edi. Eshitib erdimki, kasal kunlarida xoli vaqtda arz qildimki: Shohibekxon sizlarning taomlaringa bir narsa qo'shib bergan bo'lgay. Aytdi: - ori, Shohibekxon mang'o zaxar beribdur. Bu zahar qaysi martabaga yetkuzur ekin, // bizlar birodarchilikdan xalos bo'ldiki bu ikki maraz mizojga g'olib keldi. Agar bu

⁷⁰ Мирзо Муҳаммад Ҳайдар Аъзий. Тарихи Рашидий. Нашрга тайёрловчи, сўзбоши, табдил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифи т.ф.н. О.Жалилов. – Т.: О'zbekiston, 2011. – Б. 225.

zaxardin taryoq «bo'lsa edi, foyda qulur erdi, - dedi. Sulton Ahmadxonning o'n sakkiz o'g'li bor erdi. Hammadin cho'ngi Mansurxondur. Tarixga to'qqizi yuz to'qqizunchi yilidin boshlab to'qqiz yuz yetmish yilgacha – (1503-1563) otalarining o'rniga podshoh, bo'ldilar. Aning vogasiga taalluq topadurg'on so'zlar mazkur bo'ldi.

Ikkinchisi Iskandar sultondur, andaq zamondin keyin vafot bo'ldi. Uchunchisi Sulton Saidxondur. Xudo xohlasa bundin keyin zikr qilinur. To'rtunchisi Babojoq sulton, o'z vaqtining ulug'idur. Mansurxonning hizmatida bo'ldi. Beshinchisi Shoh ayx Muhammad sultondur, bir marotaba yer tebraganda bolajasi bilan tom bosib o'ldi. Oltinchisi Eshon Sulton Xalil Sultondur ularning ba'zisi axvoloti Sulton Saidxonning zikrida mazkur bo'ldi. Yettinchi o'g'li Emin Xoja sulton, ularning ba'zi axvoloti Sulton Saidxonning zikrlarida mazkur bo'ldi. Sakkizinchisi Chin Temur sultondur, necha muddat Manyaxonning hizmatida bo'lib, oxirlarida Sulton Saidxonning hizmatiga keldi. Bularni Mansurxon chorlab yana hizmatlariga qochib Hindistonga bordilar. Bobur podshohning hizmatlariga qancha tuxfalar birla peshkash qildilar. Podshoh, beg'araz izzat-hurmatlar qilib rioyalar qildi. Oxir Chin Temur ishol kasali bo'lib, shuning birlan vafot bo'ldi.

To'qqizinchisi Temur sultondur, bular o'zidek birodar - bu ikkisining orasida tanglik bo'lib, Qayroq tarafiga ketib u yerdin kazoqqa bordilar. Andin Buxoroga Ubaydullaxonning hizmatiga borib, u yerdin qochib Boburshoxning hizmatiga u boobruy boizzat birla Hindistonda bo'ldilar. Uchunchisi To'hta Bug'o sultondur, bular ham Hindistonda vafot bo'ldilar. golgan sakkiz o'g'li har qaysilari kichiklikda vafot bo'lib erdi. Va to'rt qizlari bor ekan, avvalgisi La'lshod xonim, onasi Ummu Valaddur. Bularni Amir Jabborberdining o'g'li Muhammad Emin mirzoga nisbat qilib berdilarki, dug'lot xalqlaridindur. Ularning sardori Olachaxon ulusbegi erdi. Ularga taalluqi bor. Ikkinchi qizlari Mohim xonim, bularni Uyak Sultonning o'g'li Bobuyalashxonga berib edilar. Uchunchi qizini bu kaminaga nisbat qilib berib edilar. To'rtinchi qizlari Xadicha sulton xonimdur. Sulton Ahmadxon

o'lgandin keyin Mirzo Abobakr. aning qissasi Sulton Saidxonning zikrlarida mazkur bo'lur. Ular Olachaxonning poytaxti Oqsuga keldilar. Bularni ubdon to'tti. O'z o'g'li Jahongir mirzoga berdi. Ular o'lgandin keyin Sulton Mahmudxonning nabirasi Shoh Muhammad sultonga berdi. Bularning axvolotlarini zikr qilinur, inshoolloh⁷¹.

Vaqteki Olachaxon olamdin bordi, Sulton Mahmudxon Olachaxonning tobe xalqlarini to sarhadi Xitoy, Koshqar va Turfon va Cholish va Kucho va Oqsu va Uchgacha birodarining farzandlariga topshurub berdi, o'ziga tobe xalqlar birla Mo'g'ulistonga borib, besh yil anda bo'ldi. Hech muhimi tamomig'a yetmadi. Ul arozzillariki besh kunluk xonning davlatxohlikini keyinga solib xonning dimog'iga parishonliq yetkazdi. Shohbekxon ularga ayttilarki, sizlarni rioya qilsa nihoyati hur agar rioya qilmasa, bir gushaga borib gushanishinlik qilursizlar. Ammim tag'ammadallohu birufronihi aytibdurlarki, bir kuni Oqsuda Sulton Mahmudxonning oldida Olachaxonning vafotidin keyin bir kishi, men hozir edim, manga iltifot qilib aytdilarki, Oqsuning podshohliqidin Toshkandning lungisi afzalmu, deb. Man aytdim: — Ore, afzaldur. Bu so'zdin xon bag'oyat ranjida bo'ldi. Hosili kalom arozzillar xonni Fargonag'a olib keldi. Vaqteki bu xabar Shohibekxong'a yetti. Shu Rudkonda o'langzordan bor edi, shul zamon yiborib edi aning kishisi kirib keldi va xon o'zi, besh norasida farzandlari birla Xo'jandda muloqat bo'ldi. Bularning bolalari birla Xo'jand daryosining labida shahodat topg'onining zikrini, ularning axvollarining zikrini mundin keyin bayon qilinur. Sulton Mahmudxonning besh farzandlari o'zi birla shahodat toptilar. Cho'ng o'g'li Sulton Muhammad sulton, vaqteki xon Mo'g'uliston shaxridin Shohibekxonning rioya umidi birla borib edilar, Sulton Muhammad sulton onchunon otalarini man' qildilar, otalari unamadi, o'zi ayrilib Mo'g'ulistonda qoldi. Ularg'a ham voqe bo'lg'an ishlarni asli tarixda zikr qilinur, inshoolloh. Oxirul amr Mo'g'ulistonda turg'oli bo'lmay, nochor Dashti Qipchokq tarafidagi Burunduq va Qosimxonning oldig'a ravon bo'ldilar, ushbu umid birlaki

⁷¹ Мирзо Муҳаммад Ҳайдар Аъзий. Тарихи Рашидий. Нашрга тайёрловчи, сўзбоши, табдил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифи т.ф.н. О.Жалилов. – Т.: Ўзбекистон, 2011. – Б. 227.

Shohibekxon // Sulton Mahmudxonni rioya qilur. Ular yo'lini g'alat qilib Toshkandga yetib qoldilar va o'zbek ularni otalarig'a yetkurdilar. Ulardin bir o'g'ul qoldi. Oti Shomuhammad sultondur. Ularning ahvollarini xonning tazkiralarning zimnida bayon qilinur.

Vaqteki xonlar Shohibekxonning ko'liga giriftor bo'ldi, otam O'ratepada qoldi. Shohibekxon orada kelib edi, otamning xonlar birla ko'rishmakligi mushqul bo'lib, nochor Qorateginga keldilar. Shul zamonada Qunduz, Badaxshonda Xusravshoh degan. Abu Saidxonning o'g'li Mirzo Sulton Mahmudning xalqlarining biri edi. Mirzo Sulton Mahmud o'lgandin keyin o'g'li Sulton Mas'ud mirzoni ko'ngli to'rti. Vaqteki Sulton Mahmud mirzoning o'g'li Boysung'ur Mirzo Samarqandin qochib edi, orqasidin Xusravshoh kishi yuborib, pushaymon va nadomat bulg'onini izhor qilib, arzadosht to'ttiki, anchaki voqea bo'lib edi, o'z ko'rkunchidin bo'lib edi. Zeroki Sulton Mahmud mirzo uladurg'on xalqning qatorida edi. Holo ul bandaning muloqot bo'lmoqligi birla aning davlatining rivoji ancha zuxurga keldiki. qabih va yomon ishlar bu sabab birla ubdonliqqa mubaddal bo'ldi. Shundoq vasvasa fireb berdiki, Boysung'ur mirzo ham firefta bo'ldi. Ul Mirzoy Fozilni ro'zg'orining o'qi birla dorulfanodin dorulbaqoga rihlat qildilar. Sulton Mahmudning tamomi viloyatlarini o'zining tahti tasarrufiga kirgizdi. Anchaki ulug'likda g'urur kettiki, kamoliyatda hech kishi barobarlik qilolmadi.

Otam Qorateginga ketti, Xusravshoh // kurishaman deganida Hisorga kirdilar. Ular Chinor bog' degan yerga oldilariga keldi, onchunon lufu marhamat qilib aytiki, bu sizning qadami sharif kelturganingiz haq taoloning inoyatidur, zeroki Shohibekxon bizning tufamizga yo'lib bo'lg'on vaqtidur. Zohiri ushbuki Shohibekxonning bu tarafdin xotirlari diljam' bo'lib qoldi. Mundin ilgari bizlar o'zbek xalqi birlan jangu jadal qilgan emas, ularning kibru firebini bilmaymizki nimadur. Har qavmning bir tarzi bor jang qilmoqda va tark qilmoqda, aning uchunki har qavmning istilohi va avzoyi bo'lakdur. Har ishni o'z vaqtida boqib qiladur. Har qavmning hol axvoloti osonliq birla bilgali bo'lmaydur. Aning uchunki sizlarning oranglarda jang voqeasi va sulh o'tgan va zafaru

qo'rqunchlar ham bo'lg'on. Holo har narsa bilaki salohni bilsanglar bizga tayin qilinglar, biz shunga amal qilamiz. Bizning ahli avlodimizni izhor qilmoqlik sizlarning quvvatlaringizlar birla zohr bo'ladur. Buni Sulton Ahmad mirzoning qizi Sultonbegim, bizning podshohzodamizdur, ularga qo'ysunlar, ishimizni qabul qilgaylar. Ikki tarafning e'timodini izhor rimokni loyiq ko'rgaylar. Muningdin xushvaqtliq va farahlik yuzlag'ay va bu nisbatni har nima baloki gungrav vaqtida sig'durub ubdonliq birla qaror topib qoladur. Toshkand va O'ratepaning vayronu harob bo'lmoqini to'laroki saraton vaqtida va mezonning vaqtida bo'lur. Bu ahvolning orasida Shohibekxonning chopg'on xabari Xusravshohning jamiyatiga anglanib tafriqa bo'lib // har biri o'z uyiga yo'llandi. Uyi yuqlar tog' tarafiga qochishdilar. Kishi-kishidin xabar topmadi. Vaqtiki Xusravshohning xalqiga parishonliq yetib edi, mening domu-Qorateginga qochib borib anda qaror oldi. Qorateginning kishi andoqi hamisha qor yog'ib to'radur. Dodam borgan mahalda andoq qor yog'diki, uyida va har yerda ultirganlar, yana bo'lak yerga chiqishga majol bo'lmadi. Shohobekxon Xusravshohi tutub olol biz bilan barobarlik qilomdur yo qololmamdur, deb imtihonga turdi. Kelgan vaqtda onchunon a'roz qildiki, har narsani o'lja tushib edi, olib qochdi, bildiki yana keladur. Yig'ilg'on chibinni quyrug'ong'a o'xshash bu qish Xurosonlikdi ham imtihon qilmoqni xohladi. Ushbu olg'on o'lja mol bilan Balx tarafiga ketti, ul holda Sulton Qo'lunchoq Balxning hokimi edi. Sulton Husayn mirzoning Badi o'z zamonning o'lturganidin keyin hokim bo'lub edi. Qabog'ali buyurdi. Ushbu qish qaboq birla o'tti. har qancha Xuroson lashkar xalqi lashkar yig'ib tufasiga kelib Balxni xalos qilolmadi. Ushbu Xusravshoh Xuroson xalqni onchunon imtihon kildiki, hech qaysisi teng kelolmaydur. Ammo Vaqteki Shohibekxon Balxni qabog'ali mashg'ul bo'ldi, Xusravshoxga ziyoda taarro'z kilmadi. Xalqini ham qilib, birla keldi. Paydarpay Shohibekxon Balxga elchi yubordi. Ushbu vaqt maslahatni bildiki so'z yuborgay ul ham, soz birla mol yubordi. Vaqteki Xusravshohga ushbu kish andaq hotirjam dast berdi. Qorategindin xabar toptiki, qor to'la yog'ib hech qish harakat qilolmadi, deb. O'zining bir tuqqoni

Mirvalini yigirma ming kishi birla yubordi. Bularning xotiri ul tarafdin emin bo'ldi. Yiroq-yaqinda ulturug'luq xalq lashkarning xabarini angladi, darhol besh yuz kishi jam bo'lib yo'lni to'sdi. Qor ul tarikaliq erdiki yo'ldan chiqishning ehtimoli yo'q erdi. Ikkala tarafdin piyoda bo'lib, jangga mashg'ul bo'ldilar. Subh vaqtidin to shomgachalik jang bo'ldi. Oxirul amr bu xalqlarga otg'oli o'q qolmadi, aning uchunki otg'on o'qlari qorg'a chumib ketdi. Dushman to'la edi, navbat birla kelib jang qildi. Har qavmning o'qi tugasa, yana bir qavm kelib jang qilardilar. Bu tarafdagi qavmning o'qi tugab, qo'rqib qochdilar va mening otamning umarolaridin nechand ko'ngullik xushroyilar o'q birla kettilar. Dodam olti kishi birla Farg'ona tog'iga kettiki, kun chiqish tarafida Koshqar va Andijonning orasida, shu tog'lar orasida, chiraq nom odamlar bor edi. Chorпой hayvonotlar ham to'la edi. Bu tarixdin keyin Mirzo Abobaqo andak zamonda ularni tuxtatib edi, ammo Xusravshoh ularning hizmatidagilarni Qunduzga chiqordilar. Bir yil umrini bu tarifa birla shunda o'tkazdi. Vaqteki Shohibekxonning axvolotidin so'z bu yerga yettiki, muhtasar qilsoq so'zni anglag'oni bo'lmas edi⁷².

Vaqtiki haq subhonahu va taolo bir kishini podshohliq toji birla sarafroz qilmoqni iroda qilsa, avvalan bularga bir sababeni muhayyo qilib, ondin keyin qilur. Hosili kalom ushbu tariqada surat bo'lurkim har yerdagi korzor eranlardin va jahondor oqillardin // bir-biri birla muloqot bo'lsalar, shul yerda o'z arolarida muhojifat paydo bo'lur. Oqibat bayyinlarni va so'z onglaydurg'onlarni saqov qilur. Xudoyi taaloning horsozliqi ulki, otasining taxtida ulturushqa bir tukqonni bir tuqqooga hasm qilib, dushman qiladur. Maqsud bu muqaddimadin ulki, Shohibekxon Shoh Budoq Sultonning o'g'lidur, buning otasi Abulxayrxondur. Abulxayrxon o'lgandin keyin Shohibekxon birla Shoh Budoq Sultonning orasida dushman bo'lmoqliq boqiy qolib ediki, har kishi bir tarafga tushub ketib ubdon aslzodalar va sultonzodalar va amirzodalar ushbu vajxdin odamilarning orasida tafriqa bo'lib ketdilar. Bu hikoyatning ijmol

⁷² Мирзо Муҳаммад Ҳайдар Аъзий. Тарихи Рашидий. Нашрга тайёрловчи, сўзбоши, табдил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифи т.ф.н. О.Жалилов. – Т.: О'zbekiston, 2011. – Б. 228-230.

tariqasi o'ldurki, Shohibekxon tafriqa va avvora bulg'onidin pin to'la bechoralik tortib, nochor Movarounnahrğa keldi. Shu tarzda Sulton Abu Sa'id mirzoning o'g'li Sulton Ahmad mirzo Movarounnahrğa podshoh, erdi. O'zlari to'la ulug' davlatmand kishi Bu jihatidin har tariqaliq podshoh, va beklar bu podshohning hizmatlariga rog'ib erdi. Bu jumladin Amir Abdulali tarhon Buxoroi sharifga podshoh erdi. Shohibekxon ularning hizmatlariga borganda ani mulozimlari qatorida qilib erdi. Mundin bo'lak podshohlar ham aning hizmatini ixtiyor qilib erdi. Sulton Ahmad mirzoning nihoyat ulug'ligini shu yerdan qiyos qilgali bo'lur, toki mirzo hayot erdi Shohibekxon Amir Abdulali tarxonning mulozimlarining qatorida to'rdi. Mirzo Abdulali ham qolg'on xalqlar birlar ularning oldiga kelib edilar. Ondin keyin Shohibekxon Turkistonga borib, Sulton Mahmudga ulashdi.

Xon onchaki // ko'mak bo'lib, yoriy beradurg'onlarni darig' tutmadi. To bu yerga yettiki, xonning madadu imdodi birla Shohibekxon Buxoro va Samarqandni oldi. Aning lashkari ellik ming, balki oltmish mingga yetib edi. Ul vaqtdaki, Turkistonga yetib edi, Sulton Mahmudxonning madadi birla kundan kunga quvvati ziyoda, Abulxayrxonning xalqlaridin umaro va salotinning ubdonlari Dashti Qipchoq sahrosida xayron va sargardon bo'lib yurganlar, bularga qo'shilib na yerga borsalar shu yerga bordilar. Shoh Buxoro va Samarqandni zabt qilg'ondin o'zining o'rnida bir kishini murabbiy qildi. Vaqteki bu xabar Olachaxonga etib edi, birodarlariga madad bermoq uchun Mo'g'ulistondin keldilar. Muning zikri yuqori mazkur bo'lib ediki, xonni tutub qo'yub edilar, anchaki mo'g'ul xalqidin bor edi, xondin yonib uch mingga yaqin mo'g'ullar o'zbek lashkariga borib qo'shildi.

Toshkanddin yonib, Samarqandda turmay, Balx shahrini qabog'oni mazkur bo'lib edi. Vaqteki zimiston bo'lib edi, tarixga to'qqiz yuz to'qqiz edi, Balxni qabab shunda yotti. Bahor vaqti bo'lib edi, Samarqandga keldi. Samarqandda bir-ikki oy yurub, ondin Andijon tarafiga borishga ixtiyor qildi. Ul yiliki xonlarni tutub edi, Tanbal Andijonga qaramadi, aning uchunki Toshkandni olmoqni muhim bildi. Bovujudi shuning birla Shayx Boyazid Toshkandni fath

qilishning oldida betavakkuf oldiga chiqib edi, nihoyati davlat shoxluq zuriga keldi. Tanbal tarafidin ham anchaki maslahat bor edi, // ularga ko'rsattiki, ushbu yil bular Toshkanddin yondi. Vaqteki Toshkand va mo'g'ul tarafidin xotirjam bo'lib, hisorliq va xurosonliklarni istadi, ularga aytтики, avvalan Tanbal va Andijondin forig' bo'ladi, ondin Xusravshoxning shahoi Hisorga boraliki Xurosonni olmoqni muqaddimasi ushbu bo'lgay. Vaqteki Marg'ilon Farg'ona shaharlarining mu'tabar shahar edi, anda borib Tanbal shu yerda turib, Farg'onaning qal'alarini qo'yib, Andijonni obod qildilar. Vaqteki podshohga xabar yettiki, Shohibekxon o'z xalqlari birla maslahat qildiki, podshoh batamom jamiyatlarini bir yerda qilibdur, emdi bizlarga ish oson bo'libdur. Bu so'zdin filhol podshoh, sur'at birla bu tarafga yuzlandi, va qaror berdilarki, ular o'z qal'alariga sulanur. Shohibekxon o'zi bir joyra sulanur va yana Andijon atrofidagi salotin va umarolarni chopib olib shaharni buzub odamlarni tutub olib yondilarki, yana bir yilga kelimiz deb borib edi, ajal anga qo'ymay yaqosini tutti. Shundoqki Andijon qal'asidin chiqib xalqlarini sanab edi, o'n mingdin to'la chiqdi. Vaqteki Shohibekxon yetti, lashkarning to'laligidin ko'ziga to'fa tulab yondi, to qal'aga yetguncha tig' zaxmi birla to'la yarador bo'ldi. Tanbal o'z birodari birla shikast topib, Shahari Haridanda qaror topdiki, bu yil aning viloyati harob bo'ldi, deb yondilar. Toki yana bir yilda muhimi oson bo'lur, deb darhol o'zini yuqori oldi. Bir yilga qaror bergan kuni qirq kunga to'xtatti. Vaqteki Shohibekxon ko'rdiki nechand kishi jon vaxmidin qurqub qo'rg'ong'a sulanibdur, o'zi ishini mahkam to'tib shaharga sulamoqni qaviy bildi. Otam Qarotegindin shikast topib kelib jirak birla bo'ldi. Hammadin ajabroq o'lki, Shohibekxonning kelishining xabarini anglab turib aning kelishiga iloj qilmadi. Buning daf'i uchun otam jirak qoshiga bordi, jirak birla ittifoq qildiki, To'ruqshoron degan o'ng ko'rga mahkam bo'lib, edilar. Tanbal kelib uch kungacha qattiq jang qildi, otamdin surab edim, aytтики uch kungacha yuz xiyla birla o'zumni saqlab kech bo'lg'onda onchunon fiqo qildimki, agar tongla jang bo'lsa bizning holimiz nechuk bo'lur ekin. Aning uchunki ul kunlarda kishining o'liktirigi birla kishining ishi yo'q. Vaqteki tong

otti hayrat yuzlandi, yuqoridin qaraladimki aning lashkari favj-favj sur'at birla yarar jabduq birla utub boradur. Buni ko'rib manga to'la xushluq yuzlandi. Filhol bir kishini xabar olg'ali yubordim. So'z bu yerga yettiki Shohibekxon Kandibodomga boribdur, bu vajhdin oldirab ketgan ekan, ushbu xabarni anglab manga yangi jon paydo bo'ldi. Darhol Shohibekxonning oldiga kishi yubordimki, bu yerda zamonaning bevafoqlikidin onchunon sargashta bo'lib edim, bu kelgan xabaringizni anglab yangi jon topdim, har tariqada yorliq bo'lsa, fotroq yuboring. Ul kishi ikkinchi kuni Andijonga yetti, darhol ruhsat oldi. Hosili kalom sen tezroq borgil, dodamni ko'rmaklikdin bo'lak orzum yo'q, deb yo'lga soldi. Vaqteki holo boradurg'on yerining tayini yo'q, agarchi borsakmu sizning maslahatingiz birla borurmiz. Vaqteki xonni ko'rub edim manga podshohona iltifotlar qildi, batamomi shoh va umarolarga xukm qildiki, Muhammad Husayn Ko'ragon bizning mehmonimiz, hammanglar // mehmondorliq qilinglar deb hammalari mehmon qildilar. Qirq birinchi kuni Tanbal boz burjining tufasiga chiqib faryod qildiki, ey umarolar v-yey xodimlar, cho'ng kichik kelinglarki, nima deysizlar, manga xukm bo'ldiki, Tanbal otamning ko'kaldoshi edi, aningdin manga to'la noma'qulu nopisand ishlar yetib ozor bo'lib, xotirim beroyat g'amgin bo'lib edi, holo ish qo'ldin ketti, bechoraliq yetti. Ul vaqt Temur sulton hozir bo'lib, hamma birodarlarimiz sarosimaga keldi, meni qo'choqlab, yana ishga fursat bermay, bir soatda hammani tig' birla o'lturub, qal'aning darvozalarini mahkam etib, g'orot qilib taroj qilmag'on hoch kishi qolmadi. Ul viloyatlarni Jonibek sultonga berib yondi. Otam o'zi Shohbekxon birla hamroh Samarqandom borib, lashkar asbobini tayyor qilib Xusravshoh bekning tufasiga ravon bo'ldilar. Vaqteki shaharga yetib edilar, Xusravshohning tarbiyatkardasi Shiram chehra degan Hisorning qal'asini saqlar edi. Shohibekxon o'zi kelib Hisorni qamadi. Necha kun o'tib ediki, Shiram chehra amon tilab tushdi. Qal'ani anga berdi va xon o'z ahli birla shaharni Shiram chehraga berdi. Shiram chehra xonning qoshida juvrulur erdi. Basoyir unnos deb o'z vatani asliysi bor edi, anga loyiq bo'ldi. Ma'lum bo'lmadiki nima bo'ldi, ammo xon o'zi muhosaraga mashg'ul bo'ldi. Shul kuni Mahmud sultonga

buyrudiki, har kishi lashkar birla yururman desa, o'zi birla hamroh qilib Qunduzga yuzlansun. Xusravshoh qal'ani Qunduzni muddatlar o'tub erdikim, nav'-nav' zahira va hazinalardin pur qilibdur, deb g'ulg'ula olamga tushubdurki // yigirma yil asbob muhayyo qildim, agar hamma yo'ldin qolsammu, yigirma yil shaharning ichida umr o'tkazurman, to yigirma yilgacha hamma xalq ushbu ishga mashg'ul ediki Shohibekxon Hisorni qabobdur va yana Sulton Mahmud Amuya daryosidan o'tibdur deb xabari kelishi hamom shu soat bu asboblarni qo'yib chiqib ketdi. Va asboblarga barham berib. tog' tarafig'a qochib ketdi, ondin uch kundan keyin Mahmud Sulton Qunduzga keldi. Bu kamina sohibi kitob va birodarlarim birla va hamshiralarim birla qunduzga edim, yuqori kitobda futulib ediki, Sultonbegimni otamga nisbat qilib, ubdon asboblari birla tuyni muhayyo qilib, aning din ai bo'lgan ishlarmu mazkur bo'lib edi, va meni Qunduzda qo'yib edi. Shu kunlariki Qunduzda erdim, bu Sultonbegimdin farzand to'g'uldi, otini Abdulloh qo'ydi. Va aning ahvolini bo'lak qilinur. Otam Mahmud sulton birla hamroh edi, ular orasida oshnoliq va robita qancha ziyodaroq bor edi, sabab uledikim, ul holda Shohibekxon hamma ishida rioya qilur erdi. Podshoqliq ishida anga qo'yib bermas edi, qilgon ahliga turmasin. Hargohki fursat topsa, o'zrini indamakka taksir qilmas edi. Agar ul umaroning murodida bo'lsa edi, faxuval murod bo'lmasa, deb yuz uzrlar aytur erdi va bahona kilotti. Bu necha marotaba aning orasida Sulton Mahmudning orasida o'tti. Ajabroq ulki, gar martabayeki bu amrda voqea bo'lsa, o'zrisi surati o'zr birla aytur erdi, qabul qilar erdi. Buning sharhi o'zoqqa tortadur. Tarixda sharh tapodur. // Ul jumladin biri ushbo'qi ayni do'stluq va davlatxohlikda Turkistonda Sulton Mahmud Tanbal boshiga lashkar tortib edi. Vaqteki uch kun yo'l yurdilar maslahati nosavob chunki asl tarixda mazkurdur, Sulton Mahmudxonning rayiadi. Har kishiki umarolardin ushbu sarhadda lashkar birla kam bo'lib erdilar, yonib sarhadga tushti⁷³.

⁷³ Мирзо Муҳаммад Ҳайдар Аъзий. Тарихи Рашидий. Нашрга тайёрловчи, сўзбоши, табдил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифи т.ф.н. О.Жалилов. – Т.: Ўзбекистон, 2011. – Б. 231.

Xulosa qilib aytganda xonning lashkarlarini va otlang'oni Turkistonda Shohibekxonga yetti, darhol tamaning quvvatini jiddu jahdning o'zang'usiga qo'ydi, otlandi. O'zi Toshkandga chopib ketti. Mahmud sultonni, Sayromning boshidagi, ilgari kitoblarga bitilib ekan erdi, yo'lda xabar toptiki, xon yonubdur. Darhol kishi yubordiki, eshitar erdim, xonning fidoiylari davlatning jilovini bu bandai osiyning boshiga mehribon qilib berib edilar. Toshkandni saqlamoq uchun va ahli ayoli uchun kelur erdim. Harchandki aning hayrida hech muholifat bo'lmasamu, vaqteki xonning tushadurg'on xabarini angladim va yondim. Yonib Turkistonga bordi. Ildom xabar olg'uchini Mahmud sultonning :orqasidin yubordiki hech yerga mutariz bo'lmasun, yonsun deb va yondi. Ushbu xabar kelishdin ilgari Sayrom holidir deb fikr qilib Sayromni chopti. Sayrom hokimi Amir Ahmad edi. Itorchining podshohlaridin Tanbalning amaki edi, ammo birodarzodasi mahobadning xilofida ulug' hizmatlar Sulton Mahmudning gardanida bor erdi. Mahmud sulton chiqishdin ilgari oldig'a chiqdi, shikast berib Mahmud sultonni olib muqayyad bo'ldi. Va mo'g'ulni xonning dargohiga // olib keldilar. Otamga kishi yubordiki otam bu holni o'ziga olib borib aning xunini tiladi. Ulug' iltifotlar birla anga ruhsat berib erdi. Maqsud bu jihatdin Mahmud sultonning arosida otamning oshnoligi bor uchun Mahmud sulton birla hamroh Qunduzga kelib, meni o'ziga qo'shib edi, uy, boqiy ahli ayolni Shahorisabzda Shohibekxonning kishilariga berib Balxdin yong'onining bu yeri to bu zamosg'acha mazkur bo'lib erdi. Bahor vaqti edi, zimistonning avvalida Xorazmga bormoq bois bo'ldi. Otam Xurosonga qochib ketti. Bu mahalda Bobur podshohning holi va Sulton Saidxonning holi agar taqriri kitobatga kelsamu, so'zning xavosini bir-biriga borlamoqdin yonib qoladur.

3.2. Zahridin Muhammad Bobur tarixining yoritilishi

Qadimda Chig'atoyning va mo'g'ulning orasida adovati bor erdi. Bovujudi ushbu ish birla Amir Temurning zamonidin to Sulton Abu Sa'id mirzoning zamongacha bir kishi Chig'atoyxon ibn Chingizxonning avlodidin podshohliq taxtida o'ltirmadilar. Podshohliq otini anga atab maxbus qilg'on erdi. Chunonchi bularning tafriqa bo'lg'onlaridin ma'lum bo'ladur. Vaqteki podshohliq davri Sulton Abu Sa'id mirzoga yetib edi, bu rasm qoidani tashladilar. Va kishi yubordilarkim, Yunusxonni Sherozdin kelturub Mo'g'ulistonda birodari Esan Bug'oxonning barobariga yubordilar. Xonning Sherozga borgani Esan Bug'oxonning xon bo'lg'oni va Sulton Abu Sa'idning podshoh, bo'lg'oni bu muhtasar kitobga sig'maydur. Hosili kalom Sulton Abu Sa'id mirzo Yunusxonga aytti: - Qadmda sizlarning da'vonglar bo'lak nav' edi, bu zamonda ul muddaoni xotiringiz kanorasiga yo'l bermang, ya'niki podshohliq yorliki bu tabaqaning otida bo'lsun, endi do'stlikding oti o'troda bo'lsun. Va oshnoliq tariqasi rishta bo'lsun dedi. Vaqteki Yunusxon Mo'g'ulistonga keldi, o'ttiz yil mashaqat tortg'ondin keyin Esan Bug'oxonga g'olib keldi. Muning sharhimu Sulton Saidxonning holining orasidagi Mirzo Abobakrning zikri mazkur bo'lib erdi, bayon qilinur. Mundin keyin Yunusxonning xotiri filjumla farog'at topti. Ayytiki, nassi qadimda boqmoqliq birla podshohi Olim ul-g'uyub jalla va azzamahu aytibdurki «Va iza xuyyitum bi tahtiyyatin fa hayyuu bi ahsani minhaa av rudduuhaa» («Qachon sizlarga biron ibora bilan salom berilsa, sizlar undan chiroyliroq qilib alik olinglar yoki (hech bo'lmasa) o'sha iborani qaytaringlar». 4; 86.). Sulton Abu Sa'id Mirzoning dushmani qadimligi yangi do'stlikga mubaddal bo'ldi. Bizlar necha yaxshiliq birla bu narsalarni qilolmaymiz. Magar ulki ul dushmanlikni do'stlikga mubaddal qilib, biz do'stlikni to'qqonchiliqqa mubaddal qilsak - deb. Mirzo Sulton Said uch o'g'li va uch qizi bor erdi, otlari Sulton Ahmad mirzo va Sulton Mahmud mirzo va Umar Shayx mirzo, qizlari Mehr Nigor xonim va Sulton Nigor xonim va Qutluq, Nigor xonimdurlar, berildilar.

Vaqteki Umar Shayx mirzoning podshohliki Farg'onada edi, Mo'g'ulistonga yaqin, bu jihatdin bu uch mirzodin Mirzo Umar Shayxga kengrulik va oshnolik, tularoq, edi. // Chunonchi Yunusxonning farzandlaridin imtiyoz topmas erdi. Har vaqteki xohlasalar bir-birlarining shahriga kelishur erdi, oncha hozir bo'lsalar ziyoda takalluf qilmas erdilar. Vaqteki Bobur podshoh, to'g'uldi aning bashorati uchun xon oldiga kishi yibordilar. Xon Mo'g'ulistondin keldi. Muddatlar anda bo'ldi. Podshohning boshini tushurmakka har qaysilari tebrashdilar. Vaqteki Yunusxonning Umarshayx birla oshnochiliki bor erdi, hech podshohqa muyassar bo'lmadi. Fil jumla podshoh muharram oyining oltisi tarixqa sakkiz yuz sakson sakkizida to'g'uldi. Mavloni Munir Marg'iloniy Ulug'bekning ulamoyi muttahirlaridin biri erdi, «shashumi muharram» deb tarix topti. Hazrati Eshon qaddasa llohu sirrahudin ot qo'ymoqni suradilar. – Zahriddin Muhammad deb ot qo'yinglar, – dedilar. Shul zamonda Chig'atoy begi to'la ulug' edi. Bularning tilida Zahiriddin Muhammad dushvorlik, birla joriy bo'ldi. Bobur deb ot qo'yidilar. Bobur podshoh deb mashhur bo'ldi⁷⁴.

Aning nisbati Umar Shayx Ko'ragoy ibn Sulton Abu Sayd Ko'ragoy ibn Sulton Muhammad Mirzo ibn Mironshoh Mirzo ibn Amir Temur Ko'ragondur. Onasi tarafidin Qutluq Nigor xonim binti Yunusxon ibn Uvaysxon ibn Sheralixon ibn Muhammadxon ibn Xizr Xojaxon ibn Tug'luk, Temurxondur. Bobur podshoh andoq podshoh erdiki, nav'-nav' fazllar birla orasta, shijoatda g'olib erdi. Va she'ri turkiyda Amir Alisher raxmatulloh alayhidin keyin hech kishi andoq she'r aytolmabdur. Aytg'on kitobi bor, turkiy. Benihoyat xo'b. «Mubayyin» deb ot qo'yubdur. // Fikxda risolaning intihosi birla ifoda beribdur va makbuli xaloyik, arzi turkiy birla aytilibdur. Hazrati Eshonning «Risolayi volidiya»larini manzum qilibdurlar. «Vaq'oyi'» nom deb turkiy tarix qilinibdur. Iborati xushfahmga yaqindur. Va ilmi musiqiyda aningdin o'zga va muningdin ilgari aning qabilasidek kishi o'tmabdur. Ul g'aroyib voqealarda inkor beribdurki, aning afrodidin kishiga ro'

⁷⁴ Мирзо Муҳаммад Ҳайдар Аъзий. Тарихи Рашидий. Нашрга тайёрловчи, сўзбоши, табдил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифи т.ф.н. О.Жалилов. – Т.: O'zbekiston, 2011. – Б. 239.

bermabdur. Un ikki yoshida otasi Mirzo Umar Shayxdin keyin qoldi. «Tarixi vaqoyi'»ki aning tarixidur, anga tartib berilib san'atga keltirilubdur. Harchand turkiydur, ammo tayammunan avvaliga keltiriladur. Ramazon oyining to'rti, dushanba kuni, Mirzo Umar Shayx o'ttiz to'qqiz yoshida olami fanoga parvoz qildi. Sakkiz yuz to'qson to'qqizunchi (1493-1494) yili otasidan keyin qolib, un ikki yoshida podshohliq (taxtiga) o'lturg'uzdilar. Vaqteki Boysunrur mirzo va Sulton Ali Mirzoning arosin, bular Sulton Mahmud, Sulton Said mirzoning o'g'lidur, muolifat tushdi ul tariqadakim, har ikkalasining Samarqand shaharini to'tquvchiligi qolmadi. Vaqteki bu xabar Andijonga yetti, podshoh, Samarqandga bormoqa qasd qildi. Bovujudiki bu mirzolar ojiz ib qolib edi, to'la sa'ylar qildi. Oxirul amr Boysung'ur mirzo toqat keltirolmay shaharni qo'yub, Hisor tarafiga ketti. Xusravshoxning qo'lida o'ldi. Bu so'z yuqori mazkur bo'lib erdi. Podshoh, Samarqandni oldi, Andijon lashkarini anda tuxtatti. Qolg'ali ijozat birla Andijonga yondi. Tanbalning zikriki mazkur bo'ldi, podshohning kichik birodari Jahongir mirzoni // podshoh hamma umarolarning ittifoqi birla podshohliqqa o'ltirgizdi va Andijonning qozisi bag'oyat porso va parhozkor kishi erdi, podshohliq ishida podshohga yaxshi sa'ylarni berib arz qilib edi, ani begunoh o'lturdi. Qozini shahid qilishidin ilgari ozroq zamonda Andijon shaharni podshoh, davlatxohlari mahkam qilib edi. Mubolag'a birla podshohga arzadosh yubordiki agar fotroq bizning faryodimizga yetmasangiz, Andijonning ishi vayrona bo'lmoqqa yaqindur, Samarqandning ishimu bo'zulub ketadur. Vaqteki Samarqandga podshoh, qoshira arzadosh yetti ersa, Samarqandni qo'yub Andijonga yuz kelturdi. Xo'jandga yetib keldiki, xabar qeldiki bular o'z muhimlarini qolibdurlar. Podshoh bu yerdan yondi, shu yerda hayratda qoldi. Tog'asi Sulton Mahmudxonga iltijo keldi. Podshohning onasi va onasining onasiki Davlat begimdur o'g'lining oldiga va hamshirasining oldiga bandai mening onam keldilar. Ul munosabat birlaki, podshoh, bizning viloyatimizda edi, onchaki mumkin bor erdi, mehmonni azizga rioya qilmoqni qo'shish qildilar. Va podshoh, yana bir marotaba mashaqati tamom birla to'la zafar va shikast topub, ondin

Samarqandni tasarruf qildi. Samarqandni saqlamoq uchun Samarqandning muddaiylari birla jang qildilar. Goh shikast, gohi zafar topur edilar, oxirul amr Samarqandga sulandilar. Toqatlari tang bo'ldi, o'zlarining hamshiralari Xonzodabegimni anga berib edilar, bu so'z yuqori mazkur bo'ldi, sulh birla kirib Samarqandga yana Shohibekxon qaror topti⁷⁵.

Bu mujmal so'zning tafeili harchand // uzoqroqdur. Biljumla podshoh, yana o'z tog'asi qoshiga keldi. Xotirini Samarqandning muhami din ko'tardi. Andijonga sa'y qilmoqni pesha qildi. Xonlar ham ozroq jiddu jahlini otasining mehr-shafqatini o'rtaq solib Andijonni podshohga olib bermakni sa'y ettilar. Yuqoori zikr kilindiki, janglarda xonlar Shohibekxonning qo'lga tushdilar, podshoh, o'zini Farg'ona viloyatining tog'lari tarafiga oldi. Bisyor mashaqqatlar torttilar. Shunung birla bularning onasi hamroh erdi. Podshohning to'la mulozimlari, hamma ahlu ayollari, birla edilar. Ul safardaki «as-Safaru qit'atun min as-saqar» (Safar duzahdan bir parcha) lafzidur bor, guharnisor imomi ahyor va muftadoyi abror amir ul-muminin Ali qarramallohu vajhahu aytilar - agar Payg'ambari Xudo mundoq buyurmasalar erdi, man aytur erdim «as-Saqar qit'atun min as-safar» (Duzah safardan bir parcha) debdurlar. Bu hadis bu safarga mushtamil erdi. Kuliy va juzviy jafo va jafokori bu charxi kajraftor va falaki g'abdordin ancha mumkin bor edi, gina go'zorlikni har diyorning azizlarining horlikida va bee'tibor qilmoqda erdi. Hammani bu falaki gabdor bu yo'lda podshohlarga nisor qilur erdi. Nav'-nav' uqubatlar birla va tanglik birla Xusravshoxning dog'ul mulki Hisor shahariga yettilar. Aning odamiyatchiligini ko'z tuttilarkim, odamiyatlik birla mashhur erdi, falak yuz o'rdi, odamiyatchilikning yuzini evrudi. Bemuruvvatlikning orqasini aning yuziga qildilar. Ammo bu miqdor qildiki, ziyoda taarruz kilmadi, bu vaxm-qo'rqunchluq birla G'o'ri va Baqlon tarafiga o'ttilar. Vaqteki ul xududga yettilarkim. quvvati firorni tashlab necha kun bu yerda turdilar.

⁷⁵ Мирзо Муҳаммад Ҳайдар Аъзий. Тарихи Рашидий. Нашрга тайёрловчи, сўзбоши, табдил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифи т.ф.н. О.Жалилов. – Т.: Ўзбекистон, 2011. – Б. 240.

Agarchi bu yerda turmoqdiq mushqo'l ko'rinsamu ammo Hazrati hakimi Mutlaq jalla jalolahuning bu intizorda lutfi bor erdiki yiroqni ko'radurg'on ahli maslaxatning ko'zi ko'rmas erdi. Bu hol orasida Shohibekxonning Hisorg'a keladurg'on kavkabasi va Mahmud Sultonning ilg'orining dabdabasi Qunduzga xabari keldi. Xusravshoxning g'urug'ining zamzamasi sarnigun bo'ldi. Ul sharx anki yuqori mazkur bo'lib erdi. Bilmay ul ham Go'ri tarafig'a zorib toqg'a yaqin yetib ediki, podshohning G'o'rida turg'onining xabari yetti. Xalqning tiliga joriy bo'ldiki, shul kecha tamom xadam va hashamlari birlan ulug'-kichik hammasi podshohning dargohdariga keldilar. Xusravshoh muloyamatdin bo'lak hoch ishga qaroloyolmadi va chora topolmadi. Bovujudiki podshohning amakzodasi Sulton Mas'ud mirzo yorug' olamni aning ko'zira qorong'u qildi va birodari Boysung'ur mirzoni taxtga ulturg'uzub edi, taxtai tobutra tortti. Ul vaqtdai podshoh, bu holda aning oldiga borib edi, bemuruvvatlik qilib quvlab chiqordi. Bovujudi shuning birla Mirzoxonki, mirzolar kichik birodari edi, aning ota- onasi podshohning ota-onasi bir to'qqon erdi. So'z arodaki Kohistonga kirib ketib edi podshoxlar birla edi. Vaqteki Xusravshoh podshohning bargoxining ishiga yetib edi. Mirzoxon arz qildiki, birodarlarimning qasosig'a Xusravshoxni buyursangiz, man qasos qilsam. Podshohning zotida uvvat sifati bor erdi.

Mirzoxonga lutf qilib buyurdiki, xayf, // ming xayf malakayni kiroman kotibayni devu shayotin taqobul kilamsizar. Chandon bu muruvvatdin podshoh, karamni iltimos qilib ketiki, Mirzoxon rozi bo'ldi, hech nima demadi. Xusravshoh podshoh va Mirzoxonni ancha qoida rasmi birla tuttiki, e'zozu ikrom birla ko'rdi, har laxza xijolat teri birla g'arb bo'lib ketur erdi. Va podshoh, ham ani afv qilur edi. Vaqteki majlis oxiriga yetdikim, xukm qildilarki, olib boradurg'on xalqlar uylar va hazinalarni va otxona va aning o'zgalarini qandoq aning oldiga solib edilar, shul tariqada olib boringlar, bovujudi ulki muruvvatning riqobida podshohning manosibida bir ot bor erdi, animu ham bularning volidasiga mindurdilar. Boqiy harojotni munga qiyos kilmoq lozim, aning molidin hech narsani oldirmadilar. Magar ulki yangi

kelganida bovujudi ulki aning tasarrufida hech narsa yo'q edi, peshkashlar arz qilib yuborub edi. Bu ham podshohning berganidin ming-mingdin biri va to'ladin andaki edi. Xurasan ruhsat tilab, ayrilib ketti. Ajabroki ulki ushbu to'la jamiyat birlan o'z yurtini saqlay olmabdur va Xurosondin ozroq kumak tilab Qunduzga keldi. Sahulat birla har necha ozroq yursamu har oyini oqibati hammaning mahdumi bo'ldi. Ammo podshoh, bir kechada yigirma ming kishiga ega bo'ldi. Va yaxshi umarolar pur asbob Boqi Chaganiyondek va Sulton Ahmad qarovuldek Bog'i tillofurush va buning g'ayridin podshohga mutasaddi bo'ldilarkim, Kobulga qasd qildilar. Kobulda podshohning amakidin keyin Ulug'bek Mirzo Kobuliy bor erdi.

Mo'qim ibn Zunnun Arrunki, Sulton Xusayn Mirzoning avlodidin biri erdi, Kobulga mutasaddi edi, podshohning mujarradi davlati yetgan hamon ul rubaru keldi. Ziyoda jang o'tmay, ul shikast topti, qal'aning ichiga sulandi. Oxiri toqat keltirolmay omon tilab qal'ani podshohga berdi. Podshoh, o'z ahliga vafo qilib, jami' asbobi taalluqoti birla salomat Kandahorga ruhsat berdi. Tarixga to'qqiz yuz to'qqiz edi, to to'qqiz yuz qirq sakkizgacha Kobul podshohning qo'lida, tobelari birla anda qaror topdilar. So'z bu yerga yettikim, Sulton Saidxonning voqealari va otamning hikoyatlari va aning Xurosodaga borg'oni va voqealariki podshohning holiga mundin keyin bo'ladur, mavkuf turubdur. Bu muhtasarning to'larog'i xonning ulug' manqabatlarini futumakka mazkurdur. Bas aning avvalki ahvoli ijmol tariqasi birlan oxirgi aholini tafeili tariqasi birla bayon qilinur⁷⁶.

Vaqteki podshoh Bobur Xurosong'a bordi, to zimistonning nisfig'acha Kobul jamiyatda erdi. Bobur podshoh Xurosonda uzoq turdi. Har nav' ishlar paydo bo'ldi va yo'llarga qaroqchilar paydo bo'lub borlandi. Yuqori Yunusxonning farzandlarining zikrida sharh qilinib erdiki, Yunusxonning besh qizi va ikki o'g'li bor erdi. Ammo uch qizining biri Mehr Nigor xonim // Kobulda edi va Shoxbegim Samarqanddin kelib erdi. Va yana Kutluq Nigor

⁷⁶ Мирзо Муҳаммад Ҳайдар Аъзий. Тарихи Рашидий. Нашрга тайёрловчи, сўзбоши, табдил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифи т.ф.н. О.Жалилов. – Т.: О'zbekiston, 2011. – Б. 242.

xonim Bobur podshoh, onasidurki Shoxbegim va Mehr Nigor xonim va otam kelishlarining oldida vafot bo'lib erdi. Bu uch qiz Yunusxonga Davlat begimdin erdi. O'g'illari Sulton Mahmudxon va Sulton Ahmadxon va Sulton Nigor xonim Sulton Mahmudning haramlaridur. Sulton Mahmud Sulton Abu Sa'idning o'g'lidur. Mirzoxonning onasi Davlat Sulton xonim Shohibekxonning o'g'li Temur Sultonning haramlaridur. Bularning zikri ilgari utti.

Bular to'rtovlan Shoxbegimdin erdi. G'araz uldurki, Shoxbegim Bobur podshohga bu kaminag'a modari kalon sababidur, Mirzoxonning tuqgan onasi erdi. Ul Vaqteki podshoh, xonlarning shikastidin Hisorning Kuhiston tarafiga bordilar. Mirzoxon ul Kuhistonda podshohga qo'shuldi. To oxiri vaqtgacha hamroh erdi. Podshoh, shafkat va inoyat yuzidin farzand atadilar. Aning uchunki, bularning otasi podshohning ota-onasi birla bir yerda to'gulg'on erdiki, bayonini qilinib erdi. Istitoatlarining kamligidin va ul safarda podshohning mulozimatlardin qolib erdi, va Shoxbegimning mulozimatlarda turib erdi. Vaqteki har nav' xabarlar zimistonning ichida Podshohdin va Xurosonning mirzolaridin barobar kaytishdi. Onalikning mehri Shoxbegimdin shu'la ura boshladi. Andoq iroda qildilarki, vaqteki podshoh, Xurosonda mirzolarining qo'lga tushsa, Sulton Xusayn mirzo va Sulton Abu Sa'id mirzoning avlodlaridagi adovatning // jihatidin xunrezliq bulg'ondur. Podshoh, ularning dastidin qutulmay mumkin emas. Vaqti uldurki, Mirzoxonni podshohring o'rnida podshoh, qilraymiz, deb bu maslahatni otamga oraga soldilar. Otam bu maslahatni qabul qilmadi. Va bu jadal xaddan utti. Ozor va bezorlikka yetishdi. Shohbegimga yetgan ozor Mirzoxong'a ozor etmakka ham sabab bo'ldi.

Bu ish otamga mushqo'l ko'rindi. Vaqteki ish bu yerga yetti otam hayol qildiki mening man' qilmog'imni bovar qilmaydur. Boriy bu ishga egadorliq qilmag'onim behroq, dedi. Podshohning umarolari har kuni Kobulning qal'asidin chiqib, otamning mulozimatig'a kelur erdi. Bu rasm birla umarolar otamning oldiga keldilar.

Otam pinhon umarolarga aytgaki, minba'd mening qoshimga kelmaklikinglar xo'b emas, dedilar. Vaqteki umarolar qal'aga kirdi, otam Obi

Boron degan yerga bordi. Ul yer Kobuldin bir kunlik yuldur va o'zini bu ishdin tashkari oldi. Va Shoxbegim va jami' digarki mo'g'uldin erdilar, Mirzoxonning otota xutba o'qidilar. Kobulning qal'asini olmoq munozaatga yetti. Orada jang-jadal ko'p bo'ldi. Va Shoxbegim otamga to'la iltijo qilib kishi yubordi va chorladi. Otam nochor keldi. Yigirma to'rt kun Kobulning qal'asini qamadi. Bu asnoda podshoh, yetib keldiki, bayon qilinur⁷⁷.

Vaqteki podshoh, Jahongir Mirzoning orqasidin bordi. Hazora degan yerning tog'larida muloqot bo'ldi va kengash kildilar. Maslahat ul yerda qaror topdiki, Xurosong'a borg'on behroqdur. Shoyadki bularning quvvati birla yana Shohibekxonga taqobulluq qilg'ali bo'lur, deb bu vajh birla Xurosong'a yuz kelturdilar. Vaqteki yetib bordi, Xurosonning xalqi bu ikki birodarni bag'oyat xush ko'rdilar va mirzolar ham bularning kelganlariga nihoyati xush bo'ldi. Ammo Xurosonning mirzolarini orasida ittifoq bulmoqning surati yo'q. Bularning beittifoqligi birla hech ish futmaydur. Bovujudi Jahongir mirzo xaddin ziyoda sharob ichganidin ishol xuni tabi harorat oriz bo'ldi. Ammo xalqning orzida shuhoat bo'ldiki, Xadichabegim odati qadim birla sharobqa zahar qo'shib beribdur, deb. Bu boisdin ijizat tilab Kobulga ravon bo'ldilar. Hazoraning Kuhistonida xabar topdilarki, Mirzoxon va Muhammad Husayn Mirzo Kobulni qabob turibdur deb. Ancha og'ir-yengil yuklarini Mirzo Jahongirga topshirdi. Bir muncha lashkar birla chikdilar. Hinduqush degan davonda to'la qor yoqgan ekan, ziyoda mashaqat birla utub lashkarni tez yurdirib Kobulga yuz kelturdi. Saharg'a yaqin Kobulga yettilar. Kobul xalqini tanglikka solib erdi, har tarafga qochdilar. Kobulning ichidagi xaloyiq tashqari chiqdilar. Haloyikni toroj qildi. Podshoh, sohibi muruvvat erdi, g'oyat xushluq birla cho'ng onalarining oldiga qirdilarki, bulardin mehr-muhabbatlari ko'tarilib nabiralarini bularning o'rnida podshohdliqqa ulturro'zub erdi. Shohbegim iztirob va xijolat birla bilmadilarki na tariqaliq javob bergay. Ul holda Podshoh, muhabbati tamom birla muloqot bo'ldi. Va aytтики, kishining volidasi bir farzandaga shafqat qilsa, yana bir

⁷⁷ Мирзо Муҳаммад Ҳайдар Аъзий. Тарихи Рашидий. Нашрга тайёрловчи, сўзбоши, табдил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифи т.ф.н. О.Жалилов. – Т.: О'zbekiston, 2011. – Б. 24

farzandiga nechuk haddu yoro bo'lg'ayki ranj va malolliq tortgay. Va aytilarki, kecha uyqusiz erdim, deb boshlarini Shoxbeginning quchog'iga kuyub uyqo'ladilar. Bu ishlari // Shoxbeginning xotirlariga taskin bermoq uchun erdi. Hano'z uyquga bormab erdilarki, podshoxning xolalari Mehr Nigor xonim keldi. Podshoh, kubdilar. Mehr-muhabbat yuzidin xolalari birla ko'rishdilar. Xonim aytilarki, farzandu ahl ayollari nihoyati mushtoqdurlar. Alhamdu lilloh biz diydori muboraklariga musharraf bulduk qubg'il, ahli ayollarning oldiga qal'aga borg'il, biz ham borali dedi. Ul vaqt qal'ara bordi. Umarolar va hamma xalq Xudoy taologa shuqoguzorliq qildi, hamma Podshohning ayoqig'a ko'zlarini so'rdi. Xonimning orqasidin Mirzoxonni otam bila birla olib bordi. Yaqin yetganda podshoh, xonimning oldig'a chiqdi. Xonim aytiki, ey joni modar, gunohkor nabirangizni, noloyiq ishlar qilg'on birodaringizni olib keldilar. Nima xukm kilasiz, dedi. Vaqteki podshoh, otamg'a nazar soldi. Ilgarikidin ziyodarak tavoze'u mehribonliq birla shod bo'lib qo'choqlashdilar. Ziyoda so'rab va istab Mirzoxon birla ham ko'rishdilar. Va yaxshi majlis kildilar. Harchandki, podshoh, muruvvat yuzidin insoniyat qildi. Ammo bular o'zining noanjom ishlar qilg'on xijolatidin chiqolmay, Mirzoxon Qandahorg'a bormoqqa ijozat tiladi. Shoxbegim va Mehr Nigor xonim xaddin ziyoda takalluf va ta'zimlar qilib, podshoh, qoshida turgizdilar. Vaqteki bular Qandahorga bordi, Mirzoxon Qandahorda qoldi. Biz otam birla Farah va Seiston tarafog'a ketduk. Bu niyat birlaki, Xurosonda Ka'baga bormoqni niyat qilib erdi. Vaqteki Farahning tobeiga yetdilar, Shoxibekxon Xurosonni ajratib olg'on xabarini eshitduk. Va yullar xavfnok bo'ldi. Ka'ba safari muyassar bo'lmadi.

Podshoh Kobulda ekanda // bo'lg'on voqealarning ijmolini yuqori zikr qilinib erdiki, tarixga to'qqiz yuz to'qqiz (1503-1504) erdi. Kobulni Muqim ibn Zunnun(din) xalos kildi va Xusravshoxning lashkari yigirma mingg'a yaqin erdi va Kobulga sirmaydurg'on erdi, nochor Hindistonga azimat qildilar. Yulni bilmay ozuqa yo'q yerga tushub qolib tula uloqlari nobud bo'ldi. Agarchandeki, bu lashkarda jang bo'lmadi, lekin shikasti azim yuz kelturdi. Ondin Kobulga

yonib keldilar. Xusravshoxning lashkarlarining tularoqi tafriqa bo'lib ketti. Bu asnoda Shoxbeginning kelmaki va otamning Kobulga kelgani va podshoh, Xurosonga bormoqlirining bayoni ilgari utti. Ul zamoneki men Qandahorga ketdim, bu ittdin podshoh, xalqining axvoliga zaife va future hosil bo'ldi. Vaqt nihoyate tanglikka yuz qo'ydi. Bovujudi Jahongir Mirzo ul zamonda podshohning muhimmotlarida xizmat qamarini borlag'on erdi, bular vafot bo'ldi. Bu voqealar bo'lg'ondin keyin xohladiki, bahar tariq bo'lsa bir ishni qilmoq lozimdurki, Kobulda qaror olib o'ltirmoqqa joiz bo'lgay deb, Qandahorga Shohibekga kishi yubordi. Shoxbekxon Zunnun Arg'unning o'g'lidur. Va Zunnun Sulton Husayn mirzoning umarolaridin erdi. O'ttiz yil Sulton Xusayn mirzo tarafidin va Zamini Dovarda xukumatda' turib erdi. Odami shujo' va bo'zruk erdi. Ammo mumsiklik birla to'la hazinalar jam' qilib erdi. O'zi mirzolarining mulozimatiga Xurosong'a borib erdi. Vaqteki Shohibekxon Hirot ustiga bordi, bu kishi tanho Shohibekxonning muqobilasiga chiqdi. Ul yerda filjumla jang qildi. Va ul jangda vafot Qandahorda otasining o'rnida o'g'li Shoxbekxon o'lturdi⁷⁸.

Podshoh, Shoxbekka kishi yubordi. Bu so'zlarni aytтики, avlodi Mirzo Sulton Husaynga albatta itoat va xizmat qilmoq lozim va munosibdur. Bu zamonda saltanat va amirlikka ulardin loyiqooq kishi yuqtur. Chandon bu so'zlarni aytti qabul qilmadi, aning uchunki o'zini martabai balandda xayol qilur erdi. Alqissa ish jang va jadalga to'rdi. Podshoh, Qandahorga bordi. Qandahorning atrofida jangi azim bo'ldi. Oxir podshohga fatx va zafar yuzlandi. Shoxbekning lashkariga hazimat yuzlandi. Ancha hodisalar pesh keldiki, Qandahorning qal'asiga o'zini yetkura olmadilar. Har tarafga parokanda bo'ldi. Podshohning dastiga ancha xazina tushdiki, hammasini lashkarga taqsim qildi va Mirzoxon Qandahorda qolib erdi yana podshohga qo'shildi. Podshoh, davlat va Banimatlar birla Kobulga tushdi va Qandahorni Jahongir mirzoning ukasi Sulton Nosir mirzoga topshirdi. Vaqteki Kobulga

⁷⁸ Мирзо Муҳаммад Ҳайдар Аъзий. Тарихи Рашидий. Нашрга тайёрловчи, сўзбоши, табдил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифи т.ф.н. О.Жалилов. – Т.: О'zbekiston, 2011. – Б. 244.

keldilar Badaxshondin xabar keldiki Xusravshoxning mamlakati o'zbekka taalluq bo'ldi, deb. Ammo Badaxshonning ba'zi tobelari farmon-bardor bo'lmay, o'zbekning lashkarini necha marotaba parokanda qildi. Va Zubayr Rog'iy sardor bo'libdur, degan xabarni anglab Shohbegimga Badaxshonning dag'dag'asi tushdi. Bu sababdinki mening uch ming yillik mulki mavrusimdur, agar chandeki man zaifadurman, mening nabiramki Mirzoxondur, xaloyiq mendin va farzandlarimdin ibo qilolmaydur, dedi. Podshoh, ijoza berdi. Shoxbegim va Mirzoxon Badaxshonga bordilar. Va Mirzoxonni Zubayr Rog'iyning oldiga yubordiki begimning xabarini yetkazgay va anchaki aning xayolidagini bilgay. Vaqteki Mirzoxon ayrilib erdiki Koshkardin Mirzo Abobakrning lashkari yetti. Aning xalqi Begim va Xonim birla har kishi birla erdi. Ularni olib kettilar. Mirzo Abobakrning sharhini fotg'ina zikr qilinur. Mirzoxon Zubayrning oldiga qochib ketdi. Zubayr avvalida filjumla e'zoz qildi. Va oxirida ul nav'da saqladiki, ikki-uch hizmatkordin bo'lak kishini ularning oldog'a kirguzmadi. Necha muddatdin keyin Mirzoxonning kadim mulozimlaridin Yusuf Ali Kukaldosh devona bularning qoshig'a kirib yana un sakkiz kishi birla ittifoq qildilarki, kechasi shabixun urub ulturgaylar. Va Mirzoxonni podshoh, kilg'aylar. Ul vaqtda tarixqa to'qqiz yuz un uch (1507-1508) erdiki, tooxir vaqtgacha Badaxshon Mirzoxonning qo'lida erdi. Ammo podshoh, Kandahorni fath qilgondin keyin Kobulda erdi. Xusravshoh bir jamoa mo'g'ul birla qolib erdi. Uch ming kishiga yaqin kishi birla Abdurazzoq mirzoga, Ulug'bek mirzoning o'g'lidur, ani Kobulga podshoh, ko'tarib muholifat qildi. Andoqki podshoh, birla besh yuz kishidin ziyoda kishi qolmab erdi. Podshoh, besh yuz kishi birla chikib masof to'zdilar. Ul kuni muholiflarning tularoqini tutub shikast berdi. Andin podshoh, bahodirlardin besh kishi birla muholifning lashkari Ali, Said ko'r va Ali Sino uch kishiga muqobala bo'lib, dilovarlik birla ularni qochurub, Abdurazzoq mirzoni qo'lga tushirib erdi. Yana podshoh, muruvvat qilib, quyoberdi. Andin keyin podshohing muhim ishlari kifoyat tobib Kobulda bo'ldilar. Tarixka to'qqiz yuz un oltisida (1510) Shohibekxon vafot bo'ldi. Buning axvolini zikr qilinur.

Xulosa

Mirzo Muhammad Haydarning «Tarixi Rashidiy» asari O'rta Osiyo, Xuroson, Hindiston va Sharqiy Turkistonning XV asr oxirlari – XVI asr birinchi yarmidagi tarixi, madaniy, etnik munosabatlarini o'rganishda o'rganishda muhim manba hisoblanadi. Asarda o'sha davr madaniy-ma'naviy hayotiga oid ma'lumotlar ham ko'p bo'lib, mashhur shoirlar, olimlar, san'atkorlar hayoti va ijodi haqida g'oyat muhim ma'lumotlar keltirilgan. Shunisi diqqatga sazovorki, Mirzo Muhammad Haydar bolalik paytidan boshlab o'sha davrning ko'pgina mashhur kishilari bilan muloqot qilgan va ularning ba'zilariga shogird bo'lgan.

1541-1546 yillarda yozilgan «Tarixi Rashidiy» asari ikki jild (daftar)dan iborat. Birinchi jildda Chig'atoy ulusi emirilgach, uning sharqiy viloyatlarida tashkil topgan davlat – Mo'g'ulistonning qariyb ikki yuz yillik (1347-1546) tarixi yoritilgan. Tug'luq Temurxon (1348-1363)dan to Abdurashidxon (1533-1560) gacha bo'lgan davr tarixi yoritilgan. Chig'atoy avlodlariga mansub xonlarning xayot faoliyati bir boshdan bayon etilgan. «Tarixi Rashidiy»da o'zidan oldin va o'zi bilan bir davrda Markaziy Osiyoda o'tgan atoliq tarixchilar asarlaridan foydalanilgan. Asarning birinchi daftar turli naql-rivoyatlar, shuningdek, Yoqut Hamaviyning «Mujam ul-buldon», Juvayniyning «Tarixi Jahonkushoy», Rashididdinning «Jome ut-tavorix», Jamol Qarshiyning «Mulhaqot us-suroh», Sharafuddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma», Mirzo Ulug'bekning «Tarixi arba' ulus» va nihoyat Abdurazzoq Samarqandiyning «Matla' us-sa'dayn» kitoblaridagi ma'lumotlar asosida yozilgan. Lekin, unda ham Markaziy Osiyoning XIV-XV asrlardagi ijtimoiy-siyosiy hayotiga oid yangi, yuqoridagi manbalarda bo'lmagan ma'lumotlar ko'p. Qolaversa, birinchi daftar Qoshg'ar, Qozog'iston, shuningdek, Movarounnahr va Turkistonning XIV-XVI asr boshlaridagi siyosiy tarixini mukammal qamrab olishi bilan qimmatlidir.

Ikkinchi jild esa birinchisidan keskin farqli o'laroq muallifning memuar-kundalik daftarini hisoblanadi. Unda muallif Markaziy Osiyo mamlakatlarida bo'lgan paytlarida ko'rgan, bilgan va bevosita o'zi ishtirok etgan voqealarni bayon etgan. O'rta Osiyo, Sharqiy Turkiston, Afg'oniston, Shimoliy Hindiston va

Tibatning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy ahvoli, jug'rofiyasi, xalqaro munosabatlari to'g'risida yangi ma'lumotlarni keltirgan. Mashhur shoirlar, olimlar, so'fiylar, san'atkorlar hayoti va ijodi haqida g'oyat muhim ma'lumotlar keltirgan. Ya'ni voqealarga boy jo'shqin hayoti davomidagi ko'rgan-kechirgan xotiralarining jonli va ta'sirli bayon qilgan. Bu ma'lumotlar Qoshg'ar, Movarounnahr, Afg'oniston hamda Shimoliy Hindistonning XVI asrning birinchi yarmidagi tarixini o'rganishda asosiy va qimmatli manbalardan hisoblanadi.

«Tarixi Rashidiy»da temuriylar sulolasi, boburiylar sulolasi, mo'g'ul xonlari sulolasi, o'zbeklar sulolasining tarixiy manzarasi kitobxon ko'z o'ngida butun kengligi va ko'pligi bilan namoyon bo'lsa, ayni paytda qozoq xonlari, safaviylar sulolasi hamda qirg'iz biylari ham ma'lum ma'noda tarixchi nazaridan chetda qolmagan.

Sohibqiron Amir Temur, Shohrux mirzo, Ulug'bek mirzo, Abusaid mirzo, Husayn Boyqaro, Bobur mirzo, Humoyun mirzo, Komron mirzo faoliyatlari, jangu jadallari tasviri bir yoqdan; Abulxayrxon, Shayboniixon, Ubaydullohxonlar ikkinchi tomondan va uchinchi tomondan mo'g'ul xonlari: Tug'luq Temurxon, Yunusxon, Sulton Mahmudxon, Sulton Ahmadxon, Abobakr mirzo, Sulton Saidxon, Abdurashidxon va nihoyat, to'rtinchi tomondan qozoq xonlari: Girayxon, Qosimxon, Tohirxonlar, Bo'ydoshxon beshinchi tomondan, safaviylardan Shoh Ismoil Safaviy, Shoh Tahmosplar silsilalari asar bo'ylab harakalanadi.

Mirzo Haydar «Tarixi Rashidiy»da mirzolar, xonlar, o'zbeklar va qozoq hukmdorlariga doir voqealarni talqin qilar ekan, buyuk insonshunos sifatida (bu sifat Boburga ham juda xos edi) har bir hukmdorning ma'naviy-axloqiy olamini ham ochib berish payida bo'ladi. Muallif-adib bir necha xil ijtimoiy siymolarni kitobxon ko'z o'ngida tizadi. Ulug' maqsadli buyuk jahongir va lashkarboshi hukmdorlar: Amir Temur, Tug'luq Temurxon, Abusaid mirzo; ma'rifatli hukmdorlar – Mirzo Ulug'bek, Husayn Boyqaro, Yunusxon, Bobur mirzo, Ubaydullohxon, Sulton Saidxonlarni bir tomondan, razil-shafqatsiz, insofsiz, mutakabbir, yovuz xon, shoh va beklar: Abobakr mirzo, Mirzo Ali

Tog'ay, Kuchluk, Do'stmuhammadxon, Muhammadilarni ikkinchi tomondan gavdalantiradi.

Darhaqiqat, Amir Temur buyuk jahongir sifatida Hindistondan Turkiyagacha lashkar tortib ulkan bir mamlakat sohibi bo'lganidek, Abusaid mirzo ham Sharqiy Turkistondan Kavkaz Qorabog'igacha cho'zilgan hududlarni o'z zabtiga olib, Amir Temurning oyog'i tekkan erlarni yana bir mamlakat holiga keltirishga tirishdi. Mo'g'ul xonlaridan Tug'luq Temurxon ham Chingiz davrida Chig'atoyga mansub keng hududlarda o'z hokimiyatini tiklash uchun O'rta Osiyoga bosqinchilik hujumlari uyushtirib turdi va bu mo'g'ullarning saltanati soyasidan Amir Temur, Shohrux va Ulug'bek mirzolar davrida ham davlat hujjatlari boshida falon xon nomi turardi. Chunonchi, Amir Temur farmonlari «Suyurg'otmishxon yorlig'idin Temur Ko'ragon so'zum» deb boshlanadi. Keyingi hukmdorlar ham ana shunday farmonlar yozdirishgan; o'zlarini xon ismidan keyin keltirishgan. Bu noxush an'anaga Abusaid mirzogina chek qo'ydi.

Mirzo Ulug'bek, Husayn Boyqaro Movarounnahr va Xurosonning poytaxt shaharlari Samarqand va Hirotni nafaqat me'moriy obidalar jihatidan, balki ilm-fan, madaniyat va san'at sohasida ham jahonga ko'z-ko'z qiladigan darajaga etkazdilar. Bobur va Ubaydullohxon ham o'zlari buyuk shoir, lashkarboshi bo'lishlari bilan birga shaharsozlik va ilm-fan rivojiga katta hissa qo'shdilar, o'z saroylarida adabiy muhit yaratdilar.

Mo'g'ul xoni Yunusxon taqdir taqozosi bilan otasi Uvaysxon vafotidan so'ng Samarqandga keldi. Shohrux mirzo o'n uch yashar Yunusxonni buyuk mutafakkir Sharafiddin Ali Yazdiy tarbiyasiga topshirdi. O'smir Yunusxonning ulug' tarixchi xonadoniga kelishi naqadar quvonchli hodisa bo'lganligini Mavlono Sharafiddin Ali Yazdiyning quyidagi baytidan tasavvur etish mumkin: «Xitodan xon keldi» deb aytgan inson, Uying kuygur, bunday degin: «Jon keldi, jon!». Yunusxon yigirma besh yoshlarida besh-olti yil Forsda, Sherozda bo'lib, mirzolar saltanatini ko'rdi. Nihoyat, Abusaid mirzo uni Samarqandga chaqirtirib shohona ziyofatlar berdi va O'rta Osiyo hukmdorlariga rasm bo'lgan davlat buyruqlarida xon so'ziga barham berilganini uqtirdi: «Hozir siz o'zingizning avvalgi xonlik

odatlarinigizni hatto xayolingizga ham yaqin keltirmang: «Ya'ni, endi shoh farmonlari o'z sulolasi nomi bilan ziynatlanadi. Bundan buyon oramizda faqat do'stlik va hamjihatlik hukm suradi» dedi va Yunusxonni Mo'g'ulistonga jo'natdi. Ma'rifatli Yunusxon mutafakkir sifatida Abusaid mirzo yaxshiligini unutmadi va uning farzandlarini kuyov qilib, yaxshi do'stona qarindosh-urug'chilikka asos soldi. ////

«Tarixi Rashidiy»ning boshqa tarixiy asarlardan farq etuvchi xususiyati shundaki, unda hukmdorlar tarixi talqini bilan uzviy ravishda turli davrlardagi diniy shaxslar pir-murshidlarining ham o'ziga xos silsilalari faoliyati o'z aksini topgandir.

Chingizxon tomonidan Qoraqurunga ko'chirilgan Mavlono Shujo'iddin Mahmuddan boshlab, Tug'luq Temurxonni islomga keltirgan Mavlono Arshadiddin, uning avlodidan Xoja Tojiddin, Xoja Muhammad Yusufargacha bu tarixiy asarda ma'lumotlar bor. Ularning eng mashhurlari Xoja Ubaydulloh Ahror va Xoja Nuro bo'lib hisoblanadilar.

Xoja Ubaydullohning sodiq muridi – Xoja Nuro nafaqat diniy-ruhiy jabhaning buyuk arbobi, ayni paytda o'z zamonining mislsiz hoziq tabibi ham bo'lib hisoblanadi. Chunki u Sharq mamlakatlarining ilm-fan markazlarida bo'lib, tibbiyot sohasining eng mo''tabar ustozlaridan saboq olgan va birga xizmat ham qilgan. Muhammad Haydar mirzo u kishining karomatu tabobati haqida juda ko'tarinki ruhda fikr yuritadi.

Muhammad Haydar mirzo nazarida ushbu ma'naviyat darg'alari safida turuvchi kishilar, Alisher Navoiy ta'biri bilan aytganda «asl ilm – din ilmi» donishmandlari, arboblari, aziz-avliyolar ham borlar: Abdurahmon Jomiy, Mavlono Sa'diddin Koshg'ariy, Mavlono Nizomiddin Xomush, Xoja Alouddin Attor, Xoja Muhammad Porso, Xoja Ubaydulloh Ahror, Mavlono Dovud Hisoriy, Mavlono Shayx Husayn Muhtasib, Mavlono Shamsiddin Bahrobodiy, Mavlono Shamsiddin Muhammad (Zavjiy) Rumi, Xoja Abdulaziz Jomiy, Shayx Puron, Mavlono Abu Said Ubahiy, Mavlono Mu'in Voiz, Mavlono Xoja Ko'hiy, Hofiz

Mahmud Ziyoratgohiy va boshqalar haqidagi ma'lumotlar yanada mufassalroq berilgandır.

Voqea-hodisalar talqinining izchilligi, muallifning og'zaki ishonarsiz ma'lumotlarni asarga kiritmasligi, tarixiy arboblarning shaxsiyatiga haqqoniy oqilona munosabat, hatto diniy nuqtai nazardan o'zi la'natlab turgan shaxs va uning so'zlari, maktublari mazmuni haqqoniyatiga erishish, talqinda fikr tiniqligi, balandparvoz murakkab jumladan qochish, samimiyligini tarixchi va adib Muhammad Haydar Mirzoning uslubini belgilaydi. Asarda «Boburnoma» ta'siri yaqqol sezilib turadi. Akademik V.V. Bartold ham buni ta'kidlab yozgan edi: «Mirzo Haydarning asari ko'p hollarda uning xolavachchasi Boburning yodnomalarini eslatadi. Mirzo Haydarning tarixiy ma'lumotlari xuddi Boburnikidek haqqoniyligi va xolisligi bilan ko'zga tashlanadi, jug'rofiy tavsiflar esa joylarni aniq va ravshan ifodalaydi».

Ikki fundamental asar – «Boburnoma» va «Tarixi Rashidiy» Hirot adabiy-madaniy muhiti talqinida shunchalik bir-biriga yaqinlashadi va bir-birini to'ldiradiki, bu ishda Muhammad Haydar mirzo Bobur mirzo bilan ijodiy musobaqaga tushganday bo'ladi. «Boburnoma»dan ko'pchilik xabardor bo'lganliklari uchun qayd etamizki, Bobur o'z asarida Abdurahmon Jomiy ismini tabarrukkagina eslatgan bo'lsa, Haydar mirzo Jomiy hayotining ajoyib sahifalarini juda izchillik bilan bayon etadi, uning risolasi matnini to'lig'icha keltiradi.

Aftidan, Muhammad Haydar mirzo «Vaqoe'» («Boburnoma»)dan yaxshi xabardor bo'lgan. Shuning uchun Hirot ilm-adab hamda din ahllari xususidagi ma'lumotlari bir-birini takrorlamaydi, balki to'ldirib, mukammallashtirib boradi. Haydar mirzo madaniy-adabiy muhit miqyosini kengroq qamrab olganidek, diniy-tasavvufiy arboblarning hayoti va ijodiga ham juda katta o'rin ajratadi. «Tarixi Rashidiy»dagi shoir, olim, rassom, xattot va fuzalolarning ismima-ism ko'rsatilgani va har biri haqidagi ma'lumotlarning aniqligi, muhimligi kishini hayratga soladi. Bu o'rinda ushbu ma'lumotlarning ko'pligi, xilma-xilligi, mukammalligi jihatidan «Tarixi Rashidiy» «Boburnoma» bilan bema'lol bellashadi. «Boburnoma»da tilga olingan shoiru olimlar haqidagi ma'lumotlar bu asarda yangiligi bilan e'tiborimizni

jalb etadi. Hatto «Vaqoe'» («Boburnoma»)da Alisher Navoiy haqida Bobur qanchalik keng to'xtalgan bo'lmasin, Muhammad Haydar mirzo ma'lumotlari ularni yanada mukammallashtiradi, aniqliklar kiritadi.

Bobur mirzo va Haydar mirzolar shaxsiyatida din va shariatga munosabat deyarli bir xil. Har ikkisi ham Muhammad (s. a. v) dini, shariati va bu sohaning jonbozlari – targ'ibotchilari bo'lgan ulug' pirlarga: Bobur Xoja Ubaydulloh Ahror, uning o'g'illari Xoja Yah'yo va nabiralari Xoja Ya'qub, Andijon qozisi va piri Muhammad Qoziga kuchli e'tiqod bilan yashaganidek, Mirzo Muhammad Haydar ham Xoja Muhammad Nuroga, Mavlono Tojiddin, Mavlono Arshadiddinga ulug' ehtirom bilan qaraydi. Bobur «Boburnoma»da Xoja Ubaydulloh Ahrorning, Xoja Ya'qubning uning joniga ora kirganlarini tushlari va hayotiy voqealar bilan dalillaganidek, Mirzo Haydarning Ubaydullohxon tomonidan Amuga cho'ktirilmagani boisi Xoja Muhammad Nuroning Mavlono Muhammadga Haydarni olib qochishga bergan buyrug'i bo'ladi. Shu tavsiya va ko'rsatma tufayli Mavlono Muhammad uni avval Badaxshonga, so'ngra Kobulga – Bobur huzuriga olib boradi. Demak, aziz pirlar ham Bobur mirzo, ham Haydar mirzo jonlariga bevosita yoki bilvosita ora kiradilar.

Aziz-avliyolar, pir-murshidlarga «Boburnoma» va «Tarixi Rashidiy» asarlarida ajratilgan o'ringa ahamiyat bersak, Haydar mirzo Bobur Podshohga ko'ra ko'proq e'tibor bergan desa bo'ladi. Biroq Bobur mirzoning fiqhga doir: «E'tiqodiy», «Kitob ul-haj», «Kitob us-salot», «Kitob uz-zakot» asarlari va Xoja Ubaydulloh Ahrorning «Volidiya» asarini tarjima qilganligini inobatga olsak, bu tarozu pallalari tenglashadi.

Xulosa qilib aytganda Mirzo Muhammad Haydar o'zi ko'rgan-bilgan va ishtirok etgan voqealar haqida yozgani uchun bu asar ko'p o'tmay Sharq va G'arb tarixchi, sharqshunoslari diqqatini o'ziga jalb qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Т.: Ўзбекистон, 1997.
2. Каримов И. А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Т.: Шарқ, 1998.
3. Каримов И. А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008.
4. Амир Темур. Амир Темур ўғитлари. Тузувчилар Б.Ахмедов, А.Аминов. – Т.: Наврўз, 1992.
5. Ахмедов Б. Ўзбекистон тарихи манбалари. – Т.: Ўқитувчи, 2001.
6. Баракаев Х. Тасаввуф ва Хожа Аҳрор Валий. – С.: Сўғдиён, 1997.
7. Валихўжаев Б. Хожа Аҳрор Вали. – С.: Зарафшон, 1993.
8. Валихўжаев Б. Хожа Аҳрор тарихи. – Т.: Ёзувчи, 1994.
9. Валихўжаев Б. Буюк маънавий муршид. – Т.: Фан, 2004.
10. Джалилов А. Список тюркских рукописей произведения Мирзо Мухаммада Дуглати «Тарихи Рашиди», хранящихся в институте Востоковедения АН РУз // Мухаммад Хайдар Дуглати – государственный деятель, выдающийся учёный-историк. – Тараз, 1997.
11. Жалилов О. Ҳ. Мирзо Мухаммад Хайдарнинг “Тарихи Рашидий асарининг туркий кўлзма нусхаси // Шарқшунослик 1997. № 5.
12. Заҳириддин Мухаммад Бобур. Бобурнома. Т.: Юлдузча, 1989.
13. Кадырова М. Жития Ходжи Ахрара. Опыт системного анализа по реконструкции биографии Ходжи Ахрара и истории рода Ахраридов. Т.: Рабочие документы IFЕАК, 2007
14. Каримов С. Амир Темур ва нақшбандийлик // Таълим тизимида талаба ёшларнинг ғоявий-мафкуравий тарбияси ва уларнинг уйғунлигини таъминлашнинг долзарб муаммолари. Мавзусидаги Республика илмий-амалий конференцияси материаллари
15. Каримов Э. Хўжа Аҳрор ҳаёти ва фаолияти. – Т.: Маънавият, 2003.

16. Каттаев К. Гўри Амир макбараси ва қабртошлари тарихи. – С.: Зарафшон, 2008.
17. Мавлоно Муҳаммад Қози. Ҳукмдорга ўғитлар. Т.: Шарқ, 1999.
18. Мадраимов А., Фузаилова Г. Манбашунослик. – Т.: Фан, 2007.
19. Мирза Муҳаммад Хайдар. Та’рих-и Рашиди. Введ., пер. с персидского А. Урунбаева, Р.П. Жалиловой, Л.М. Епифановой. Примечания и указатели Р.П. Жалиловой и Л.М. Епифановой. – Т.: Фан, 1996.
20. Мирзо Муҳаммад Хайдар Аёзий. Жаҳоннома. Нашрга тайёрловчилар: С.А. Азимжонов, А.Ўринбоев, О.Х. Жалилов. – Тошкент, 1999.
21. Мирзо Муҳаммад Хайдар Аёзий. Тарихи Рашидий. Нашрга тайёрловчи, сўзбоши, табдил, изохлар ва кўрсаткичлар муаллифи т.ф.н. О.Жалилов. – Т.: O'zbekiston, 2011.
22. Мугинов А.М. Описание уйгурских рукописей Института Народов азии. – М.: Изд-во вост. лит., 1962. – С. 37-44.
23. Муҳаммад Хайдар Мирзо. Тарихи Рашидий. Ваҳоб Раҳмонов ва Янглиш Эгамов таржимаси. Т.: Шарқ, 2010.
24. Собрание Восточных рукописей АН УзССР. Том VII. – Т.: Фан, 1964.
25. Султонов Ў. Хожа Аҳрор ва унинг авлодлари билан Мўғулистон хонлари ўртасидаги муносабатлар // Имом ал-Бухорий сабоқлари. 2004 й. № 2.
26. Қутибоев З. Хожа Аҳрор Валий. – Т.: Фан, 1996.
27. Ҳожи Исматуллоҳ Абдуллоҳ. Марказий Осиёда ислом маданияти. Т.: Шарқ, 2005.
- 28.